

**TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**



**O'QUV USLUBIY
MAJMUA**

TOSHKENT-2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**“IQTISODIYOT VA IQTISODIY
MUNOSABATLAR”**

YO'NALISHI

**“IQTISODIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI
VA ZAMONAVIY YUTUQLARI”**

moduli bo'yicha

**O'QUV USLUBIY
MAJMUA**

Toshkent - 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Xasanov R.R.- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Taqrizchi: Rasulev A.F.-TDIU Fundamental iqtisodiyot kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (“__” _____202__-yildagi ____-sonli bayonoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	13
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	19
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	66
V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	109
VI. GLOSSARIY	111
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	115

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni O'zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta'lim vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o'qitishning zamonaviy shakllarini qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari, dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini jahon miqyosida to'plangan va bir tizimga keltirilgan iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, qonunlarini, tamoyillarini, ularning amal qilish xususiyatlari va mexanizmlarini

hamda ularni amalda tatbiq etish to'g'risida ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Modulning vazifalari:

- taraqqiyotning turli bosqichlarida va turli mamlakatlarda tarkib topib shakllangan nazariy bilimlarni o'zlashtirish;
- iqtisodiy mushohada qilish usullari bilan qurollantirish;
- iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini mantiqiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashiga ko'maklashish;
- ular ongiga iqtisodiy taraqqiyotda erishilgan yutuqlar asosida milliy mafkuraning asosiy qoidalarini singdirish;
- milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni o'rganish va ularni taxlil qilish;
- iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlarini tahlil qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash, erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish asosida hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning dolzarb muammolarini ochib berish;
- iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to'g'risida mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Iqtisodiyotning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- bozor iqtisodiyoti amal qilishining zamonaviy tendensiyalari va xususiyatlari;
- bozor mexanizmi, uning amal qilishi va muammolari;
- yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi tub o'zgarishlar va sog'lom biznes muhitining rivojlanishi;
- iqtisodiyotning rivojlanish drayverlari va omillari;
- iqtisodiyotning ijtimoiyligi va O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiyot asoslarining yaratilishi;
- O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasi va uning zamonaviy shakllari;
- innovatsion iqtisodiyot asoslarining shakllanishi va rivojlanishi;
- O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish;
- “O'zbekiston 2030” konsepsiyasi va uning ustuvor yo'nalishlari;
- O'zbekiston iqtisodiyotining istiqbolli mo'ljallari haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;
- zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoslarini;
- milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini;
- makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni;

- iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlarini;
- hozirgi zamon pulining tabiati va ularning o‘zaro bog‘liqligi;
- iqtisodiy muvozanatning amal qilish tamoyillari va namoyon bo‘lish shakllari;
- iqtisodiy inqirozlar kelib chiqish sabablari va oqibatlari;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri;
- jahondagi asosiy integratsion guruhlarining amal qilish xususiyatlari;
- iqtisodiyot milliy va globallasuvi jarayonlarining zamonviy tendensiyalari bo‘yicha **ko‘nikma va malakalarini egallashi**;
- zamonaviy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samarali qo‘llash;
- iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda iqtisodiy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish;
- iqtisodiy resurslarning turkumlanishi va ulardan samarali foydalanish muammolari to‘g‘risida;
- O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari;
- milliy iqtisodiyotning muvozanatli va omilli rivojlantirilishi;
- iqtisodiy siyosat ustuvorliklari va strategiyasi borasidagi **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Iqtisodiyotning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Iqtisodiyotning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejadagi “Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat va milliy iqtisodiyotni barqarorlashuvi” moduli “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali Iqtisodiyotning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari bo‘yicha tinglovchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni shakllantirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Iqtisodiy faoliyatning bugungi kundagi dolzarb muammolari.	4	2	2	
2.	Bozor iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va bozor mexanizmining amal qilishi xususiyatlari.	4	2		2
3.	Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi va makroiqtisodiy beqarorlik.	6	2	2	2
4.	Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv. "O'zbekiston 2030" Strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlari.	2			2
Jami:		16	6	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: IQTISODIY FAOLIYATNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MUAMMOLARI. (2 soat)

Bozor iqtisodiyoti amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlari.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy muammolari: institutsional, moliyaviy, qishloq xo'jaligi va sanoat disproporsiyasi, iqtisodiyotda davlat sektorining yuqoriligi, monopolizm, kambag'allik va ijtimoiy himoya, islohotlar yuki va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti amal qilishining asosiy shartlari, tartib-taomillari va belgilari. O'zbekistonda iqtisodiyotning bozor va nobozor vositalar qo'llanilishi, ularning o'zaro ta'siri va rivojlanish istiqbollari.

2-MAVZU: BOZOR IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA BOZOR MEXANIZMINING AMAL QILISHI XUSUSIYATLARI. (2 soat)

Bozor mexanizmlarining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori va davlat sektori. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslar taqsimoti, bozor dastaklari, mavjud

muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda erishilgan yutuqlar va istiqboldagi vazifalar.

3-MAVZU. IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK. (2 soat)

Transformatsiyalashuv davrining umumnazariy qoidalarini, ularning O‘zbekiston iqtisodiyotida amalda namoyon bo‘lish xususiyatlari. Transformatsiya jarayonlarining qaror topishi, zaruriyati, undagi asosiy elementlar va shakllanish mexanizmi. Iqtisodiy transformatsiya jarayonlariga ta’sir etuvchi omillar.

Innovatsion iqtisodiyot turlari, tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlari. Kreativlik. Innovatsion rivojlanishning chet el tajribasi, uning o‘ziga xosligi, tajriba almashish borasidagi aloqalar, innovatsiyalar transferi.

4-MAVZU. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA GLOBALASHUV. “O‘ZBEKISTON 2030” STRATEGIYASI VA UNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri. Jahondagi asosiy integrasion guruhlarining amal qilish xususiyatlari. Davlatlararo iqtisodiy integrasiyaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar. Turli mamlakatlarda aholi soni o‘zgarishining farqlanishi. Fan-texnika yutuqlarining xalqaro ayirboshlanishi. Jahon xo‘jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlari.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar:

har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

«xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: IQTISODIY FAOLIYATNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MUAMMOLARI. (2 soat)

Iqtisodiy faoliyatning ahamiyati. Ehtiyojlarning o‘shib borishi qonuni. Iqtisodiy resurslarning turkumlanishi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari: FTTning evolyutsion va revolyutsion shakllari, mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi. Iqtisodiy tizimlarning amal qilishining zamonaviy tendensiyalari.

Iqtisodiy muvozanatning amal qilish tamoyillari va namoyon bo‘lish shakllari.

Mutanosibliklarni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlantirilishi. Iqtisodiy inqirozlar kelib chiqish sabablari va oqibatlari.

3-MAVZU: IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING DOLZARB MASALALARI. (2 soat)

Innovatsion rivojlanishning chet el tajribasi, uning o'ziga xosligi, tajriba almashish borasidagi aloqalar, innovatsiyalar transferti. Milliy iqtisodiyotga xorijiy innovatsion texnologiyalarni transfer qilish. Xorijiy innovatsion hamkorlik va milliy uyg'unlikni ta'minlash. ITTKIlarini tashkil etish va rivojlantirish. Ilmiy-innovatsion faoliyat taraqqiyotini tartibga solishning huquqiy asoslari va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va shakllari, moliyalashtirishning milliy va xorijiy tajribasi, moliyalashtirishga innovatsion yondoshuvlar.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrirda), 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-

2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston -2030" Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6079-son Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi "2020 - 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 506-son Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2001 yil 16 avgustdagi "343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

17. Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2009.

18. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2014.

19. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009.

20. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 480 bet.

21. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod, 2021. – 823 bet.

22. Xodiev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017. – 785 b.

23. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019.

24. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2014.

25. Razzoqov A.A., Tashmatov Sh.H., O'rmonov N.T. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.

26. P.S.Lopux, N.L.Strexa, O.V.Sarыcheva, A.G.Shandroxa. Geografiya. Страны і народы. – Minsk : NIO, 2019. – 221 s.

27. Kulikov, L. M. Основы экономической теории : учебник для СПО / 3-ye izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo Yurayt, 2018. — 371 s.
28. Lobacheva, Ye. N. Основы экономической теории : учебник для СПО / 3-ye izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo Yurayt, 2017. — 516 s.
29. Kaznachevskaya G.B. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik. Rostov n/D: Feniks, 2016. - 394 s.
30. Mamaeva L.N. Ekonomicheskaya teoriya: uchebnik. Rostov n/D: Feniks, 2015. - 365 s.
31. Keyns Dj.M. Obshchaya teoriya zanyatosti, prosheniya i deneg. — M.: Gelios, 2002, s.162.
32. Makkonnel K.R., Bryu S.L. Ekonomika: printsipy, problemy i politika: Uchebnik. / 17-izd. - M.: INFRA-M, 2014. — 916 s.
33. Abulkasimov H.P., Hamraev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.-T.: Iqtisod moliya, 2014.

IV. Internet saytlar:


34. <http://yedu.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
35. <http://lex.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
36. <http://bimm.uz> — Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
37. <http://ziyonet.uz> — Ta’lim portali Ziyonet.
38. <http://natlib.uz> — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
39. www.mf.uz-O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining sayti.
40. www.openinfo.uz — Moliya vazirligi korporativ axborot yagona portal.
41. <https://www.uzse.uz> — Respublika Fond birjasi.
42. <https://www.fondbozori.uz> — O‘zbekiston Respublikasi fond birjasi sayti.
43. www.openbudget.uz — O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq budget” portali.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinuvi.

Muzokaralarni o‘tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o‘z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o‘rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e‘tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o‘tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so‘zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o‘z variantini

taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq soʻzlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yoʻl qoʻymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qoʻshgan hissasi toʻgʻrisida fikrlarni bildiradi va boshqalar.


«Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar boʻroni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.


Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish boʻyicha oʻz fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – oʻqib-oʻrganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

Koʻrgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar



- **To'g'ridan-to'g'ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko'proq fikrlar yig'ilishini ta'minlaydi. Butun o'quv guruhi (20 kishidan ortiq bo'lmagan) bitta muammoni hal etadi.
- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlariga bo'lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.
- Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.



Klaster

(Klaster – tutam, bog'lash)

Ma'lumot xaritasini tuzish va vositasi – barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun qandaydir asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimning faollashishini ta'minlaydi, mavzu bo'yicha fikrlash jarayonida yangicha assotsiatsiya taqdim etishga erkin va ochiq kirib borishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidalari bilan tanishadi. Auditoriya doskasi yoki katta qog'oz varag'i markazida kalit so'zlar 1-2 so'zdan iborat tarzida yoziladi.

Kalit so'zlar bilan assotsiatsiya bo'yicha yon tomondan kichkina hajmdagi aylanaga "yo'ldoshlar" yoziladi – ushbu mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasi. Ular chiziq bilan "bosh" so'zga bog'laniladi. Ushbu "yo'ldoshlar"da "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin. Yozuvga ajratilgan vaqt tugagunga yoki g'oya yo'qotulmaguncha davom ettiriladi.

Toifali jadval

Toifa – mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko‘ra olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi.



- tizimli mushohada qilishni, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Toifali sharhni tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Aqliy hujumdan so‘ng (klasterga ajratish) mini guruhlarda yangi o‘quv materialini bilan tanishiladi va olingan ma’lumotlar fragmentlarini birlashtirishga imkon beradigan toifalarni izlash ishlari olib boriladi.

Toifalar jadval ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. G‘oya ma’lumotlar jadvalida tegishli toifalar bo‘yicha taqsimlanadi. Ish jarayonida ma’lum bir toifalar nomlari o‘zgartirilishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin

Ishning natijaviy taqdimoti

Venn diagrammasi



SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko‘ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog‘liq bo‘lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog‘liq bo‘ladi. Uni qo‘llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o‘qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to‘siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo‘ladi.

So‘ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni yengib o‘tish vositalari strelka ko‘rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o‘ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo‘laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni	✓ individual va guruhda ishlash;

aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: IQTISODIY FAOLIYATNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MUAMMOLARI.

Reja:

- 1.1. Bozor iqtisodiyotining amal qilishi xususiyatlari.**
- 1.2. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli.**
- 1.3. O'zbekiston iqtisodiyotidagi muammolar va yechimlar.**

Tayanch iboralar:

Bozor iqtisodiyoti, bozor qonunlari, bozor mexanizmi, bozor, bozor ob'ekti, bozor sub'ekti, uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori, bozor infratuzilmasi, tartibga solish.

1.1. Bozor iqtisodiyotining amal qilishi xususiyatlari.

Bozor iqtisodi va uning qonunlarini yirik iqtisodchilar asoslab berishgan (A. Smit, K. Marks, Bem-Beverk, A. Marshall, M. Fridmen) Bozor iqtisodi mohiyatini bir so'z bilan ifodalash qiyin, lekin uni quyidagacha tariflasa bo'ladi: bozor iqtisodi xususiy mulkka asoslangan erkin demokratik iqtisod, tovar pul munosabatlariga, oqilonalik qoidalariga tayanuvchi, pul vositasida boshqarilib turuvchi iqtisoddir.

Bozor iqtisodi - umum bashariy iqtisodiy tizim. U tabiiy rivojlanuvchi iqtisod, u ijtimoiy muhitdan kelgan signallarga binoan rivojlanadi. Bunday signal vazifasini bozorning talabi bajaradi.

Iqtisodning 3 muammosi bo'lib, ular:

1. Nimani ishlab chiqarish;
2. Qanday ishlab chiqarish;
3. Kim uchun ishlab chiqarishdan iborat.

Bu muammolar yechimini bozor belgilaydi. Bozor iqtisodining belgilari: xususiy mulkchilik, sotsial yo'nalishning mavjudligi, iqtisodiy liberalizm va poliformizm, raqobatchilik, iqtisodiy tanlov va ratsionalizm, nihoyat iqtisodiy differensiatsiya.

Bozor iqtisodi tarixan 2 bosqichli bo'ladi:

- 1) Tartibsiz iqtisod, asov iqtisod bosqichi,
- 2) Tartiblanadigan, madaniyatli, ya'ni sivilizatsiyalashgan iqtisod bosqichi.

Xozirgi rivojlangan davlatlar iqtisodi - bu sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodi hisoblanadi. Rivojlangan bozor iqtisodining 3 ta modeli mavjud:

- 1) Aralash iqtisod (AO'Sh)
- 2) Sotsial bozor iqtisodi (Germaniya).
- 3) Korparativ iqtisod (Yaponiya).

Buni bozor iqtisodiga o'tish modellari bilan chalkashtirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodi insoniyat taraqqiyotiga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlardan biri.

Tizimlar:

- 1) traditsion, natural iqtisod;
- 2) Bozor iqtisodi;
- 3) Tatalitor rejali iqtisod;

Bozor iqtisodi abadiy emas, u o'z rivojida boshqa tizimga aylanishi mumkin, lekin bu qanday tizim bo'lishini hozirchalik aytish qiyin. Bozor iqtisodi umum bashariy xodisaga aylangan. Dunyoda bu yo'ldan bormayotgan faqat bir mamlakat bor, bu shimoliy Koreya.

Bozor iqtisodiga o'tishning 3 modeli bor:

- 1) Klassik model;
 - 2) Mustamlakachilikdan bozor iqtisodiga o'tish;
 - 3) Sotsialistik tuzumdan bozor iqtisodiga o'tish;
- Bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining bosqichlari

Oddiy tovar xo'jaligi bosqichi	Yovvoyi, erkin kapitalizm bosqichi	Sivilizatsiyalashgan iqtisodiyot bosqichi
Meloddan oldingi 2 ming yil XVIII asr oxiriga qadar	XVIII asr oxiridan XX asrning 30 yillariga qadar	XX asrning 30 yillaridan shu kunga qadar
Belgilari: 1. Mayda individual xususiy mulk monotizimini bo'lishi; 2. Ishlab chiqaruvchi korxonalarni shaxsiy mehnatga asoslanishi, yollanma mehnatni yo'qligi; 3. Mulk sohibi va mehnat ahlining yaxlitligi; 4. Mahalliy bozorga ishlash; 5. Iqtisodiy alohida-lashuv va tarqoqlik; 6. Stixiyalik; 7. Raqobatni cheklanishi; 8. Krizisning nazariy mumkinligi; 9. Ekspluatatsiya va sotsial konfliktni bo'lmasligi; 10. Davlatni aralashmasligi.	Belgilari: 1. Yirik individual xususiy mulk hukm-ronligi; 2. ©llanma mehnatni ustivorligi; 3. Mulk sohibi bilan mehnatkashni bir-biridan ajralishi; 4. Yirik ishlab chiqarishning tarqoqligi; 5. Stixiyali rivojlanish; 6. Milliy bozorga ishlash; 7. Raqobat yovvoyi usullarini bo'lishi; 8. Davlatni iqtisoddan begonalashuvi; 9. Chuqur krizislarni bo'lishi; 10. Ekspluatatsiyani mavjudligi; 11. Sotsial tengsizlikni chuqurlashuvi; 12. Sotsial konfliktlar va beqarorlikni bo'li-shi.	Belgilari: 1. Mulkiy poliformizm; 2. ©llanma mehnat erkinligi; 3. Mulkni aholi o'rtasida tarqalishi, xalq korxonalarini paydo bo'lishi; 4. Yirik va kichik biznesni yaxlitligi; 5. Partnerlik asosida stixiyalikni cheklanishi; 6. Milliy va jahon bozoriga ishlash; 7. Raqobatni madaniy usullarini qo'llanishi; 8. Iqtisodiy tartiblashda davlatni faol ishtiroki; 9. Krizislarni yengil kechishi; 10. Ekspluatatsiyani yo'qligi; 11. Iqtisoddagi insonparvarlik, ommaviy farovonlik;

		12.Sotsial tartiblanishi, totuvlik;	tafavutlarni sotsial
--	--	-------------------------------------	----------------------

Bozor iqtisodi afzal bo'lganidan unga o'tish zaruratga aylanadi. Bu jarayon bozor islohotlari orqali yuz beradi: agrar islohot, narx islohoti, mulk islohoti, tashqi iqtisodiy faoliyat islohoti va sotsial (ijtimoiy) islohotlar. O'zbekistondagi bozor islohoti Strategiyani belgilash tamoyili qoidasiga binoan yuz beradi va ko'p bosqichli xarakterga ega.

Bozor ilmiy talqin etilganda buni tovar ayriboshlash munosabati, xaridor va sotuvchini bir biriga bog'lash mexanizmi deb tushiniladi. Bozor iqtisodiy faoliyatining bir turi bo'lib, uning ishtirokchilari firmalar va korxonalar, davlat va uy xo'jaligi (xonadonlardan) dan iborat bo'ladi, ular o'z manfaati yo'lida bozor munosabatiga kirishadilar. Ular bozorda xam xaridor ham sotuvchi vazifasini o'taydilar. Bozor ishlab-chiqarishni iste'mol bilan bog'laydi, ishlab chiqarishni resurslar bilan ta'minlash, iqtisodni tartiblash vazifasini bajarishi uchun uning rivojlangan infratuzulmasi talab qilinadi. Bozor infratuzilmasi - bu bozor aloqalariga xizmat qiluvchi institutlar (muassasalar)dir. Bozor o'z ob'ekti, miqyosi va sub'ektlarining iqtisodi maqomiga qarab turlanadi. Iqtisod uchun eng muhim narsa - bu bozorni xajmi yoki miqyosi bo'lib, bu tovar oborotining xajmi bilan o'lchanadi. Bozorning xolati bu bozor kop'yunturasi bo'lib, o'zida umumiy iqtisodiy vaziyatni mujassamlashtiradi. Bozor qonunlari borki ular iqtisodning ham qonunlari hisoblanadi. Bular jumlasiga talab qonuni ma'yori naflik qonuni va nihoyat taklif qonuni kiradi.

Talab qonuni - talabning narxga nisbatan teskari mutanosiblikda bo'lishini bildiruvchi bozor qonunidir. Ammo bu qonun talabni narxdan boshqa omillar ta'sirida o'zgarishini izohlamaydi. Mazkur qonun talabning narxga binoan elastiklik koefitsientida o'z ifodasini topadi. Unga binoan elastiklik birdan katta bo'lishi kerak ($E_k > 1$). Meyoriy naflik qonuniga ko'ra bozor to'yingan sari tovarlarning nafli pasayishiga moyil bo'ladi. U qo'shimcha tovarlar beradigan qo'shimcha naflik kamayib borishini bildiradi. Bu qonun talabi shuki naflik pasaygan sharoitda, nafli yuo'ori bo'lgan tovarlarning ishlab chiqarishga o'tishi kerak.

Taklif qonuni shunday qonunki, unga binoan tovarlar taklifi ularning bozor narxiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Ammo narx oshgan sharoitda tovarlar xarajati o'zgarmasligi yoki narxdan sekinroq o'zgarishi talab qilinadi, chunki shundagina foydani ko'paytirish mumkin bo'ladi. Demak narx ortishi foydani oshirgani uchun taklifni o'stiradi. Taklif qonuni taklifni narxga nisbatan elastik bo'lishini bildiradi. Bu koefitsient ham birdan ortiq bo'lishi kerak ($E_k > 1$). Bozorda talab va taklif o'yini yuz berib ular muvozanatlashadi. Bozor muvozanatli bo'lganda defitsitga o'rin qolmaydi, tovarlar to'xtovsiz sotiladi, ishlab chiqarish bir-maromda o'sadi. Talab taklifga qarab iqtisodni o'zgarib turishi bozor mexanizmini bildiradi, ya'ni bozor koordinatsiyasi yuz beradi.

Bozor iqtisodiyotining tub belgilari quyidagicha:

1. Mulkiy poliformizm;
2. Tovar ishlab chiqarishning mavjudligi;

3. Iqtisodiy erkinlik;
 4. Tadbirkorlik faoliyatini ustuvorligi;
 5. Sotsial yo'naltirilganlik;
 6. Raqobatchilik va iqtisodiy riskni mavjudligi;
 7. Ochiqlik;
 8. Hamma uchun teng imkoniyatlarni bo'lishi;
 9. Foyda orttirishga, boy bo'lishga intilishning borligi;
 10. Iqtisodiyot sub'ektlarini qat'iy tabaqalashuvi, boy, o'rta hol va kambag'al tabaqalarni yuzaga kelishi;
 11. Sotsial muvozanatni ta'minlanishi.
- Hozirgi bozor iqtisodiyotining asosiy sub'ektlari:
1. Xonadon (uy) xo'jaligi
 2. Firmalar (korxonalar)
 3. Banklar
 4. Davlat

Zamonaviy bozor iqtisodining amal qilishidan kutiladigan maqsadlar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
2. Iqtisodiy samaradorlikka erishish;
3. To'la bandlikka chiqish;
4. Narxlar barqarorligiga erishish;
5. Iqtisodiy erkinlikni ta'minlash;
6. Daromadlarni adolatli taqsimlanishiga erishish;
7. Muhtojlarni moddiy ta'minlash;
8. Iqtisodni tobora ochiqqligini ta'minlash;
9. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash

1.2. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli.

Davlat o'zining turli xil qo'llab-quvvatlash va tartibga solish vositalarini keng miqyosda tatbiq etish orqali bu sohaning rivojlanishini ta'minlash bilan erkin tadbirkorlik va raqobat muhitini barqarorlashtiradi, aholi bandligi va daromadlari manbaini oshirish bilan uning ijtimoiy farovonligini ta'minlaydi, davlat va mahalliy byudjetlar tushumlarini ko'paytiradi, shuningdek, muldorlar sinfini kengaytirish bilan kelgusidagi yanada yirik biznesning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvidan asosiy maqsad jamiyatdagi turli individlarning manfaatlaridagi ziddiyatni uyg'unlashtirish (integratsiyalash) va iqtisodiy hayotning turli jabhalarida muayan muvozanatlikni ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tanglikning oldini olish; ijtimoiy ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi turli tabaqalari o'rtasida ijtimoiy

muvozanatga erishishdan iboratdir.

Davlatning tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi faoliyati ma'lum bir shakllar hamda usullar asosida olib boriladi. Davlat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ma'muriy, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Davlat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi.

Ma'muriy usullar yordamida xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash va kafolatlar berish, monopoliyani cheklash va halol raqobatni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy tartiblarga rioya etilishini nazorat etish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish ta'minlanadi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo'nalishga solish uchun ta'sir etish choralarini qo'llaydi. Iqtisodiy usullar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash moliya, pul- kredit, soliq, bojxona, baho, sug'urta va boshqa dastaklar orqali ta'minlanadi.

Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy usullari bozor xo'jaligining o'z-o'zini boshqarish mexanizmini cheklasa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi.

Institutsional usullar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlovchi davlat boshqaruvi organlari va turli institutsional tuzilmalarni (assosiatsiyalar, palatalar, jamg'armalar, savdo uylari, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqalar) shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy va institutsional usullar orqali tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi. Chunki, ular tadbirkorlik va tanlov erkinligi, shaxsiy manfaatdorlik va sog'lom raqobat muhitida tadbirkorlik sub'ektlarining samaradorligini yuksaltirishda davlatning rag'batlantiruvchilik rolini yuzaga chiqaradi.

Davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri darajasiga ko'ra, tartibga solishning **bevosita** va **bilvosita** usullari mavjud.

Bevosita qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik sub'ektlariga yo'naltirilgan bo'ladi va ularning moddiy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday chora-tadbirlar sirasiga soliqlar to'lashda yengilliklar joriy etish, imtiyozli shartlar va foizlarda kreditlar berish, davlat buyurtmasi bo'yicha xarid qilinadigan mahsulotlarga kafolatlangan narxlar belgilash, eksport-import operatsiyalarida qulay tariflar va to'lovlar o'rnatish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Ba'zan davlat tadbirkorlik sub'ektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida **bilvosita qo'llab-quvvatlash** choralarini ishga soladi. Bilvosita qo'llab-quvvatlashda davlat ma'lum bir sohalarda to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik sub'ektlariga emas, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar korxonalariga imtiyozlar yaratadi. Bundan asosiy maqsad ushbu korxonalarning tadbirkorlarga yetkazib berayotgan tovar-moddiy qimmatliklari

hamda xizmatlarining narxini sezilarli darajada pasaytirish va pirovard natijada tadbirkorlik sub'ektlariga qulay iqtisodiy sharoitlar yaratib berishdir. Garchi, bilvosita qo'llab-quvvatlash choralarining ob'ekti bevosita tadbirkorlik sub'ektlari bo'lmasada, ular tadbirkorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy usullariga quyidagilar kiradi:

- byudjet-soliq siyosati;
- pul-kredit siyosati;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;
- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash.

Byudjet-soliq tizimi – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi.

Soliq tizimi davlat byudjetini shakllantirishning eng asosiy manbai bo'lishi bilan birga, uning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi (soliq imtiyozlari va boshqalar) vazifasi ham mavjud. Ammo, progressiv soliq tizimidan noto'g'ri foydalanish, ya'ni uning me'yorini haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo'lgan manfaatni, investitsiyalarga bo'lgan rag'batni yo'qqa chiqishi bilan izohlanadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida soliq dastaklari iqtisodiyotini tartibga solib turuvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur dastakdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida foydalanilmoqdaki bu, hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bir qator soliq imtiyozlaridan foydalanishida o'z ifodasini topmoqda.

Pul-kredit tizimi orqali davlat tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish choralarini belgilaydi. Pul-kredit siyosati birinchi navbatda pul muomalasini sog'lomlashtirish, milliy valyutaning qadrini ko'tarish va narxlarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Pul-kredit tizimi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Bevosita iqtisodiy ta'sir ko'rsatish dastaklari sifatida tadbirkorlarga maqsadli kreditlar berish, kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash, bank foizlarining darajasi ustidan bevosita nazorat o'rnatish tadbirlarini ko'rsatish mumkin.

Pul-kredit tizimi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishning bilvosita usullari ko'proq qo'llaniladi. Ularga tijorat banklar zaxiralarining minimal darajasini belgilash, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini tartibga solish, tijorat banklarining qayta moliyalash me'yorlarini muvofiqlashtirish, milliy valyuta kursini belgilab borish, belgilangan me'yorlar darajasida muomaladagi pul emissiyasini aniqlash va boshqa choralarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash (prognozlash) orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi va ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun tavsiya mazmuniga egadir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliya-kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati davlatning oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi:

1. Huquqiy kafolatlar berish, himoyalash va tartibga solish vazifasi – tadbirkorlarning barqaror rivojlanishini hamda ularning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish hamda ularga rioya etilishi ustidan nazorat yuritishni nazarda tutadi.

2. Rag'batlantirish vazifasi – xususiy tadbirkorlik tashabbusi, adolatli raqobat kurashi hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyatini turli iqtisodiy dastaklar yordamida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari o'z ichiga oladi.

3. Taqsimlash vazifasi – ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromadlarni qayta taqsimlash, shuningdek, tadbirkorlarning moddiy-texnikaviy resurslardan imtiyozli asoslarda foydalanishiga sharoit yaratish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.

4. Axborot-maslahat ta'minoti vazifasi – tadbirkorlarning axborot ta'minoti tizimidan teng sharoitlarda, to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini yaratish, ular uchun iqtisodiy muammolarning samarali yechimini topish, xom ashyo va resurslar ta'minoti, ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llash yuzasidan maslahatlar berishni nazarda tutadi.

5. Ijtimoiy kafolatlash vazifasi – ijtimoiy ta'minot va himoyalashning samarali tizimini yaratish, shuningdek, tadbirkorlarning ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi – xalqaro bozorlarda tadbirkorlarning manfaatlarini himoyalash, imtiyozli bojxona tariflari va soliqlar orqali eksport uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.

Davlat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini respublikada amalda bo'lgan qonunchilik doirasida tartibga solib turadi. Bu, birinchi navbatda, ularni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi bo'yicha qoidalarni belgilash, yerdan foydalanish, mehnat, mol-mulk va boshqa munosabatlarni tartibga solish hamda buxgalteriya, soliq va statistika hisobotlarini yuritish tartiblarini joriy etish va boshqalarni nazarda tutadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi talab etiladi:

- tadbirkorlarning ishbilarmonlik faolligini oshirish, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatli tizimini yaratish hamda ularning qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari vujudga kelishi va faoliyatining me'yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining kredit manbalari va sarmoyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- biznes xatarlaridan barqaror himoyalashni ta'minlash uchun sug'urta tizimining ahamiyatini oshirish;

- tadbirkorlik sohasiga investitsiyalarni (shu jumladan, chet el investitsiyalarini), zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni jalb etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini kengaytirish va rivojlantirish;
- kichik korxonalarning xom ashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlarining buxgalterlik hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni zaruriy iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnik va boshqa xil axborotlar bilan ta'minlash;
- soliqlar, yig'imlar va tariflar buyicha imtiyozlar belgilash.
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va boshqalar.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga solish, muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash ishlari bilan tegishli davlat boshqaruvi organlari, Savdo-sanoat palatasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda boshqa tuzilmalar shug'ullanadilar. Ular shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini turli yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi.

Hozirgi davrda mahsulot yetishtiruvchi ishlab chiqaruvchilar murakkab va o'zgaruvchan sharoitda faoliyat ko'rsatmoqda. Kichik tadbirkorlik kimga, qanaqa va qancha mahsulot yetkazib berish kerakligini oldindan bilishi muhimdir. Bugungi kunda kichik tadbirkorlar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar narxi nisbatan arzon va ularni yaqin qo'shni davlatlarga chiqarib sotishi katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, chetga eksport qilish bilan shug'ullanuvchi nodavlat uyushmasini tashkil etish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Bizninchalarning ushbu muammoni hol etishda chet el tajribasida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan usullardan kengroq foydalanish maqsadi muvofiqdir.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida, hamda uni takomillashtirishda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi, bozor infratuzilmasining ahvoli, tashkil qilingan iqtisodiy ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish saviyasi, mehnat va tabiiy manbalar, chet el investitsiyalari, kreditlari, zayomlarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan tashqi, ichki omil va sharoitlarning mavjudligi iqtisodiy, ishlab chiqarish imkoniyatlari tizimni qayta ko'rishni taqazo etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, eksport salohiyatini kengaytirish, mablag' bilan ta'minlashning noan'anaviy usullarini jalb etish, xorij davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyasi darajasi va asosan bozor munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish asosiy omillar hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotida quyidagi asosiy yoʻnalishlar dolzarb sanaladi:

- kichik korxonalar mahsulotlariga ehtiyoj va talab kon'yunkturasini oʻrganish uchun respublika axborot tizimini tashkil etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari tomonidan qoʻllab-quvvatlashni faollashtirish;
- mahalliy miqyosda soliq imtiyozlari ishlab chiqish;
- tadbirkorlar va xaridorlar ijtimoiy himoya kafolatini taʼminlash;
- markazlashgan resurslar manbalari bilan taʼminlash;
- kichik korxonalar uchun asosiy fondlarning jadallashgan amortizatsiyasini ragʻbatlantirish;
- moliyaviy lizing xizmatlarini rivojlantirish;
- kichik venchur korxonalarga mablagʻ sarflayotgan xususiy sarmoyadorlarning davlat sugʻurtasini tashkil etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun kredit muassasalarida zarur sharoitlarni yaratish va kreditlar olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- maxsulot eksporti bilan shugʻullanadigan tadbirkorlar uchun valyuta tushumini sotishning majburiy meʼyorlarini yaxshilash;
- banklararo amalga oshiriladigan hisoblash tizimini rivojlantirish;
- investitsiya loyihalar haqida maʼlumotlar tizimini tashkil qilish;
- xorij sarmoyalari uchun valyuta, soliq va tashqi savdoni boshqarish borasida mustahkam tizim oʻrnatish va boshqalar.

1.3. Oʻzbekiston iqtisodiyotidagi muammolar va yechimlar.

Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy muammolari va yechimini koʻtayotgan yoʻnalishlar.

Birinchisi - institutsional muammo. Bizning iqtisodiy boshqaruvimizda hanuzgacha muayyan vazirlik va idoralarning tarmoq javobgarligiga asoslanganligi ustunlik qilmoqda.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va Markaziy bankning koʻp yoʻnalishli siyosati natijasida bizda davlat markazlashtirilgan investitsiyalarining haqiqiy benefitsiarlari faqat mustahkam sanoat va texnik bazaga ega boʻlgan qurilish kompaniyalari yoki qarorlarni qabul qilish jarayoniga taʼsir koʻrsatadigan korxonalar ustunlikka ega. Kichik va Oʻrta biznes, xususiy sektor bunday hollarda, qoida tariqasida, shartnomalarsiz qolib ketishi mumkin.

Mavjud institutsional muammolar:

- Iqtisodiy rivojlanishda yangi gʻoyalarning yoʻqligi, iqtisodiy boshqaruvga turli xil tushunchalar va yondashuvlarning kurashi. Koʻpincha bizning amaldorlarimiz mamlakat manfaatlari toifalari boʻyicha emas, balki xalqaro moliya institutlari tomonidan oʻrnatilgan "iqtisodiy siyosat samaradorligi" mezonlari boʻyicha oʻylashadi;

- Biznesning haqiqiy muammolarini yetarli darajada tushunmaslik va koʻplab amaldorlarning "muxtor" fikrlashi, oʻrta menejerlarning amaliy bilimlari yetishmasligi muammosi. Davlat tuzilmalarining koʻplab xodimlari chet el

muassasalarini bitirib, chet tillarini bilishlariga qaramay, O'zbekistondagi tadbirkorlikning real sharoitlarida amaliy tajribaga ega emaslar;

- Iqtisodiyotni "qo'lda boshqarish" ning ustunligi, ishlab chiqarish va iste'molning tarmoq balanslari bo'yicha jiddiy ish o'rniga, turli xil qarorlarning iqtisodiyot va hayotning barcha sohalariga ta'sirini modellashtirish vositalarining yetishmasligi. Juda qisqa vaqt ichida turli xil iqtisodiy va ijtimoiy muammolar paydo bo'lganda, ularni zudlik bilan hal qilish, muhim resurslarni safarbar qilish, mavjud, o'rnatilgan ish mexanizmlarini buzishilishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiyotimizning ikkinchi jiddiy muammosi - tadbirkorlik sub'ektlarining kamida 25 foizi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yetarli miqdordagi kapital to'planmagan. Mavjud yirik kapital hukumatga qarashli tuzilmalar bilan bog'liq bo'lib, xususiy kapital asosan juda nozik (tarqoq) taqsimlangan va yetarli darajada konsentratsiyalanmagan. Siz biznes modelini tubdan yangilash yoki texnik qayta jihozlash uchun kamida 100 ming dollar kapitalni safarbar qila oladigan mahalliy investorni kamdan-kam uchratasiz.

Kredit resurslaridan arzon narxlarda foydalanish imkoniyati yo'qligi va faoliyatning rentabelligi yetarli emasligi sababli ko'plab xususiy korxonalar uskunalar va texnologiyalarni sotib olish, raqamli texnologiyalar yutuqlarini qo'llash va hokazolar imkoniyatidan mahrum.

Xususiylashtirish yoki ko'p millionli davlat mulkini operativ boshqarish bo'yicha turli tenderlarda g'olib bo'lgan "investorlar" "xorijiy investorlar" vakili bo'lgan kompaniyalarning yakuniy benefitsiari ekanligini ishonch bilan taxmin qilishimiz mumkin.

Iqtisodiyotimizning uchinchi muhim muammosi - qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyatida paxta va g'alla monopoliyasini bartaraf etish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilmogda. So'nggi yillarda sabzavot, meva va turli xil texnik ekinlarni yetishtirish uchun minglab gektar yerlar aylantirildi. Ammo O'zbekiston sanoati O'zbekistonda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga va qayta ishlangan mahsulotlarni eksport qilishga qay darajada e'tibor qaratmogda?

Har yili qishloq xo'jaligining eng asosiy mahsulotlari: go'sht, kartoshka, piyoz, sabzi va boshqalar yo'qligi sababli vaqtinchalik ajitajni ko'zatamiz. Ko'pgina fermer xo'jaliklari qisqa muddatli beqaror eksportga yo'naltirilgan bo'lib, ular turli xil xaridorlarga bir xil hosilni va'da qilib, o'z daromadlarini sug'urtalashga majbur. Ushbu beqarorlik tufayli fermerlarning daromadlari yildan-yilga pasayib bormogda va ularning aksariyati o'z ishlaridan voz kechishga majbur bo'lib, yoshlarni o'zlari ham xush ko'rmaydigan shaharlarga jo'natishmogda.

Iqtisodiyotimizning to'rtinchi muhim muammosi - kambag'allik ko'lami kengligi. Hozirda 5-6 mln kishi kambag'alliklarni tashkil etadi. Kambag'allikning chuqurlashuvi davlat byudjeti mablag'larini tobora ko'proq sarflanishiga majbur qiladi.

Beshinchi muammo - ulkan davlat sektorining mavjudligi. Zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillari va shaffofligi singdirilmagan va davlat aktivlarini ochiq o'g'irlash mavjud bo'lgan iqtisodiyot. Shu bilan birga, xususiy tuzilmalar

o'zlari uchun faoliyatning ayrim turlarini monopollashtirdi, hokimiyatga o'z ta'siridan foydalandi. Bunday vaziyatdan foyda oluvchilar o'zgarishlardan manfaatdor emas, aksincha, ular bunday vaziyatni saqlab qolishni xohlashadi.

Yechimlari:

1. Iqtisodiyotni tiklash uchun iqtisodiy o'sishni miqdoriy rag'batlantirish, bozorga katta davlat kapitalini kiritish maqsadida mamlakatdagi iqtisodiy siyosatning barcha tarmoqlari siyosatini qayta yo'naltirishga erishish. "inflyatsiyani jilovlash", foiz stavkalariga amistiya joriy etish, "pul taklifini tartibga solish".

2. Kompaniyaning o'z mablag'lari yoki ta'sischilari hisobidan investitsiya kiritishda soliq imtiyozlari berish, kredit stavkalarini, shu jumladan lizing kredit stavkalarini pasaytirish, kreditlar uchun garovni soddalashtirish orqali kichik va o'rta biznesning investitsion faolligini rag'batlantirishning maqsadli siyosatini ishlab chiqish.

3. Yangi ish o'rinlarini yaratadigan (shu jumladan uyda) yoki yangi ishchilarni jalb qiladigan korxonalar uchun, mintaqalar bo'yicha mamlakat uchun keng qamrovli ish bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqish. Ish haqini minimumi miqdorini oshirish, ya'ni MDH mamlakatlari ichida raqobat qila oladigan miqdorga yetkazish.

4. Haqiqiy xorijiy institutsional investorlar bo'lmagan taqdirda davlat mulkini xususiyashtirishni, aktivlarni nomi "xorijiy" bo'lgan investorlar boshqaruviga o'tkazishni tiyib turish.

5. Shaharlarning o'sishini, yaqin atrofdagi aholi punktlarini o'zlashtirishni, shuningdek shahar va qishloqlarning ishlab chiqarish va qayta ishlash quvvatlarini sinxronlashtirishni, urbanizatsiya jarayonlari tufayli ishchi kuchlarining mehnat oqimlarini ta'minlashni hisobga olgan holda shahar rivojlanishining bosh rejalarini ko'rib chiqish. Qishloq aholi punktlarini suv ta'minoti, gaz ta'minoti, elektr energiyasi, shuningdek aloqa va aloqa tizimlarini (Internet) rivojlantirishni hisobga olgan holda infratuzilmani ta'minlash standartlariga muvofiq rivojlantirish zarur.

6. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, mamlakatimizdagi alohida tuzilmalar uchun monopol pozitsiyani ta'minlaydigan iqtisodiy sharoitlarni yo'q qilish va monopolizmning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish zarur.

2-MAVZU: BOZOR IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA BOZOR MEXANIZMINING AMAL QILISHI XUSUSIYATLARI.

Reja:

2.1. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari.

2.2. Bozordagi raqobat va iqtisodiyotning o'zini o'zi tartiblashi.

2.3. Bozor mexanizmi.

Tayanch iboralar:

Bozor iqtisodiyotining belgilari, klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, umumiy tomonlari va farqlari. bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari, bozor iqtisodiyotining ishtirokchilari, iqtisodiy aloqalar, yetuklik darajasi, bozor

mexanizmi, iqtisodiyotni tartiblash.

2.1. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari.

Bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mazkur iqtisodiyotning barqarorligi shu bilan izohlanadiki, uzoq davrli iqtisodiy evolyusiya davomida uning amal qilishining asosiy klassik qoidalari saqlanib qoldi.

Xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining ro'y berishi bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo'lishing umumiy sharoiti hisoblanadi. Xususiy mulkchilik va mehnat taqsimoti ijtimoiy xo'jalikning tovar shaklini taqozo qiladi, tovar ishlab chiqarishning mavjud bo'lishi o'z-o'zidan pul muomalasi, ayirboshlash, taqsimlash va iste'molning bozorga oid xususiyatini ko'zda tutadi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun muhim shartlardan biri, ishlab chiqarishning mustaqilligi, tadbirkorlikning erkinligi, resurslarning erkin almashinuvidan iborat.

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi, iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarida bozor iqtisodiyoti deganda bozor xo'jaligi sub'ektlari iqtisodiy hatti-harakatlarining erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning tovar-pul mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib muvofiqlashuvi deb baho beradilar. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari butun tizimni, uning hamma bosqichlarini ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini hamda iqtisodiy munosabatlarning barcha sub'ektlarini qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tarkibiga tadbirkorlar ham, yollanma ishchilar ham, pirovard iste'molchilar, ssuda kapitali egalari va qimmatli qog'ozlar egalari ham kiradi. Odatda, bozor xo'jaligining barcha **asosiy sub'ektlari** uchta guruhga bo'linadi: uy xo'jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik sektori) va davlat.

Uy xo'jaliklari – iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat qiluvchi asosiy tarkibiy birlik. Uy xo'jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

Tadbirkorlik sektori – bu daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi iqtisodiyotning birlamchi bo'g'inlaridir. U ish yuritish uchun o'z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar tovar xo'jaligida tovar va xizmatlarni yetkazib beradi.


Davlat – foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan, har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, ba’zi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda bozor iqtisodiyotining yana bir alohida, mustaqil sub’ekti sifatida banklar ajratib ko‘rsatiladi.¹

Bank – iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o‘tilgan bozor iqtisodiyoti sub’ektlarining o‘zaro ta’siri va aloqasini quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (2.1-chizma).

Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi asosan to‘rtta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi: narx, talab va taklif hamda raqobat.



2.1-chizma. Bozor xo‘jaligi sub’ektlari o‘zaro aloqasining umumiy modeli.

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo‘lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;
- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- raqobat kurashning mavjudligi;
- davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;
- korxona va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlar o‘zgarishlariga moslashuvchanligi.

Bozor iqtisodiyotining tarixan tarkib topgan ikki turini ajratish zarur. Birinchisi **klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti** deb atalib, uzoq vaqt davomida shakllanib, g‘arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asrning oxirlarigacha davom etib keldi. Uning asosiy belgilari: a) xususiy mulkchilikka asoslangan holda iqtisodiy faoliyat yuritish; b) kapital va ishlab chiqarishning korxona miqyosida umumlashganligi; v) tadbirkorlar, ishchilar, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarning shaxsiy erkinligi; g) tadbirkorlarning yuqori foyda olish uchun kurashlari; d) iqtisodiyotning talab va taklif, erkin bozor narxi va raqobat kurashlari asosida tartiblanishi; ye) aholining ijtimoiy himoya qilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqalashuvining kuchayishi.

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko‘rinishi **hozirgi zamon rivojlangan bozor**

¹ Экономическая теория (политэкономия): Учебник/ Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, акад. Г.П.Журавлевой. – 4-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2004, с.78-79.; Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма./Акад. М.Шарифхўжаевнинг илмий таҳрири остида. – Т.: «Ўқитувчи», 2002, 74-б.

iqtisodiyoti deb atalib, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qiladi. Uning asosiy belgilari:

a) mulkchilikning turli shakllariga ya'ni, xususiy, davlat, jamoa, aralash va boshqa mulk shakllariga asoslanib iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati yuritilishi;


b) kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi, mulkning bir qismi yirik monopoliyalar va davlat qo'lida to'planib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi;

v) iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki. Bunda davlat fan-texnika taraqqiyoti va boshqa omillarni hisobga olib, turli iqtisodiy tadbirlarni, rivojlanish istiqbolini aniqlash, turli sohalar va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni tartibga solish chora-tadbirlarini belgilash vazifalarini bajaradi;

g) xo'jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes rejasi, marketing tizimi orqali boshqarish);

d) ijtimoiy himoyaning kuchayishi. Bunda davlatga, jamoalar va xususiy kishilarga tegishli turli xil ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta fondlarining vujudga kelishi.

Hozirgi zamon bozor xo'jaligi iqtisodiyot xususiy va davlat sektorlarining o'zaro aloqasiga asoslanadi. Iqtisodiyotga ta'sirning intensivligi darajasi hamda davlat tomonidan hal etiluvchi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonaviy bozor iqtisodiyotining quyidagi modellari farqlanadi (2.2-chizma).



2.2-chizma. Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyotida yuqorida tilga olingan belgi va tartiblar bilan birga, barcha hozirgi zamon iqtisodiy tizimlariga xos bo‘lgan bir qator shart-sharoitlar bo‘lishi taqozo qilinadi. Bular quyidagilar: ilg‘or texnologiya va yangi texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish; ishlab chiqarishning ixtisoslashishi.

Har qanday iqtisodiy tizim singari bozor iqtisodiyoti ham iqtisodiyotning umumiy muammolarini ifoda etuvchi quyidagi savollarga javob topishi zarur: nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur? qanday texnika va texnologiya bilan ishlab chiqarish zarur? kim uchun ishlab chiqarish zarur?

Agar bu savollarni umumiy ravishda qo‘yib, unga taraqqiyotning barcha bosqichlariga xos bo‘lgan umumiy javobni beradigan bo‘lsak, ularni lo‘nda qilib: aholi ehtiyoji uchun zarur miqdor va turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish; mavjud resurslardan samarali foydalanib, yangi texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqarish; aholi iste‘moli uchun zarur ne‘matlarni ishlab chiqarish, deb javob berish mumkin.

Lekin bozor iqtisodiyoti davrida bu savollarga mazkur tizimning o‘ziga xos tarixiy xususiyatidan, uning talablari va qonun-qoidalaridan kelib chiqib javob beriladi. Qisqacha qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida:

- ko‘proq foyda beradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariladi;
- puli bor, tovarlarni yuqori foyda olish imkonini beradigan narxlarda sotib

olish layoqatiga ega xaridorlar uchun ishlab chiqariladi;

v) yuqori foyda olishni ta'minlaydigan, tejash imkonini beradigan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqariladi.

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor iqtisodiyotining samarali, xalqchil va barqaror iqtisodiy tizim sifatida amal qilishi va rivojlanishi uning afzalliklari bilan bog'liqdir. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari quyidagi jihatlar orqali ifodalash mumkin:

1) **resurslarni taqsimlashning samaradorligi.** Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Buning mazmuni shuki, raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. U ishlab chiqarish uchun resurslarni uyg'unlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qo'llashni taqozo etadi. Qisqasi, bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyat uchun mavjud resurslardan zarur tovarlarni talab darajasidagi miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi;

2) **erkinlik.** Bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsiy erkinlik roliga ustivorlik beradi. Ko'plab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirish tashkil qilishning asosiy muammolaridan biridir. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Biri – markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash; ikkinchisi – bozor tizimi vositasi orqali ixtiyoriy hamkorlik. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga layoqatlidir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvaffaqiyatga erishadi.

3) **harakatchanlik.** Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, bunda har bir shaxs, korxona, firma va korporatsiyalar tinimsiz harakatda va izlanishda bo'lishadi. Chunki xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavayron qilishga olib keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashadi. Natijada bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni harakatga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy afzalliklari bilan bir qatorda boshqa ko'plab **ijobiy jihatlarini** ham sanab o'tish mumkin. Jumladan:

- uning ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishining yuqori darajasi;

- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishning jadal sur'ati;

- turli-tuman ehtiyojlarni qondirish, mahsulot sifatini oshirish qobiliyati;

- buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;

- cheklangan axborot – turli resurslarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amal qila olish imkoniyati.

Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyati – **raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yish va uni rag'batlantirish.** Raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud:

1) bozor iqtisodiyotidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z

iqtisodiy mavqeini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo‘lidan ozod bo‘lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo‘shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, shafqatsiz raqobat – bularning hammasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tartibga soluvchilik ta’sirining pasayib borishiga olib keladi;

2) bozor tizimi rag‘batlantiradigan texnika taraqqiyoti ham raqobatning zaiflashishiga olib keladi. Eng yangi texnologiya, odatda: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlar bo‘lishini; v) kompleksli, markazlashgan va qat’iyan bir butun bo‘lib birlashgan bozorning tarkib topishi; g) boy va ishonchli xom-ashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi hisoblanuvchi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiyani qo‘llash asosida ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, aksariyat hollarda ko‘p miqdordagi mayda firmalar emas, uncha ko‘p bo‘lmagan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi.

Bozor tizimi jamiyatni ehtiyoji yuqori bo‘lgan tovarlar bilan ta’minlashiga ham kafolat bermaydi. Raqobatning kuchsizlanib borishi iste’molchining erkinligiga ham putur yetkazadi. Bozor tizimi o‘zining iste’molchining xohishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo‘qotib borishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotning navbatdagi ziddiyati – **jamiyat a’zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishidir.** Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma’lum darajada yumshatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e’tirof qilingan ziddiyatlaridan biri – **ijtimoiy ne’matlar va xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga qodir emaslikdir.** Shu sababli jamiyat a’zolarini bunday ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlash davlat zimmasida bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotining ziddiyatli tomonlaridan yana biri – **tovarlar hajmi bilan pul massasi o‘rtasidagi ro‘y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmasligidir.**

Shuningdek, 2008 yilda AQSh ipoteka kreditlash tizimida vujudga kelgan hamda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarga tarqalib, avval iqtisodiyotning moliyaviy sektorida, keyinchalik esa real sektor hamda ijtimoiy sohasida jiddiy talofatlarga olib kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham ko‘p tomondan bozor iqtisodiyotining ziddiyatli jihatlari ta’siri bilan bog‘liq. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bozorning o‘zini-o‘zi tartiblash mexanizmini mutlaqlashtirish va bunda davlatning nazorat qilish, tartibga solish vazifalariga umuman e’tibor qaratmaslik pirovardida inqiroz holatlarining ro‘y berishiga olib keldi. O‘zbekistonda davlat tomonidan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni tartibga solish jarayonlariga doimiy e’tibor qaratilib, zarur bo‘lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo‘llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o‘zini to‘la oqladi.

2.2. Bozordagi raqobat va iqtisodiyotning o'zini o'zi tartiblashi.

Bozorga mos keladigan holda raqobat tizimini yaratish zarurligi va uning mavjudligi ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi monopol o'zaro kelashuvga barham berishi kerak, yoki boshqacha qilib aytganda, bozorda shunday iqtisodiy sub'ektlar paydo bo'lishi kerakki, ularning manfaati turli yo'nalishda bo'lib, ular o'z maqsadlariga erishish uchun, bir-biriga aytmadan bellashuvi kerak.

Raqobat korxona egalarini xo'jalik yuritish usuli shakliga ko'ra, o'z realizatsiyasini kapital xarajati va o'zi-o'zidan o'sib borishi jarayonida topadi.

Raqobat bu tadbirkor uchun ob'ektiv xususiyat kasb etadigan majburiy kuch bo'lib, uni sarflangan har bir birlik kapitali uchun foydasini ko'paytirish borasiga kurashishni ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi shakllarini va usullarini qidirib topishga undaydi. Buning uchun bozor ishtirokchilari albatta yangi texnika va texnologiyani hamda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning yangi usullarini qo'llashga harakat qiladi.

Sub'ektlar xatti-harakati va bozor uchun ishlash jarayonida raqobatning ikki shakli mavjud bo'lib, biri tarmoq ichida iqtisodiyotning o'zini o'zi tartiblashiga ta'sir qilsa, ikkinchisi tarmoqlararo iqtisodiyotni tartiblash usulini o'zida aks ettiradi. Bu bozorning o'ziga xos rivojlanganlik darajasiga nisbatan mavjud amaldagi mexanizm bilan xarakterlanadi.

Tadbirkorlarning bir tarmoq ichidagi iqtisodiy bellashuvi o'ta kuchli bo'lib, tadbirkorlar ishlab chiqarish sarf-xarajatlari past holatda, ya'ni bahoni bozor qiymatidan pasaytirib, katta foyda oladilar.

Bozor mexanizmidagi bellashuvning bu shakli tadbirkorlarni ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirish va FTT ga qiziqishini uyg'otadi. Albatta, buning natijasida ishlab chiqarilgan tovarlar birligiga sarf-harajatlar kamayadi.

Bozordagi baholar tizimi va raqobat kurashi tovarlar ijtimoiy talabiga mos bo'lishni va tovarlar ishlab chiqarishda barcha omillardan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu bilan birga kapitalni bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa oqib o'tishiga ta'sir qiladi.

Ishlab chiqarishni va resurslar taqsimotini bozor regulyatori bo'lgan sharoitda, har bir xo'jalik sub'ekti FTT yutuqlaridan foydalanib, xarajatlarni kamaytirishga, bozorda o'z mavqeini saqlab qolishga hamda raqobatga bardosh berishga harakat qiladi. Bu raqobat albatta, monopolistik kapitalizmga bo'lgan davrda kapital hissasiga qarab hal qiluvchi rol o'ynar edi.

Keyinchalik esa xo'jalik sub'ektlari o'rtasida turli xil shartnoma, ittifoq va kelishuvlar vujudga keldi, ya'ni XIX - XX asrga kelib monopolistik birlashmalar davri bo'ldi. Bu davrga kelib, ishlab chiqarish va kapitalning yiriklashuvi natijasida yetakchi tarmoqlarning asosiy qismi yirik kompaniyalar qo'lida to'planadi. Kuchli monopolistik tashkilotlarning, ya'ni tresit, kartel, sindikatlarning vujudga kelishi bozor jarayoniga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ilgari erkin, stixiyali raqobat bilan xarakterlanuvchi bozor jarayoni o'rniga, iqtisodiyotni boshqaradigan jihatlar yuzaga keldi. Lekin, monopolistik hukmronlik davriga kelib, raqobat barham topmadi, balki u keskinlashdi hamda turli-tuman shakl va yo'nalishlarga ega bo'ldi.

Hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotini tartiblash raqobat kurashi keskinlashuvi bilan bog'liq holda monopollashuv jarayoni qanday yangi xususiyatlar kasb etmoqda?

Monopoliyalar ma'lum miqdorda tarmoq darajasidan ko'p tarmoqlilik darajasiga moslashuvi, ishlab chiqarish tizimini hozirgi FTT davriga moslashuvi sodir bo'lmoqda. Masalan, AQShda 1959-1986 yillarda 33 ta eng yirik korporatsiyalar o'z faoliyatiga 80 ta yangi tarmoqlarni qo'shib oldi.

Bunday ko'p tarmoqli monopoliyalar inqiroz sharoitida ham bir bozorda yo'qotgan foydasini ikkinchisidan qoplab, o'z iqtisodiyotini monopol bozor tizimini tipi sifatida boshqaradi. Bu esa raqobatga ta'sir qiladi va bahoning shakllanishi mexanizmini murakkablashtiradi.

Har bir tadbirkor yoki bo'lmasa biror bir monopoliya bo'lmasin, bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xil usullarni qo'llab o'z tovariga bo'lgan talabni saqlab qolishga harakat qiladi, chunki uning maqsadi o'z foydasini ko'paytirishdan va iqtisodiy mavqeini mustahkamlashdan iborat.

Har bir tovar ishlab chiqaruvchi o'z mablag'ini ko'p foyda olish maqsadida qaysi sohada iste'molchining talabi yuqori bo'lsa, shu sohaga joylashtirishga harakat qiladi hamda yuqori samara beradigan texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga tatbiq qiladi.

Bozorda iste'molchi uzoq vaqt davomida o'z bahosi bilan buyruq bera olmaydi. Sababi, raqobatchilar bu bahoni pasaytirib yuboradi. Demak, bozor bahosini ishlab chiqaruvchining o'zi emas, balki uning mahsulotiga bahoni bozor belgilaydi. Baho bozor mexanizmini markaziy parametridir. Chunki baho yordamida talab va taklifning o'zaro ta'siri amalga oshadi. Talab va taklif esa bevosita bir-biriga ta'sir qiladi. Baho, talab va taklif iqtisodiyotni tartiblashning iqtisodiy vositalaridan hisoblanadi.

Erkin (takomillashgan) raqobat sharoitida bozordagi raqobatga juda ko'p miqdorda ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar ta'sir qiladi. Bunday holat yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi uchun to'sqinlik qilmaydi. Talab va taklif ta'sirida baho erkin ravishda tebranib turadi. Bunday sharoitda raqobatchilardan birortasi bahoga jiddiy ta'sir etish quvvatiga yoki bozordagi holatni boshqarish usuliga ega bo'lmaydi.

Lekin, bu hozirgi bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat emas. Hozirgi sharoitda bozor tizimini eng taraqqiy etgan shakli oligopoliya hisoblanadi. Oligopoliyaga raqobatning tovar ishlab chiqarish va sotib olish bo'yicha eng yirik firmalar katta qismini nazorat qilishi xarakterlidir. Ularning har biri mustaqil bozor siyosatini olib borishiga qaramasdan bir-biri bilan o'zaro bog'liq, shuning uchun bu holatni o'z raqobati strategiyasida hisobga olishga majbur.

Iqtisodiyotning o'zini o'zi tartiblash usullarida baholi va bahosiz raqobat muhim o'rin egallaydi. Baholi raqobat bu bellashuvning shunday usuliki, bir tovar ishlab chiqaruvchi, xuddi shunday turdagi tovarga nisbatan bahoni mos ravishda pasaytiradi.

Korxona bunday sharoitda bozorda katta hissani egallash uchun ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini kamaytiradi yoki o'zi tushungan holda o'z foydasini bir qismini yo'qotishga rozi bo'ladi.

Hozirgi sharoitda raqobatning bu turini rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotdagi ko'pchilik tarmoqlarda amal qilmaydi. Sababi, ishlab chiqaruvchidan birortasi bahoni pasaytirsam, uning raqiblari shu usulni qo'llaydi, bu bozorda firmalar mavqeini o'zgarishiga olib kelmaydi, balki butun tarmoqdagi foydalilikni pasaytiradi.

Bahosiz raqobat sharoitida bellashuv tovarlarning bahosi emas, balki uning sifatida sohasida boradi. Masalan, yuqori saviyada xizmat ko'rsatish, firmaning obro'-e'tiborini yuksaltirish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish va h.k.lar shular jumlasidandir.

Bir vaqtning o'zida bahosiz va baholi raqobat amal qilishi mumkin. Lekin bunday sharoitda, yangi tovarni iste'mol xususiyatini yaxshilanishi va uning sifatini ochilishi bahoga nisbatan tez o'sishi ma'lum darajada baholi raqobat ahamiyatining pasayishiga olib kelsada, bu usuldan chet el firmalari o'z raqibini yo'q qilish maqsadida foydalanadi.

Masalan, 2005 yilning oxirida Amerika ma'muriyati, yapon elektrotexnika monopoliyalari faoliyatini o'rganib, ularning «sof» savdo qonunlarini buzayotganliklari haqida ogohlantirishiga qaramasdan, yapon kompaniyalari dumping siyosatini qo'llab, Amerika bozorlariga kirib keldi. Buning natijasida AQSh kompaniyalari zarar ko'rdi. Yapon kompaniyalari elektrotexnika bo'yicha Amerika bozorining 70 foizini egallab oldi, keyin esa yana bahoni ko'tardi. Natijada, bu sohadagi Amerika kompaniyalari 1 mlrd. dollar zarar ko'rdi.

Baholi raqobatni yana bir usuli bu hozirgi sharoitda bahoni pasaytirishdir. Bahoni pasaytirish ma'lum turdagi tovarlar yoki iste'molchilarga nisbatan maxsus amalga oshiriladi. Bunday bahoni bila turib, pasaytirish hisobidan ko'p firmalar bozorga chiqadi.

Raqobatning bahosiz shakli hozirgi sharoitda ilmiy yangiliklarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o'rtasida mavjud. Masalan, mahsulotning yangi texnik xususiyatga egaligi, uning sifati va chidamliligi, kredit shart-sharoiti, mahsulotni sotish jarayonida ko'rsatilgan xizmat hajmi va h.k. G'arb mamlakatlaridagi raqobatchilar tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobil, televizor, integral sxema va boshqa mahsulotlar bo'yicha sifati, chidamliligi jihatdan Yaponiyani xuddi shu turdagi mahsulotlaridan 10 barobar yuqoriligi ta'minlandi.

Demak, bozor munosabatlari sharoitida tovar ishlab chiqarish mavjud bo'lgan joyda iqtisodiyotni o'zini o'zi tartiblashning asosiy usuli raqobat bo'lib, unga turli xil iqtisodiy vositalar yordamida amal qilinadi.

Yuqoridagi ko'rib chiqilgan fikrlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Raqobatsiz iqtisodiyot samarali amal qila olmas ekan, buni biz sobiq ittifoq misolida ko'rishimiz mumkin.

2. Davlat tomonidan raqobatni qo'llab-quvvatlab, monopolizmni cheklash zarur.

3. Raqobatni bozor munosabatlariga to'sqinlik qilayotgan eski ma'muriy buyruqbozlik boshqarish tizimini bartaraf qilish zarur.


Albatta, bizni mamlakatimizda ham turli-tuman mulk shakllarining vujudga kelishi va bozor munosabatlarining amal qilishi raqobat shakllarining ham rivojlanib borishini ta'minlaydi.

2.3. Bozor mexanizmi.

Xar bir iqtisodiy tizimning o'ziga xos iqtisodiy mexanizmi bo'ladi. Uning ta'sirida iqtisodiyot rivojlanadi. Bozor iqtisodiyotining o'z o'tmishidan farqi shundaki, u iqtisodiy mexanizmga tayanadi, g'ayri iqtisodiy yo'llar bilan ishlashga majburlashni inkor etadi. Xo'sh bozor mexanizmini o'zi nima?

Bozor mexanizmi bu bozor tizimiga xos bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi va birgalikda amal qiluvchi iqtisodiy vositalardir.


Bular jumlasiga talab, taklif, tovarlar narxlari, bozor kon'yunkturasi, pul, foyda, zarar, foiz, iqtisodiy majburiyat, raqobat kabilar kiradi. Bozor mexanizmi iqtisodiy bo'lganidan u manfaatdorlikka va iqtisodiy ma'suliyatga asoslanadi. Xar bir iqtisodiyot ishtirokchisining o'z manfaati bor. Bozor mexanizmi shularni yuzaga chiqarish orqali iqtisodiy faollikni ta'minlaydi. Bozor ishtirokchilaridan xar biri boshqalarni emas, o'zining xususiy manfaatini ko'zlaydi. Biroq o'zi o'ylamagan xolda boshqalar manfaatiga xizmat qiladi. Agar u shunday qilmasa o'z manfaatiga erisha olmaydi. Masalan, sotuvchi o'z tovarini yaxshi pullashni ko'zlaydi, biroq buning uchun u xaridorni xojatini chiqarishi kerak, ya'ni unga kerakli tovarni ma'qul narxda yetkazib berishi kerak. Iqtisodiyot xususiy mulkka tayanadi. Xar bir mulk soxibining o'z manfaatlari borki, bu uning maqsadiga aylanadi, maqsadga erishish stimullarni, stimullar esa faollikni yuzaga keltiradi. Bunday bog'lanishni quyidagi rasmdan ko'rsak bo'ladi.



2.3.1- rasm. Mulk va faollik

Mulk soxiblarining manfaatlari farqlanadi, chunki mulkning o'zi bir xil emas. Kapitaldan iborat mulk egasining manfaati foyda olish, boylikda yashash, mulkini ko'paytirib borish. U mulkini o'zi tadbirkorlik qilib ishlatadi yoki uni boshqalarga ijaraga beradi. Ish kuchi ham xususiy mulk. Uning egasi yollanib ishlab daromad olishi kerak. U o'z kuchini ish beruvchilarga qimmatroqqa sotishga intiladi. Uning manfaati yaxshi ish xaqi olishdan iborat. Ish kuchi xam bir xil emas. U ijrochilik va boshqaruvchilik qobiliyatidan iborat. Ishchilar ijrochilikka moyil bo'ladilar. Menejerlar boshqaruvchilik bilan shug'ullanadilar. Ular ham o'z kuchini sotadi. Ularning manfaati katta maosh olishdan, imidjga ega bo'lishdan, karera qilishdan iborat bo'ladi. Mulk soxiblari, ishchilar va boshqaruvchilar manfaati individual, aloxidalashgan manfaat bo'ladi. Korxona tovar ishlab chiqaruvchilar jamoasi bo'lganidan, bu yerda korporativ (guruxiy) manfaat yuzaga keladi. Bu korxonadagi kapital egalarining, ishchilarning va menejerlarning umumiy manfaati bo'lib, bu iqtisodiy barqaror, raqobatbardosh bo'lishdan, obro'-ovozaga ega bo'lishdan iborat. Iqtisodiyotdagi barcha ishtirokchilarning manfaatlari o'zaro bog'lanib, milliy manfaatni yuzaga keltiradi. Milliy iqtisodiy manfaat ayrim millat yoki elatni emas, balki muayyan mamlakatda yashovchi barcha xalqlarning birgalikdagi manfaatidir.

Milliy iqtisodiy manfaat yuksak iqtisodiy saloxiyotga ega bo'lish, mamlakat



2.3.2-рasm. Иқтисодий манфаатлар

iqtisodiyotining raqobatlashuv qobiliyatini yuksak bo‘lishidan, jaxon iqtisodiyotida nufuzli o‘rin egallashdan va nixoyat xalq turmush darajasini yuqori qilishdan iborat. Xullas bozor iqtisodiyotida iqtisodiy manfaatlar tizimi bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega (2.3. 2-rasm).

Manfaatlar orasida individual (yakka) manfaat birlamchi bo‘ladi, buni xususiy mulkning asosiy bo‘lishi yuzaga keltiradi. Shu bois iqtisodiy egoizm, ya’ni o‘zim bo‘lay deyish yuzaga keladi. Egaistik manfaatlar iqtisodiyotni xarakatga keltiruvchi kuch xisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining afzalligi mana shu insonga xos egoistik manfaatni amalga oshirish uchun imkoniyat berishdir. Bozor tizimida intilganga tole yor degan qoida amal qiladi, chunki bunga sharoit mavjud bo‘ladi. Bu sharoit iqtisodiy erkinlikdan iborat, uni mulkiy mustaqillik oziqlantiradi. Bozor mexanizmi shundan kelib chiqadi. Bu mexanizm iqtisodiy tanlovga asoslanadi. Uning qoidasi shundan iboratki, iqtisodiyotning xar bir ishtirokchisi qo‘lidan kelgan ish bilan shug‘ullanadi, ishlab topganini o‘zi oladi. Ishlab pul topish usullarini erkin tanlab olinadi. Tanlov asosida egoistik manfaatlarni yuzaga chiqarish mumkin bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotida boy bo‘lishni cheklanmaganligi ishlab pul topishga kuchli stimul beradi, bu mehnat motivatsiyasini, ya’ni ishlashga qiziqishni yuzaga keltiradi, binobarin faollik uyg‘otadi. Bu yerda nafaqat iqtisodiy rag‘batlantirish, balki iqtisodiy zo‘rlash xam mavjud. Bozorning kuchlari hammani sergak bo‘lishga undaydi, o‘z funksiyasini yaxshi bajarishga iqtisodiy vositalar bilan zo‘rlaydi. Masalan, narxni pasayishi ishlab chiqaruvchilarni xarajatni qisqartirishga majburlaydi, chunki boshqa yo‘l bilan foyda topib bo‘lmaydi. Bozor mexanizmi talab bilan taklifni muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarishni o‘rishini ta’minlaydi.

Bozorda muvozanat yuzaga kelganda, xalq iborasi bilan aytsak, sih ham kuymaydi, kabob ham kuymaydi. Buning iqtisodiy ma’nosi shuki, muvozanat xolatida xaridorlar kerakli tovarni bozordan topa biladilar va kelishilgan narxda oladilar. Sotuvchilar, ya’ni ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlarini vaqtida sotib, xarajatlarini qoplab, foyda ham ko‘radilar. Agar xaridorlar tovarlarni o‘z vaqtida xarid etib extiyojlarini qondirsalar, ya’ni bu bilan o‘z manfaatlariga yetsalar, ishlab chiqaruvchilar bu bilan foyda topishdek manfaatlarini yuzaga chiqaradilar. Xar ikkala tomon manfaatlarini yuzaga chiqara olganda bozor layoqatli xisoblanadi, ya’ni extiyojni qondirishga qodir bo‘ladi. Buni uddasidan chiqilmaganda bozor layoqatsiz deb topiladi, chunki xaridorni yoki sotuvchini manfaati amalga oshmay qoladi. Layoqatsiz bozor – bu mexanizmi yaxshi ish bermay qolgan bozor bo‘ladi. Bu bozor defitsitli bozorni yoki tovar ortiqcha bo‘lgan bozorni bildiradi. Iqtisodiyot uchun bozorning xar ikkala xolati ma’qul bo‘lmaydi. Layoqatsizlik ko‘pincha tartibsiz bozorlarda uchrab turadi. Bunga Ёzbekistondagi dehqon bozori misol bo‘la oladi. Bu yerda bir yili karam o‘tmay qolib, kartoshka defitsit bo‘lsa, boshqa yili pomidor o‘tmay qolib piyoz defitsiti xosil bo‘ladi. Bozorning layoqatsizligi yana shundan iboratki uning mexanizmi ayrim muammolarni xal etishga qodir bo‘lmaydi.

Masalan, atrof-muxitni ximoya qilish, mudofani ta'minlash. Bu ishlarni bozorning o'jizligi tufayli davlat mexanizmi bajaradi.

Talab-taklif mexanizmini ishlashi. Bozor mexanizmining mo'jizakorligi shundaki, bu nimani, qancha va qanday usulda ishlab chiqarish zarur degan muammoni xal qilishning eng samarali yo'llarini belgilab beradi. Iqtisodiyotning xar qanday ishtirokchisi u kim bo'lishidan qat'iy nazar bozorga moslashishini talab qilinadi, chunki busiz uning ishi yurishmaydi. Moslashuv bozor xolatiga qarab ishlashni bildiradi. Buning uchun u bozor signalini qabul qilishi va unga javoban xarakat qilishi kerak. Bozordan keladigan iqtisodiy signal vazifasini narx navo o'taydi. Bozordan keladigan narx signali xaridorlarni nimani va qancha sotib olishini, ishlab chiqaruvchilarni esa nimani, qancha ishlab chiqarishi kerakligini belgilab beradi. Iste'mol bozoridan kelgan signal tovarlarni ishlab chiqarish uchun qanday resurslarni va qanday miqdorda sotib olish zarurligini belgilab beradi. Resurslar bozoridagi talab, iste'mol bozoridagi talabga qarab o'zgaradi. Masalan, bozorda ko'ylak yaxshi sotilib tursa, unga talab elastik xisoblanadi. Shunga ko'ra ko'ylakni ko'proq miqdorda tikish uchun bozordan gazlama, ip, tugma, tikuvchilik mashinalarini ko'proq sotib olish kerak bo'ladi. Binobarin iste'mol bozoridagi talab resurs bozoridagi talabni xosil qiladi, uni qondirish uchun esa resurslarni yaratib, ularni bozorga chiqarish kerak bo'ladi. Bozor orqali resurslar taqsimlanib, kerakli tovarlarni ishlab chiqarishga yuboriladi. Demak, bozor mexanizmi bu faqat rag'batlantirish mexanizmi emas, balki resurslarni oqilona taqsimlash mexanizmi ham bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti ham cheklangan resurslarga duch keladi, shu sababli ularni muqobil ishlatish kerak. Qaysi yo'nalishda resurslarni ishlatish talab-extiyojni to'laroq qondirsa, shu yo'nalish tanlab olinadi. Tanlov uchun narx asos bo'ladi. Nimaga narx oshsa, unga talab-extiyoj kamroq qondirilgan bo'ladi. Nimaga narx tushsa, u talab-extiyojdan ortiq darajada ishlab chiqilgan bo'ladi. Birinchi xolda taklif ko'paytiriladi, ikkinchi xolda taklif qisqartiriladi. Narxlar bozor kon'yunkturasini tavsiflaydi. Ular qaysi tovar bozorda qanchadan va qanday miqdorda sotilishini bildiradi. Shunga qarab firmalar bozori chaqqon tovarni ko'plab ishlab chiqaradilar, bozori kasod tovarni ishlab chiqarishdan voz kechadilar. Xaridorlar esa narx arzonlashsa tovarni ko'p oladilar, narx qimmatlashsa tovarni kamroq oladilar, yoki pul daromadlarini ortishini kutadilar. Albatta bunday xatti-xarakat nufuzli tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Kundalik, eng zarur, istemol etmaslikni iloji bo'lmagan tovarlarni xaridi to'xtamaydi, lekin ularni iste'mol etish meyorini o'zgaradi. Masalan, gugurt, non, elektroenergiya, gaz va suv iste'molini to'xtatib bo'lmaganidan, ular narxiga qarab xar hil miqdorda xarid etiladi. O'zbekistonda suv qovurlaridan keladigan ichimlik suvi narxini ortishi uni tejab, eng zarur xollarda ishlatilishiga olib keldi. Narx signali bozordagi talab-taklif xaqidagi informatsiya bo'lib, korxonalar va xonadonlardan ularga moslashib borish zarurligini bildiradi. Bu erkin bozorda xal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yerdagi narx talab-taklif nisbatiga qarab shakllanadi. Ayrim ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi uni o'z bilganicha o'rnatmaydi, chunki buning uddasidan chiqa olmaydi. Ular bozor narxini borligicha qabul qiladilar, chunki ulardan xar birini tovarning bozor talabi va taklifidagi hissasi g'oyat kichik bo'ladi. Bu yerdagi xaridorlar va sotuvchilar ko'pchilik bo'lib narx belgilashda o'z bilganini qila olmaydilar. Ularni

narxga moslashishdan boshqa iloji bo'lmaydi. Firmalarni nima qilishlari birinchidan ular yaratgan tovarning bozor narxiga, ikkinchidan resurslarning bozor narxiga bog'liq bo'ladi.

Bozorda yaratilgan tovarlarning qadr-qiymati birinchidan ularning nafililigiga, ikkinchidan qancha turishiga bog'liq. Xaridor tovarlar birligining narxini uning sifatiga taqqoslab baxolaydi, ya'ni narx sifatga monand bo'lishi zarur. Aks xolda tovarga talab umuman bo'lmaydi yoki kichik bo'ladi. Bu esa foydani qisqartiradi, natijada firma egasining manfaati yuzaga chiqmay qoladi. Shunday sharoitda firma novatsiya qilishga, ya'ni o'z ishiga yangilik kiritishga majbur bo'ladi. Novatsiya natijasida mutlaqo yangi tovarlar yaratiladi, eskilari modernizatsiya (yangilik kiritish) qilinadi. Yangi tovarlar ishlab chiqarishga o'tish restrukturizatsiya deyiladi. Bunda ishlab chiqariladigan tovarlar tarkibi o'zgartiriladi. Restrukturizatsiya chog'ida yangi tovarlarni nechog'liq bozor talabiga mos kelishi bu qancha qo'shimcha sarf talab qilishi va bu o'zini qanchada oqlashi inobatga olinadi. Bozor mexanizmi shunday qilib bozorbop tovarlarni ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Bozorga moslasha bilish tadbirkorlik qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Buning uddasidan chiqqan firmalar rivojlanib ketsa, bu ish qo'lidan kelmagan firmalar yopilib ketadi, ular o'rniga yangilari keladi. Bozor mexanizmi uddaburonlarni tanlanishiga va iqtisodiyotni ular qo'lga o'tishini bildiradi. Bozorlar xilma-xil. Firmalarni bu yerga kirib kelishi va chiqib ketishi doimiy takrorlanib turadi. Buni ham bozor mexanizmi ta'minlaydi. Muayyan tovarga talabning ortishi bilan uning narxi xam oshadi. Xarajatlar o'zgarimasda narxni ortishi foydani ko'paytiradi. Bu muayyan tovar bozorini tadbirkorlar uchun jozibali qiladi. Ular o'z kapitalini bozorgir tovarni ishlab chiqarishga qo'yadilar. Natijada mavjud korxonalaridagi ishlab chiqarish kengayadi, yangi korxonalar ochiladi. Bu bilan tovar ishlab chiqarish ko'paytiriladi. Talabga binoan taklif ko'payadi, bozorni to'yinish darajasi ortadi. Bu daraja esa taklif talabni naqadar qondira olishini bildiradi.

Xullas talab-taklif nisbatining o'zgarishi natijasida ishlab chiqarish xarakatga keladi, u doimo yangilanib turadi.. eski tovarlar o'rniga yangi tovarlar yaratiladi, tovarlar tarkibi uzluksiz ravishda kengayadi. Bozor mexanizmi taklifni talabga moslashtirish bilan cheklanmasdan, yangi talabni ham yuzaga keltiradi. Bozorbop tovar ishlab chiqarib foyda topish ishtiyoqi, mutlaqo yangi va ehtiyojni to'laroq qondiradigan tovarlarni yaratib, ularni bozorga taklif etilishiga olib keladi. Talab-taklif mexanizmi – bu iqtisodiyotni doimo yangilab zamon bilan xamoxang qiluvchi kuch hisoblanadi.

Pul bozor mexanizmida qo'llaniladigan o'ta muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Pulga hamma narsani sotib olish mumkin, u boylikning asosiy shakli bo'ladi. Pul eng likvidli, ya'ni cheklanmagan tarzda va xoxlagan paytda xoxlagan tovarga ayriboshlanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy vosita bo'ladi. Bozor munosabati, pul munosabati, barcha iqtisodiy aloqalar uning yordamida o'rnatiladi. Pulning kuchi shundaki, usiz xech bir ish bitmaydi, puli ko'p kishi iqtisodiy xokimiyat sohibiga aylanadi, chunki u kapital sifatida ishlatiladi. Pul boylik timsoli va iqtisodiy xokimiyat vositasi bo'lganidan kishilar tanu-joni bilan pul topishga, uni ko'paytirishga intiladi. Bu intilish esa iqtisodiyotni xarakatga keltiradi. Ammo u o'z-o'zidan emas, balki iqtisodiy erkinlik va faoliyat turini tanlash imkoni bo'lganidan

mo'jizakor kuchga aylanadi, chunki bozor tizimida pulni o'z manfaati yo'lida, lekin ruhsat etilgan tarzda ishlatish mumkin bo'ladi. Binobarin pul liberal iqtisodiy sharoitdagina katta kuchga ega bo'ladi. Pulning kuchidan kelib chiqadigan boshqa vositalar borki, ular jumlasiga kredit, foiz va iqtisodiy sanksiya kabilar kiradi. Kredit pulni qarzga olish va buning uchun foiz to'lashni va qarzni o'z vaqtida qaytarilishini bildiradi. Bu esa qarzga ko'tarilgan pulni oqilona ishlatishga undaydi. Iqtisodiyot ishtirokchilarining pul to'lash majburiyatlari ham bo'ladi. Ular yetkazib bergan resurslari uchun va xarid etgan iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun ularning egasiga pul to'lashlari, davlatga esa soliq to'lashlari shart. bu to'lovlar iqtisodiy ma'suliyatni yuzaga keltiradi. Majburiyatlar bajarilmagan chog'da iqtisodiy sanksiyalar qo'llaniladi. Bunda majburiyatini bajarmaganlar jarima to'lashadi, ular bilan aloqalar uziladi, ularni mulki sud xukmi bilan sotib yuboriladi, obro'sizlanadi.

Demak bozor mexanizmida faqat manfaatni emas. Balki ma'suliyatni ta'minlovchi vositalar ham borki, bular kishilarni omilkor qiladi, ishning ko'zini bilishga chorlaydi.

Bozor mexanizmi iqtisodiyotga ma'muriy yo'l bilan aralashib, uning ustidan nazorat o'rnatish bilan sig'isha olmaydi. Shu sababli davlat bozor mexanizmini ishlab turishiga to'sqinlik qilmay, unga yo'l ochib berishi talab qilinadi. Bozor mexanizmi xuddi soat mexanizmi kabi o'zi ishlab turishi kerak. Davlat bu mexanizm yaxshi ishlamay qolganda, uni burab, moylab turishi kerak bo'lsa, uning qismlarini yangilab turishi zarur. Lekin xech qachon davlat bu mexanizm ishini o'z zimmasiga olishi mumkin emas. Bozor mexanizmi ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning xosilasi. Shu sababli uning o'zi ham ob'ektiv. Biroq kishilar bu mexanizmdan oqilona foydalanishga qodir bo'ladilar, o'z xatti-xarakatlarini shu mexanizm talabiga mos xolda uyushtiradilar. Qaerda kishilar bozor mexanizmidan mohirona foydalana olsalar, shu yerda iqtisodiy taraqqiyot tezlashadi, xalq farovon yashaydi.

Raqobatda bozor xo'jaligiga xos **iqtisodiy tanlov** tamoyili amal qiladi. Bu yerda bellashuvchilardan biri yutib chiqsa, boshqasi yutqazadi. Shu sababdan raqobat iqtisodiyot sub'ektlarini qat'iyan tabaqalashuviga olib keladi. Bu eng avval foyda normasi, investitsiya imkoniyati, kapital miqdori, qarzni to'lash qobiliyati va nixoyat, ish xaqini xar hil bo'lishida ko'rinadi. Raqobatda yutib chiqqanlar iqtisodiy jixatdan kuchayib ketsalar, yutqazganlar zaiflashadi, xatto xonavayron bo'lib **bankrot** xoliga tushadilar. Bankrot bo'lish bu o'zining majburiyatlari va to'lovlarini bajarishga qodir bo'lmaslikdir. Bankrot bo'lgan firmalar yopiladi, sotib yuboriladi yoki iqtisodiy baquvvat firmalarga qo'shilib ketadi. Iqtisodiy tabaqalanishning ikki ziddiy oqibati bor. Birinchidan, o'z ishini uddalay olmagan firmalarning sinishi, eng ishbilarmonlarni tanlab olib, iqtisodni ularning ishonchli qo'liga berish bo'lsa; ikkinchidan, bu zo'rlari yanada zo'rayib ketishi va monopollashuv tendensiyasini yuzaga keltiradiki, natijada erkin raqobat cheklanib qoladi. Shu boisdan davlat o'zining antimonopol tadbirlari bilan singan firmalar o'rniga yangilarini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, chunk korxonalar ko'p joyda raqobat qizg'in boradi. Binobarin, raqobat samara berishi uchun raqobatchilar o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarurki, bu monopollashuvning oldini olishi kerak bo'ladi. Raqobatning kuchi bozor xo'jaligi rivojiga qarab ortib boradi. Qaerda raqobat munosib o'rin egallasa, shu yerda ishlab chiqarish tez rivojlanadi va jamiyat a'zolarining turmush

darajasi yuqori bo'ladi.

3-MAVZU. IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK.

Reja:

- 3.1. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuv jarayonlari.**
- 3.2. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi.**
- 3.3. Bozor iqtisodiyoti beqarorligi.**

Tayanch iboralar: *iqtisodiy transformatsiya, tizim o'zgarishlari, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsiya, innovatsion tizim, innovatsiya turlari, iqtisodiy beqarorlik, inqiroz, baqarorlik, islohotlar.*

3.1. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuv jarayonlari.

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasida takror ishlab chiqarish jarayoni muqarrar tarzda amalga oshiriladi. «Sof» tizimdagi takror ishlab chiqarishga nisbatan uning umumiy xususiyatlari transformatsiya davri iqtisodiyoti amal qilishining maxsus qonuniyatlari deb ataladi. Ular qatoriga quyidagilar kiritiladi: takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi hamda yangi shakl va munosabatlarning intensiv ravishdagi ustun rivojlanishi. Takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi bilan bog'liq. Bu uzluksizlik dastlab barcha eski jihatlarni butunlay yo'qqilib, so'ngra uning negizida barcha yangiliklarni barpo etish tamoyili bo'yicha rivojlanishni inkor etadi. Bu uzluksizlik shuningdek mavjud shakllarni boshqalari bilan keskin almashtirish («karaxt qilib davolash») mumkin emasligini ham belgilab beradi. Bu kabi xatti-harakatlar muqarrar ravishda ishlab chiqarishdagi boshboshdoqlikka, uning tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi, shu ma'noga ko'ra, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida eski iqtisodiy shakllarni nisbatan uzoqmuddat davomida saqlanib qolishini taqozo etadi. Bu, eng avvalo, qandaydir vaqt ichida ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasining saqlanib qolishida namoyon bo'ladi, chunki bu jarayon nisbatan uzoqmuddatni taqozo etadi. Jamiyatning tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, mavjud institutlar, tarmoqlararo, ichki tarmoqaloqalari, xo'jalik mexanizmi va boshqalarning xatti-harakati tezlik bilan o'zgara olmaydi. Transformatsiyalashuv jarayonlariga kadrlarning holati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda ham inersiyalilik o'ziga xos o'rin tutib, kadrlar

Takror ishlab chiqarish jarayonining inersiyaliligi bir qator oqibatlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, u transformatsiyadavri iqtisodiyotini uning dastlabki holati bilan chuqur izchillikda bo'lishini shartlaydi. Ikkinchidan, inersiyalilikilgari tarkib topgan ijtimoiy mentalitetning saqlanib qolishini kuchaytiradi. Boshqa bir qonuniyat – yangi shakl va munosabatlarning intensiv ravishdagi ustun rivojlanishidir. Agar birinchi qonuniyat avvalo transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining izchilligini aksettirsa, mazkur qonuniyat bir bosqichdan boshqa biriga yangi mexanizmini ta'kidlaydi. Ko'rib chiqilayotgan qonuniyat xatti-harakatini hisobga olish yangi munosabatlar rivojlanishi «mexanizmi»ni to'g'ri

tushunishni ham taqozo etadi. Birinchidan, bu ilgari hukmron bo'lgan tizimlar shart-sharoitiga xos bo'lmagan, o'z mazmuniga ko'ra yangi shakllarning paydo bo'lishidir. Ikkinchidan, yangi munosabatlarning paydo bo'lishi eski shakllar mazmunining o'zgarishi yo'li orqali amalga oshishi mumkin. Masalan, hozirgi sharoitda davlat mulki yoki mulkchilikning jamoa shakli saqlanib qolgani holda, ilgaridan mavjud bo'lib kelgan ma'muriy-byurokratik tavsifini bartaraf etib, o'zining real mazmunini o'zgartirishi mumkin. Uchinchidan, pirovardida yangi shakllar o'zining hukmronligini o'rnatib, o'z umrini o'tab bo'lgan eski shakllarni siqib chiqarishi lozim. O'zbekiston Respublikasining hozirgi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti quyidagilar bilan tavsiflanadi: -birinchidan, u islohotlarga asoslangan-evolyusion turdagi yangi iqtisodiyoti bo'lib, uning amal qilishida ilmiy jihatdan asoslangan va maqsadga yo'naltirilgan dasturlar muhim rol o'ynaydi; -ikkinchidan, mazkur maqsadga yo'naltirilganlik muntazam ravishda rivojlanib hamda hayotga tatbiq etilib boradi.

Hozirgi zamon transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining xususiyatlariga quyidagilar kiradi: - bozor iqtisodiyotiga an'anaviy iqtisodiyotdan emas, balki alohida, o'ziga xos – markazlashgan rejali iqtisodiyotdan o'tilishi. Bu o'rinda bugungi kungacha ma'lum bo'lmagan muammolar hal etilishi taqozo etiladi. Bularning barchasi transformatsiyajarayonlarining mushkulliklarini keltirib chiqaradi;-islohotlarga asoslangan-evolyusion rivojlanish yo'llarini tartibga solish iqtisodiyotni ma'muriy-buyruqbozlik usullarining salbiy ta'siridan tozalash bilan bog'liqbo'lib, bu samarali rivojlanishning umumiy o'zaniga qaytish imkonini beradi;-transformatsiyalashuvjarayoni XX asr oxirida, ya'ni o'ziga xos tarixiy sharoit–umumbashariy yangi jarayonlarining kengayib borishi sharoitida ro'y bermoqda.

Rivojlangan industrial mamlakatlar postindustrial jamiyatga yangi ostonasida turibdilar. An'anaviy iqtisodiyot unsurlari sezilarli rivojlangan mamlakatlar hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyotining zamonaviy shakllariga tezlik bilan o'tmoqdalar. Shu bilan bir vaqtda, ishlab chiqarish va ayirboshlashni umumlashtirish, baynalminallashti-rishning intensiv ravishda ro'y berayotgan jarayoni ularga postindustrial bosqichning bir qator yutuqlariga erishish imkonini beradi. Jahondagi global transformatsiyalashuv jarayonlari O'zbekistonning yangi davri iqtisodiyotiga, undagi jarayonlarning mazmuni va ularning pirovard yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. Shu ma'noda O'zbekistondagi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti ham noyob lokal (mahalliy) va umuminsoniy global tendensiyalarning birikmasini namoyish etadi.Jamiyatning evolyusion jarayoni pog'onama-pog'ona tavsif kasb etadi. Har bir alohida pog'ona o'zining taraqqiyotida ikkita asosiy bosqichdan o'tadi: - qaror topish va yuqorilab rivojlanish; - yetuklik holati;

Bu jarayon umuminsoniy taraqqiyotning uzluksizligi bilan belgilanadi. Mazkur uzluksizlik mehnat vositalari, texnologiyalar, ishlab chiqarishningtashkiliy shakllari va nihoyat, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatidagi insonning muntazam ravishda takomillashib borishini o'z ichiga oladi. U har bir tarixiy pog'ona qaror topishining doimiyligini taqozo etadi. Uzluksizlik va doimiylilik jamiyatda iqtisodiyot har bir yangi bosqich vujudga kelayotgan davrda

ham, uning inqirozi davrida ham o'z faoliyatini to'xtatmayotganini anglatadi. Har bir tarixiy pog'ona ikki bosqichdan o'tadi. Qaror topish va yuqorilab boruvchi rivojlanish uning o'ziga xos holatini namoyon etadi: unga xos bo'lgan belgilarning to'liqemasligi, yaxlitlikning mavjud emasligi, ham eski, ham yangi iqtisodiyot unsurlarining bir vaqtda amal qilishi va h.k. Har qanday pog'onaning qaror topish bosqichi bir vaqtning o'zida oldingi pog'onaning pasayib boruvchi harakat bosqichi bo'lib ham hisoblanadi. Pasayib boruvchi harakat esa doimiy ravishda yangi pog'onaning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Shuning uchun transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti jamiyatning bir tarixiy pog'onadan boshqa biriga yangi davrida amal qilganida o'z tabiatiga ko'ra iqtisodiyot evolyusiyasidagi o'ziga xos holat hisoblanadi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti go'yo jamiyatning «oraliq» holatini, o'zgaruvchi iqtisodiyotni tavsiflaydi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotini «odatdagi» iqtisodiyot – u yoki bu pog'ona iqtisodiyotidan farqlovchi o'ziga xos tavsifi ham shundan kelib chiqadi. Shunita'kidlash lozimki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti to'g'risida ijtimoiy evolyusiyaning har qanday turkumlanishida ham to'xtalib yangi mumkin. Masalan, uni uchta pog'onaga – an'anaviy, bozor va aralash iqtisodiyotga ajratilganda; formatsion yondashuv mezonlari bo'yicha ishlab chiqarish usullariga ajratilganda; ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari bo'yicha ijtimoiy formatsiyalarga ajratilganda va h.k. Pog'onalarining har qanday ajratib ko'rsatilishida ular rivojining siklligi (qaror topish, yuqorilovchi rivojlanish, yetuklik) va maxsus yangi holatlarining tuzilishi saqlanib qoladi. Iqtisodiy adabiyotlarda transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti tavsifiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar uch guruhga bo'lingan: 1. Tabiiy-iqlimiy omillar. Ular jamiyatning tabiiy bazasi bilan bog'liq. 2. Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar. Ular inson hayotiy faoliyatini ta'minlashning tabiiy bazasini davomi hisoblanadi. Bu omillar shuningdek mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilish shakl va tavsifi – xususiy yoki ijtimoiy shakl, iqtisodiyot darajasi va h.k. ni ham ko'rsatib beradi. 3. Ijtimoiy-madaniy omillar. Bu inson (jamiyat) ma'naviy-bunyodkorlik faoliyatining paydo bo'lishini anglatadi. Ular ishchining ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyati bilan mustahkam bog'liq bo'lib, insonning ma'naviy rivojlanishi uning qadriyatlarini, mehnatga, mavjud ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlarini, ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beradi. Global miqyosda ushbu omillar tegishli ijtimoiy mentalitetni shakllantiradi. Shuningdek, mafkura va din ham katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy omillar o'z ichiga ma'lum an'analarni, u yoki bu xalqning madaniyatini oladi. Aynan ijtimoiy-madaniy omillar jahonda tarkib topgan ikki – sharq va g'arb sivilizatsiyasining farqini ko'p jihatdan belgilab beradi. G'arb sivilizatsiyasi uchun tarixan insonning shaxsiy ozodligi, munosabatlarning gorizontali tipi, demokratiya xos bo'lsa, sharq sivilizatsiyasi uchun shaxs faoliyati ustidan qat'iy nazorat, munosabatlarning vertikal tipi, mustabidlik xos bo'lgan.

Iqtisodiy transformatsiya nazariyalari fanining predmeti, vazifasi va bilish usullari. Ma'lumki, umumiy iqtisodiyot nazariyasi – bu ijtimoiy fan bo'lib, cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida

kishilar va guruhlarning xulq-atvorini o'rganadi. Iqtisodiy transformatsiya nazariyalari—umumiy iqtisodiyot nazariyasi doirasidagi xususiynazariyadir. Yaxlit yangi iqtisodiyotining u yoki bu tizim (pog'ona) iqtisodiyoti bilan taqqoslagandagi o'ziga xos xususiyatlari uni umumiy iqtisodiyot nazariyasi doirasidan tashqariga chiqarib yubormaydi. «Iqtisodiy transformatsiya nazariyalari» fanining predmeti bo'lib bir tizimdan boshqasiga yangi davrida kishilar o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari hisoblanadi. Biroq, o'z mazmuniga ko'ra, bu munosabatlar ko'proq jamiyatning transformatsiyalashuv holatiga xos bo'lgan maxsus jihatlar bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyot nazariyasi dastlab 1615 yilda merkantilizm maktabi namoyandasi, fransuz olimi Antuan Monkretenning «Siyosiy iqtisod traktati» nomli asaridan kelib chiqqan holda siyosiy iqtisod atamasini olgan edi. Biroq, siyosiy iqtisod umumiy iqtisodiy nazariya sifatida bozor industrial tizimi davrining mahsuli hisoblanadi. Fiziokratlar ham, klassik maktab vakillari ham rivojlanib borayotgan burjua jamiyatidagi tahlil qilingan hodisalarga tabiiy tartib sifatida qarashlari ham aynan shu bilan izohlanadi. Shular bilan birga D. Rikardo ham, A. Smit ham iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari haqida hech qanday fikr yuritishmagan. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari ba'zi bir olimlar tomonidan barchaga ma'lum bo'lgan tasodif sifatida tushunilib, undan oldinga qarab ham (Sen-Simon), orqaga qarab ham (Mirabo, Sismondi) yo'l yurish mumkin bo'ladi. XIX asr oxirida «tabiiy tartib» konsepsiyasi o'rniga kapitalistik bozor tizimining tanqidi hamda uni boshqa tuzum bilan almashtirish mumkinligi to'g'risidagi nazariyalar paydo bo'lib, bunday g'oyalarning tarafdorlari sifatida Veblen (1857–1929), Y. Shumpeter (1883–1950) larni ko'rsatish mumkin. XX asrda jahondagi transformatsiya jarayonlarining ikkinchi to'ldirishini rivojlanishi asosida yangi tendensiyalar yanada kuchaydi. Kapitalizmning yuqori bosqichi – imperializm vujudga keldi. Fanning tadqiq etish usuli iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasining ham muayyan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishini taqozo etadi. Birinchidan, har qanday iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlarining umumiy belgilari. Ikkinchidan, belgilarning tizim ko'rinishidagi ifodasi, u orqali belgilar, shu jumladan transformatsiya shakllari ichki o'zaro muvofiqligining ochib berilishi. Uchinchidan, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining amal qilish qonuniyatlari, ya'ni yangi va eskining o'zaro aloqasi tavsifi, bir tizimdan boshqa biriga yangining yakunlanish mexanizmi. To'rtinchidan, xususiylik, umumiylik va alohidalik shakllarining tavsifi. Aynan shular orqali u yoki bu sharoitlardagi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti amaliyotining abstrakt nazariya bilan mustahkam aloqasi namoyon bo'ladi. Iqtisodiy transformatsiya nazariyalaridan fanining vazifasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi: -transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining o'zgaruvchan jarayonlari to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish; -bozor iqtisodiyoti paydo bo'lishi va qaror topishining ob'ektiv qonuniyati va tendensiyalarini kuzatish va o'rganish; -olib borilayotgan islohotlar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mumkin bo'lgan variant va muqobil yo'llarini belgilash.

Iqtisodiy transformatsiya nazariyalari iqtisodiyot nazariyasining alohida bo'limi hisoblanganligi sababli, u o'zining predmetini tadqiq etishda aynan

iqtisodiyot nazariyasifani doirasida qo'llaniluvchi usullardan foydalanadi. Biroq, Iqtisodiy transformatsiya nazariyalaripredmetidagi o'ziga xoslik mazkur usullarning ustuvorligiga ma'lumdarajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bilishning dialektik usuli qoidalari Iqtisodiy transformatsiya nazariyalari umumiy usuli bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu fanning muammolarini tadqiq etishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, eksperiment, makro va mikroiqtisodiy tahlilni qo'shib olib borish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishning taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullaridan keng foydalaniladi.

3.2. Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi.

Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, fan va yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishda ommaviy ilmiy kashfiyotlar hamda tovar va xizmatlarning yangi istiqbolli bozorlarini yaratish bilan cheklanib qolmay, balki birinchi navbatda, iqtisodiyotda bevosita taraqqiy etishning yangi mexanizmi sifatidagi, uning doirasida muntazam va to'xtovsiz ravishda iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli yangiliklar klasterlari yuzaga keladigan va faoliyat yuritadigan milliy innovatsion tizimlarini (MIT) yaratish eng samarali natija bo'lib hisoblanadi².

Bunday tizimlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun nafaqat kuchli ilm – fan va ta'lim tizimi, balki institutsional sharoitlarning butun bir majmui talab etiladi.

Milliy innovatsion tizimni shakllantirish konsepsiyasi o'tgan asrning 80 yillar boshidan rivojlana boshladi. Bunda "milliy" so'zi tavsifi aynan "davlat" innovatsiya tizimi degan mazmunni anglatadi.

Turli mamlakatlarning milliy innovatsion tizimi bir biridan farq qiladi. Shu kungacha milliy innovatsion tizimining yagona ta'rifi mavjud emas. Shuningdek, turli mamlakatlar milliy innovatsion tizimi oldiga turli maqsadlar qo'yilishi mumkin. Fransiyada milliy innovatsion tizimining asosiy vazifasi qo'shimcha ish o'rinlari tashkil qilish, Germaniyada ilg'or texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat, deb hisoblanadi. Bunda yevropalik ekspertlarning bergan baholariga ko'ra, har ikki milliy innovatsion tizimning umumiy samaradorligi deyarli bir xil.

Innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga na davlat turi, na siyosiy tadbirlar ta'sir ko'rsata oladi. Innovatsiya faoliyati federal davlatlarda ham (AQSh, Germaniya), unitar davlatlarda ham (Fransiya), konstitutsion monarxiya davlatlarida ham (Buyuk Britaniya, Gollandiya, Ispaniya), shuningdek kommunistik tartibga ega davlatlarda (Xitoy) ham muvaffaqiyatli rivojlanaveradi. Bunda umumiylik shundaki, xorijda innoavion jarayolarning rivojlanishi barqaror siyosiy vaziyat va barqaror faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot sharoitida yuz beradi.

Milliy innovatsion tizimi konsepsiyasi Yevropa ittifoqining bir qator a'zo mamlakatlarida, shuningdek, AQSh va Yaponiyada keng rivojlangan. Milliy innovatsion tizimi innovatsion faoliyat sub'ektlari majmuidan, ular o'rtasidagi bilimlarning yuzaga kelishi, tarqalishi va ulardan foydalanish jarayonlarini

² O'zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish.T.: KONSAUDITINFORM – NASHR. 2011

ta'minlab beruvchi munosabatlardan tashil topadi. Innovatsiya tizimining asosiy elementlari qatorida innovatsiya infratuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, ilmiy salohiyat kabi kichik tizimlarni sanab o'tish mumkin. Ularning har birida tadqiqotlarni moliyalashtirishning asosiy qismi (100%gacha) byudjet manbalaridan (ham federal, ham mintaqaviy byudjetlardan) amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda respublikaning iqtisodiy siyosati iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga, yuqori samarali ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan.

Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojdanish yo'liga o'tishi bir qator muammolar bilan bog'liq. Iqtisodiyotning jadal o'sishini ta'minlab beruvchi innovatsion texnologik iqtisodiyotning universal modeli mavjud emas.

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'ektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan ikki qism — tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan taxlil etish, tajriba o'tkazish, olingan natijalar-ni taxlil etish va umumlashtirish, ke-lib chiqqan farazlarni olingan dalil-lar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamen-tal va amaliy, mikdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga aj-ratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagi-na emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni qal qilishda ham keng qo'llaniladi.

Ilmiy tadqiqot institutlari — fan, texnika, ishlab chiqarish sohalarida ilmiy tadqiqot olib boradigan muassasa. Dastlab 19-asr oxiri 20-asr boshlarida vujudga kelgan. 1888 yil Parijda Paster instituti, 1909 yilda Radiy instituti tashkil etilgan. 20-asrning boshlaridan nazariy masalalar bilan birga texnika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saklash bo'yicha muhim muammolar ustida tadqiqotlar olib boruvchi turli Ilmiy tadqiqot institutlari paydo buldi. 20-asrning o'rtalariga kelib Ilmiy tadqiqot institutlari ko'p mamlakatlarda ilmiy faoliyatni tashkil etishning asosiy shakli bo'lib qoldi. O'zbekistonda asosiy nazariy muammolar ilmiy tadqiqot ishlarining muvofiklashtirish markazi — O'zbeshston Fanlar akademiyasida tadqiq etiladi. Bilimning muayyan sohalarini tadqiq etuvchi va bevosita vazirliklar, davlat qo'mitalariga buysunuvchi tarmoq Ilmiy tadqiqot institutlari ham mavjud. O'zbekistonda birinchi ilmiy tadqiqot muassasasi — Toshkent astronomiya va fizika observatoriyasi (hoz. Astronomiya instituti) 1873 yilda tashkil etilgan. 2023 yilda O'zbekistonda 100 dan ortiq Ilmiy tadqiqot institutlari ishlamoqda.

3.3. Bozor iqtisodiyoti beqarorligi.

Iqtisodiy beqarorlik muqarrar bo'lsada, davriydir, ya'ni u bir yuzaga kelsa, bir yo'qolib turadi. Tanglik va iqtisodiy o'sish o'rin almashib turganidan beqarorlikdan chiqiladi. Retsessiya ma'lum vaqtdan so'ng to'xtaydi, iqtisodiyot depressiv holatiga o'tadi, so'ngra yana jonlanadi. Xo'sh bu qanday yuz beradi? Bozor mexanizmini

o'zi iqtisodiyotni beqarorlikdan chiqishiga sharoit xozirlaydi. Taklif ortib ketganligidan, unga nisbatan talab qisqaradi, natijada narxlar tusha boshlaydi, ular vositasida talab va taklif muvozanatlashadi. Yangi muvozanat narxlari oldingisidan past bo'lib, tovarlarni sotilishiga imkon beradi. Tovarlar zahirasi qisqaradi, ularni sotishdan kelgan pulni o'aytadan ishlab chiqarishga sarflash mumkin bo'ladi. Tovarlar sotilib turganidan pulni qarzga ko'tarib ishlab chiqarishga o'oyiladi. Yangidan qo'yilgan pul texnologiya yangiliklarini kiritishga yuboriladi, natijada xarajatlar tushib foyda ko'paya boradi. Foyda topish ishlab chiqarishni kengaytirishga stimuly beradi. Ishlab chiqarishni kengayib borishi bandlikni va shunga ko'ra daromadlarni, binobarin xarid qobiliyatini oshiradi. Bu yerda biz oldin ko'rib o'tgan daromad samarasi ish beradi, ya'ni daromadni ortishi talabni elastik qilib tovarlar sotilishini ko'paytiradi. Talab oshganidan narxlar ham ko'tariladi, bunga javoban elastik taklif xosil bo'ladi, chunki tovar sotishdan kelgan foyda ko'payadi.

Agar iqtisodiyot depressiyaga kirganda past narxlar asosida talab va taklif muvozanatlashsa, iqtisodiyot yuksalayotganda yuqorilashgan narxlar zamirida bozor muvozanati yuzaga keladi. Demak, bozor mexanizmining o'zi talab-taklif muvozanatini tiklab, iqtisodiyotni yuksalishiga yo'l ochadi. Bu bilan bozorning layoqatligi namoyon bo'ladi. Beqarorlikdan chiqishning sharti firmalarni selektiv tanlanishi hisoblanadi, ya'ni tanglik sharoitida zaif firmalar Yopiladi, baquvvat, yashovchan firmalar jon saqlab qoladi, iqtisodiyot ular qo'liga o'tib yuksalish yuz beradi. Krizis iqtisodiyot uchun faqat tushkunlik emas, balki uni zaif firmalardan xolis bo'lib, sog'lomlashib olishi, bu esa iqtisodiy o'sishga imkon yaratishni bildiradi. Demak krizis birinchidan talofot keltirsa, ikkinchidan iqtisodiyotni yangilanishini talab qiladi, bu bilan uning kelajagiga ijobiy ta'sir etadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, beqarorlikdan chiqib ketishni faqat bozor mexanizmining o'ziga tashlab qo'yilsa, tanglik cho'zilib ketadi, bundan jamiyat ko'rgan talofot katta bo'ladi. Shu sababli davlat iqtisodiyotga faol aralashadi, uni barqarorlashtirishga o'z hissasini qo'shadi. Masalan, 1901 yilgi krizis chog'ida davlat iqtisodiyotga unchalik aralashmay turganidan, undan chiqib ketish ancha cho'zilib ketgan. 1929-1933 yilgi krizis eng dahshatli bo'lishiga qaramay undan chiqish yengil kechgan, chunki davlat iqtisodiyotga faol aralashgan. 1975 yilgi krizisdan chiqish bundan ham yengil bo'lgan, chunki davlat tanglikdan tez chiqish uchun hamma choralarni ko'rgan. Davlat iqtisodiyotga faol aralashgan joyda retsessiya qisqa vaqtda bo'ladi, depressiya yuz bermay iqtisodiyot krizis xolatidan jonlanishga o'tib ketadi.


Davlatning siyosati ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, siklni oldini olish, tanglik yuz berganda ham uni yengil bo'lishini ta'minlash. Ikkinchisi, yuz bergan tanglik holatidan kam talofot bilan va tezda chiqib ketishni ta'minlash.

Davlat tanglikni oldini olish uchun g'oyat o'izib ketgan iqtisodiyotni sovutish choralarni qo'llaydi. Iqtisodiyot qizib ketganda ishlab chiqarish xaddan ziyod tez o'sib taklif jadal ko'payadi. Natijada taklifni tezda talabdan oshib ketishi xavfi tug'iladi, firmalar foyda ketidan quvib tovarlarni ko'plab chiqarib bozorga tashlaydilar. Bu ja'mi talab-taklif muvozanatini buzilishiga, binobarin tanglikka olib kelishi mumkin. Buni tushunish uchun erkin misol olamiz. Muayyan mamlakatda

iqtisodiyot yiliga 4% o'ssa bozorga 500 mlrd. dollarlik tovar chiqariladi, talab ham 500 mlrd. dollar bo'lganidan taklifga tenglashgan bo'ladi. Agar iqtisodiyot yiliga 6% o'ssa taklif 750 mlrd. dollarga teng bo'ladi. Talab esa faqat 150 mlrd. dollarga ortadi. Bunda 100 mlrd. dollarlik tovarni mavjud narxda sotilmasligi vujudga kelishi mumkin, chunki $750 > 650$ xosil bo'ladi. Shunday paytda davlat ishlab chiqarish o'sishini sekinlashtirish chorasini ko'radi. Davlat ishlab chiqarishni ma'muriy ta'qiqlash yo'lidan bormaydi, albatta. U iqtisodiy choralarni qo'llaydi. Bunda davlat firmalarga beradigan buyurtmalarini qisqartiradi, firmalarga eksport kvotasi (me'yori)ni qisqartiradi. Muhimi davlat soliqlarni oshiradi. Bu firmalar foydasini qisqartirib, ishlab chiqarishga investitsiya qilishni cheklab qo'yadi. Shuningdek davlat qimmat pullarni xosil etadi. Bunga ikki yo'l bilan erishiladi.

Birinchidan, davlat firmalarga o'z obligatsiyalarini sotib ulardan qarz oladi. Firmalar qo'lidagi pul davlat ko'targan qarz summasiga qisqaradi, bu ham ularni investitsiya imkoniyatini toraytiradi. Ikkinchidan, davlat banklar uchun o'rnatilgan majburiy rezervlarini oshiradi. Agar ilgari majburiy rezerv 12% bo'lsa, so'ngra bu 18% chiqariladi. Demak rezervni 6% ($18 - 12 = 6$) oshirilishi, shu miqdorda banklar qo'lidagi firmalarga qarzga beriladigan pulni qisqartiradi. Aytaylik, banklar qo'lida 600 mlrd. dollar kredit (qarz berish) uchun pul bo'lganda, shundan 72 mlrd. dollari rezervga olinganda, ularni qarz berish imkoniyati shu summaga qisqargan va 528 mlrd. dollarni ($600 - 72 = 528$) tashkil etgan. Rezerv talabi 18% chiqqanda, rezerv 108 mlrd. dollarga yetib, qarzga beriladigan pul 492 dollar ($600 - 108 = 492$) bo'ladi xolos. Bank qarzga berishi mumkin bo'lgan pul taklifini qisqarishi unga talabni oshiradi, natijada bank foizi oshadi, bu esa pulni qimmatlashuvini bildiradi. Pul qimmatlashgan taqdirda uni firmalar kamroq miqdorda qarzga oladi va ishlab chiqarishga qo'yadi. Buning natijasida taklif qisqaradi, uni talabdan oshib ketishi orqaga suruladi.

Davlat ishtirokida taklifni qisqarib talabga moslashuvini chizmada ifoda etsak, u o'uyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (3.1-rasm).



3.1-pacm. Talab-taklif muvozanatini o'zgarishi

Chizmaga ko'ra t_1 vaqtga kelib iqtisod qizib ketgan. Talab va taklif L nuqtasida kesishgan. Biroq talab pasayib D_1 nuqtadan D_2 nuqtaga tushgan. t_1 vaqtidan boshlab taklif davlat ta'sirida qisqargan. t_2 vaqtiga kelib, u qisqarib talabga yetguncha pasaygan. Agar ilgari muvozanat L nuqtada bo'lsa, so'ngra K nuqta tomon xarakat qilgan. Talabni D_1 va D_2 oralig'ida qisqarishiga qarab taklif t_1 va t_2 davr oraliyida qisqargan. Shu paytda iqtisodiyotni sovutilishi yuz bergan.

Iqtisodiyoti tez o'sayotgan mamlakatlarda tanglik xatariga yo'l bermaslik uchun uni sovutish choralariga qo'l uriladi. Masalan, Xitoyda keyingi paytda ishlab chiqarish xajmi xar 10 yilda 2 marta ko'paydi. Natijada iqtisodiyotni qizib ketish alomatlari paydo bo'ldiki, bu ishlab chiqarishga nisbatan tovarlarni sekinroq sotilishida ifoda etildi. Shuni inobatga olib davlat Xitoydagi ishlab chiqarishni o'sishini biroz susaytirish choralarni 2002 va 2003 yillari qo'lladi.

Davlat faqat taklifga emas, balki talabga ham ta'sir etib ularni muvofiqlashtirishga intiladi.

Ja'mi talabga davlatning ta'siri bir necha yo'nalishda boradi. Davlat eng avval o'z buyurtmalarini ko'paytiradi, ya'ni bozordagi o'z talabini kengaytiradi. Davlat buyurtmalari firmalar uchun kafolatlangan bozor hisoblanadi, chunki bu yerda tovarlar oldindan kelishilgan narx bilan albatta sotiladi. Bu firmalar uchun g'oyat qulay xisoblanadi.


Davlat arzon pullar siyosatini qo'llaydi. Bunda u o'z obligatsiyalarini firmalardan sotib olib ular ixtiyoridagi pullarni ko'paytiradi. Bu bilan firmalarni resurslarga talabi oshiriladi, natijada firmalar xaridi ko'paytiriladi. Firmalarni resurslarga talabini oshirish uchun davlat banklarga qo'yiladigan rezerv talabini qisqartiradi. Yuqoridagi misolimizda davlat banklarga rezerv talabini oshirib, banklarni firmalarga qarz berish imkoniyatini cheklagan edi. Endi davlat bu imkoniyatni kengaytiradi. U rezerv talabini 18% dan 8% ga tushuradi. Agar oldin banklar 600 mlrd. dollar pulidan 492 mlrd. dollarni firmalarga bera olgan bo'lsa, endi rezerv talabi qisqarganidan ular rezervga 108 mlrd. dollar o'rniga 48 mlrd. dollar ajratishadi ($\frac{600 \cdot 8}{100} = 48$). Shunga muvofiq ravishda banklarda kreditga

berish uchun 552 mlrd. dollar qoladi. Bank puli ko'payganidan uni qarzga olib ishlatish narxi (foiz) kamayadi. Firmalar arzon pulni ko'proq olib ishlatadilar. Firmalarda ishlab chiqarishga yuboriladigan pul ko'paygach bandlik tabiiy ravishda oshadi.

Bandlikni oshishi tabiiy ravishda aholi pul daomadlarini ko'paytiradi, bu bilan ham ja'mi talab o'sib u taklifga tenglashadi. Davlat bandlikni jamoat ishlarini tashkil etish bilan ham oshiradi. Davlat obodonchilik ishlarini, yangi qurilishni, chunonchi hamma uchun zarur yo'llar, suv kanallari, sport maydonchalari kabilarni qurishni tashkil etadi. Bu ishlarda aholi band bo'lib, u daromad topadi, uning xarid qobiliyati, binobarin talabi ham oshadi. Davlatning talabni oshirishga ta'siri aholidan o'z korxonalari aksiyalari, oldin chiqarilgan obligatsiyalarini sotib olish, ularni foizini to'lash orqali ham yuz beradi. Shuningdek davlat o'zining ijtimoiy dasturlariga binoan muhtojlarga yordam pulini ko'paytiradi. Davlat transfertlarini oshishi aholi qo'lidagi pulni ko'paytirib uning talabini kengaytiradi.

Davlat ta'sirida talabni oshib taklif darajasiga chiqishi ishlab chiqarishni tanglikdan holi etadi. Bozordagi muvozanatni talabni oshirish hisobidan tiklanishi quyidagicha tasvirlash mumkin (3.2-rasm).

Talabni davlat ta'sirida ortishi taklifni o'ziga chorlab muvozanat hosil etganda talabni D_1 dan D_2 tomon ko'tarilishiga bog'liq holda taklif t_1 dan t_2 tomon siljiydi. Ular muvozanatlashgani uchun D_1 va D_2 oralig'i t_1 va t_2 oralig'iga teng bo'ladi. Siljishlar natijasida muvozanat dastlab K nuqtada bo'lsa so'ngra L nuqtaga ko'chadi.



3.2-pacm. Talabni siljishi va unga taklifni moslashuvi

Talabni oshirish orqali iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi. Bunda davlat iqtisodiyotni o'zdiradi, bu talab pasayib tanglik holati paydo bo'lganda yoki iqtisodiyotda lanjlik yuz berganda qo'llaniladi. Talabni ortishi qulay kon'yunktura hosil etadi. Taklif ortib ketib kon'yunkturada noqulaylik kutilganda iqtisodiyot taklifni qisqartirish orqali sovutiladi. Xullas iqtisodiyot goh sovutilib, goh qizdirilib turishi orqali rivojlanib boradi.

4-MAVZU. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA GLOBALLASHUV. "O'ZBEKISTON 2030" STRATEGIYASI VA UNING USTUVOR YO'NALISHLARI.

Reja:

- 4.1. Iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya jarayonlari.
- 4.2. Ochiq va yopiq iqtisodiyot.
- 4.3 Xalqaro savdo-sotiqning ustuvor jihatlari.
- 4.4. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi.

Tayanch iboralar: integratsiya, iqtisodning baynalminallashuvi, globalizatsiya, iqtisodiyot ochiqligi, yopiq iqtisodiyot, xalqaro savdo, strategiya, yangicha yondoshuvlar, tizimli islohotlar, iqtisodiy o'sish, xalqaro kelishuvlar, natijadorlik.

4.1. Iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya jarayonlari.

Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi turli mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga bog'liq qilib o'z-o'zini yadi. Iqtisodiy faoliyat baynalminal tus oladi, muayyan mahsulotni ishlab chiqarishda bir necha mamlakatlar firmalari ishtirok etadi. Bir mamlakatda yetishmay qolgan resurslarni o'rnini boshqa yerdan kelgan resurslar bilan to'ldiriladi, yirik ilmiy texnikaviy loyihalar birgalikda amalga oshiriladi. Turli mamlakatlar milliy iqtisodiyoti bir-birini taqozo etadigan bo'lib qoladi. Mamlakatlar aro muntazam iqtisodiy aloqalar integratsion jarayonlarni yuzaga keltiradi.

Turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotini o'zaro qo'shib yagona mamlakatlararo xo'jalik tizimini xosil etishi iqtisodiy integratsiya deb yuritiladi.

Integratsiya iqtisodiy yaqinlashuvdan boshlanib iqtisodiy birlashuv bilan yakunlanadi. Buning natijasida turli iqtisodiy ittifoqlar paydo bo'ladi. Integratsiya turli mamlakatlar iqtisodiy chegaralarini bir-biri uchun ochilib yagona iqtisodiy makon xosil bo'lishini bildiradi. Integratsiya bir qator belgilarga ega:

1) Yagona umumiy bozorni mavjudligi. Bir mamlakat milliy bozori boshqa mamlakat tovar va xizmatlari uchun ochiq bo'ladi, bojxona poshlinalari bekor qilinadi yoki minimal darajaga keltiriladi, eksport va import cheklanishlari olib

tashlanadi. Integratsion ittifoqqa kirmagan uchinchi mamlakatlar tovarlari importiga nisbatan yagona kelishilgan bojxona poshlinalari kiritiladi.

2) Yagona iqtisodiy makon doirasida iqtisodiy resurslarni xech bir cheklovlarisiz erkin harakatini yuz berishi. Bunda yagona migratsiya qoidalari kiritilib mehnat resurslarini erkin ko'chib yurishi va mamlakatlararo taqsimlanishi ta'minlanadi. Mehnat migratsiyasi uchun chegaralar ochiq bo'ladi, umuman kishilarni bir mamlakatdan boshqasiga borish qoidalari g'oyat soddalashtiriladi. Mamlakatlararo kapital chiqarish va kapital kiritishdan ham yengilliklar beriladi, o'zaro kapitalni taqsimlanishiga afzalliklar beriladi. Bir mamlakatdagi kapital sohibi boshqa yerda biznes qilishi uchun xech bir to'siqlar bo'lmaydi.

3) Turli davlatlar ichki va tashqi iqtisodiy siyosatning muvofiqlashuvi. Turli mamlakatlarda bir hil soliqlar qo'llaniladi. Tashqariga chiqarilgan tovarlarga 2 marta (mamlakat ichida va tashqarisida) soliq qo'yishga yo'l berilmaydi. Byudjet defitsiti darajasi ham turli mamlakatlarda bir-biriga yaqin turadi, defitsitni qoplash usullari ham o'xshash bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini tartiblashda bir hil qoida qo'llaniladi, boshqalar tovarlari kiritilganda yagona bojxona poshlinalari olinadi.

4) Turli milliy pullar o'rniga yagona pulni kiritilishi, bu pul integratsiyalashgan mamlakatlar uchun umumiy to'lov vositasi hisoblanadi, hamma mamlakatlarda barcha to'lovlarga qabul qilinadi. Yagona pul bo'lganidan turli mamlakatlar o'rtasida valyuta almashtirishga ehtiyoj qolmaydi. Ilgarilari Yevropa ittifoqiga kirgan mamlakatlarda o'z valyutalarini ayirboshlash (masalan, Fransiya frankini, Germaniya markasiga ayirboshlash) mavjud bo'lgan. 2002 yildan e'tiboran yagona pul - yevro kiritilgach valyutalar ayirboshlash yo'q bo'ldi. Yagona pulni amal qilishi to'lov operatsiyalari uchun qulaylik tug'dirib savdo-sotiqni rivojlanishiga yo'l ochadi.

Integratsiyaning ko'rsatilgan belgilari turli darajada amal qiladi. Masalan, umumiy pul faqat Yevropa ittifoqida bo'lib, boshqa iqtisodiy uyushmalarda u amal qilmaydi.

Iqtisodiy integratsiya quyi shakldan oliy shakl tomon rivojlanadi. Shu sababli u quyidagi bosqichlardan o'tadi:

1) Erkin savdo zonalaridagi integratsiya. Bu integratsiyaning ilk shakli bo'lib, bu yerga birlashgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq to'siqlari bekor qilinadi. Bojxona to'lovlari yo'qotiladi, eksport va importga kvota belgilash, ya'ni uni miqdoran chegaralashga yo'l berilmaydi. O'zaro savdo-sotiq uchun qulaylik bo'lganidan u tez rivojlanadi, tovar ayirboshlashda mamlakatlar bir-biriga bog'lanib qoladi.

2) Erkin iqtisodiy zonalaridagi integratsiya. Bu yerdagi muntazam aloqalar savdo-sotiq doirasidan chiqib sanoat, bank, sug'urta va texnologiyani ishlariga ham taalluqli bo'ladi. Bunday zonalar qatnashuvchi mamlakatlar ishlab chiqarishda ham bir-biriga yaqinlashadi. Bu zonalar ochiq iqtisodiy xududlar deb yuritiladi. Ularning ishtirokchilariga imtiyozlar beriladi, shu sababli ular faollik qiladilar.

3) Umumiy bozordagi integratsiya. Bu turli mamlakatlar bozorini birlashib umumiy bozor xosil etishi bir mamlakat ichki bozorini boshqasi uchun ochiq bo'lishi. Umumiy bozor mamlakalari doirasida tovarlar va resurslar xarakati erkin

bo‘ladi. Xar bir mamlakatdagi ishlab chiqarish faqat o‘z bozori uchun emas, umumiy bozor uchun ishlaydi. Umumiy bozor turli mamlakatlarni iqtisodiy birlashuvidagi yuqori shakl hisoblanadi. Umumiy bozor namunasi Yevropa ittifoqidir. Bu uyushma 1957 yil «Umumiy bozor» nomi bilan tashkil etilgan, dastlab bunga 6 davlat, so‘ngra 9 davlat va nihoyat 15 davlat birlashgan. Kelajakda bu ittifoqda 25 mamlakat birlashadi.

4) «Iqtisodiyot va valyuta» ittifoqidagi integratsiya. Bu xozirchalik integratsiyaning eng oliy shakli, bosqichi bo‘lib, bu mamlakatlarni faqat savdo-sotiq va ishlab chiqarish sohasida emas, balki moliyaviy sohada ham birlashishlarini bildiradi. Bu yerda yagona byudjet, soliq va kredit tizimi o‘rnatiladi. Yagona, hamma ishtirokchilarning umumiy pul birligi kiritiladi, bu milliy pullar o‘rmini bosuvchi baynalminal pul hisoblanadi. Umumiy bozorni yangicha ittifoqqa aylanishi Yevropada yuz berdi. Ilgarigi «Umumiy bozor» iqtisodiyot va valyuta ittifoqiga aylangan. Bu yerda integratsion aloqalar kengayib, ularga yagona pul birligi Yevro xizmat qiladi. Bu ittifoq kelajakda yagona umumevropa xo‘jaligi tashkil topishidan darak beradi. Bu yerdagi integratsiyaning samaradorligi shundaki, unda ishtirok etuvchi mamlakatlar iqtisodiyoti barqaror o‘sadi. Korxonalar xajmi g‘oyat katta umumiy bozorga ishlaganlari uchun ular tovarlariga talab oshadi. Shunga qarab resurslar oqilona taqsimlanadi, ya‘ni kerakli joyga kerakli miqdorda resurslar yuboriladi. Bu bilan mehnat unumdorligi oshadi, tovarlar tarkibi yangilanadi, daromadlar ham oshadi, turmush darajasi yuksaladi.

Yevropa ittifoqi mamlakatlari o‘z mustaqilligini saqlagan bo‘lsalarda ular o‘z xuquqining bir qismini Umumevropa tashkilotlari bo‘lmish Yevropa parlamenti, Yevropa ministrlar soveti va Yevropa markaziy bankiga berganlar. Demak integratsiya jarayoni mustaqillikdan qisman voz kechishni talab qiladi. Integratsiya dunyoda yuz beradigan globalizatsiyaning yuksak bosqichi hisoblanadi.

Globalizatsiya xar bir mamlakat milliy iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanib, undagi o‘zgarishlarning bevosita ta‘siriga berilishidir.

Globalizatsiya iqtisodiyotni baynalminal tavsifda bo‘lishini, mamlakatlar iqtisodiyotini jahon bozorida o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lishini bildiradi. Integratsiya globalizatsiya mahsuli bo‘lsada, unda ishtirok etmaydigan mamlakatlar ham globalizatsiya domiga tortiladi. Yer yuzida 210 mamlakat bo‘lsa, ularning bir qismi integratsion ittifoqlarga kiradi, boshqasi bularda ishtirok etmaydi, biroq globalizatsiya ta‘sirida bo‘ladi. Globalizatsiya mohiyatan iqtisodiyotni umumbashariy tus olishini, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining tashqi iqtisodiy aloqalarga bog‘liq bo‘lib qolishi demakdir. Globalizatsiya sharoitida nafaqat tovarlar va xizmatlar balki resurslar ham dunyodagi talab-ehtiyojga qarab mamlakatlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Ish kuchi, kapital, xom-ashyo va energiya xomillari, yangi texnologiya va yangi g‘oyalar dunyo uzra tez tarqaladi. Novatsiyalar umumbashariy doirada yuz beradi. Resurslarni qaerda ishlatish yuqori samara bersa, ular shu yerga yuboriladi. Natijada dunyodagi iqtisodiy o‘shish jadallashadi. Agar 2002 yili dunyoda yaratilgan YaIM o‘iymati 37,9 trillion dollar bo‘lsa, 2023 yili bu ko‘rsatgich 146,4 trillion dollarga yetdi. Biroq jadal iqtisodiy o‘shish notekis boradi. Bir gurux mamlakatlar ilgari lab ketsa, boshqalari ulardan orqada qoladi. Turli mamlakatlarning iqtisodiy

darajasi o'rtasidagi katta tafovut saqlanadi, xatto kuchayib ham ketadi. Masalan, 2022 yili rivojlangan mamlakatlarda 27510 dollar, qoloq mamlakatlarda esa 520 dollar, ya'ni deyarli 50 marta kam bo'lgan. Globalizatsiya sharoitida iqtisodi zaif mamlakatlarda o'sish tezlashgan, biroq qoloqlikdan chiqish uchun yetarli bo'lmagan.

Globalizatsiya oqibatlari ziddiy hisoblanadi. Uning ijobiyligi taraqqiyotni tezlatishi bo'lsa, salbiyligi buni g'oyat notekis borishidir. Dunyo miqyosidagi turmush darajasi o'sgan xolda qoloq mamlakatlarda aholining katta qismi kambag'allikda yashaydi. Iqtisodiy zaif mamlakatlarda ishsizlik kuchli bo'lib, kishilar ish axtarib o'z yurtini va oilasini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Kelgindi ishchilar ko'payadi, ular amalda xuquqsiz bo'lib, yashirin xayot kechiradi. Biroq globalizatsiya muqarrar bo'lganidan uning talablari bilan hisoblashib, ularga moslashib yashash talab qilinadi.

4.2. Ochiq va yopiq iqtisodiyot.

Umuman olganda iqtisodiyot 2 hil bo'ladi. Bular ochiq va yopiq iqtisodiyot. XXI asr boshidagi iqtisodiyot tabiatan ochiq iqtisodiyotdir.

Ochiq iqtisodiyot – bu tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishgan, ularning afzalligiga tayanib rivojlanib boruvchi iqtisodiyotdir.

Ochiq iqtisodiy tushunchasi milliy iqtisodiyotga nisbatan qo'llaniladi. Uning ochiqlik darajasi turli mamlakatlarda har xil, albatta. Buni turli mezonlarga qarab aniqlanadi:

1) Iqtisodiyotning eksport salohiyoti. Agar eksport YaIMga nisbatan qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ochiqlik darajasi yuqori bo'ladi. Masalan, Gollandiyada eksport YaIMning 3/4 qismiga teng bo'lganidan bu yerda ochiqlik darajasi yuqori deb aytish mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotining ham ochiqlik darajasi yuqori, chunki eksportning YaIMdagi hissasi deyarli 40% ga yetadi.

2) Iste'molda importning hissasi. Agar bu hissa qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik iqtisodiyot ochiq hisoblanadi. Ammo buning uchun import kafolatlangan bo'lishi kerak. Masalan, Yaponiya va Italiyada oziq-ovqat iste'molining 2/3 qismini import tashkil etadi. Importga qarab ochiqlik darajasiga baho berilganda aytilgan kafolatni bo'lishi nazarda tutiladi. Import kafolatlansa iqtisodiy xavfsizlik yuzaga kelmaydi va shunga qarab ochiqlikka baho berish mumkin.

3) Iqtisodiyotga yuboriladigan investitsiyalarda xorij krediti va bevosita xorij investitsiyalarining hissasi, chetga chiqarilgan kapitalning jami kapitaldagi hissasi. Agar ichki investitsiyalarda xorijdan kelgan mablag'lar ulushi qanchalik katta bo'lsa shunchalik iqtisodiyotni ochiq deb aytish mumkin. Ayni paytda kapital tashqariga qanchalik ko'p chiqsa, shunchalik iqtisodiyot ochiq hisoblanadi.

4) Mehnat resurslari tarkibida xorijdan oqib kelgan mehnat resurslarining hissasi. Agar muayyan mamlakatda migrantlar (kelgindilar)ning mehnat resurslaridagi hissasi katta bo'lsa, bu mamlakat ochiq hisoblanadi.

Xullas milliy iqtisodiyotning ochiqligi tovarlar, kapital va ish kuchining naqadar mamlakatga kirib va undan chiqib turishiga qarab belgilanadi. Biroq bular ochiqlikni ta'minlashda xar hil o'rin tutadi. Iqtisodiyoti kuchli mamlakatlarda ular

iqtisodiyotining ochiqqligini ko'p hollarda kapitalni chetga chiqishi, texnologiyalar eksporti ko'p bo'lgani holda iste'mol tovarlari importini ko'pligi belgilaydi. Aksincha iqtisodiyoti rivojlanib ulgurmagan mamlakatlarda uning ochiqqligini belgilashda xom-ashyo va energoresurs va iste'mol tovarlari eksporti, kapital va texnologiya importining ustuvorligi asosiy hisoblanadi. Iqtisodiyotning ochiqqligi ichki ziddiyatga ega. Agar ochiqlik iqtisodiy baquvvat mamlakatlarga ustuvorlik bersa, iqtisodiy zaif mamlakatlarda chet elga qaramlik hosil etadi.

Yopiq iqtisodiyot tabiatan an'anaviy iqtisodiyotdir, bu bozor tizimining o'tmishdoshidir. Yopiq iqtisodiyot shunday iqtisodiyotki u o'z qobig'iga o'ralgan bo'lib, o'zidan tashqi dunyo bilan aloqaga kirishmaydi, o'zini o'zi ta'minlash o'oidasiga asoslanadi, o'z kuchiga o'zi tayanadi. Bunday iqtisodiyot konservativ, eskilikni uzoq saqlab qoladi, modernizatsiya (yangilanish)ga moyil bo'lmaydi. Shu sababli u istiqbolsiz hisoblanadi. Yopiq iqtisodiyot tarixiy o'tmish bo'lsada, u gohogo amaliyotda uchrab turadi. Buni o'zini-o'zi izolyatsiyalash (yakka qo'yish) siyosati yuzaga keltiradi. Shunday siyosat natijasida o'tgan asrning 60-70 yillari mobaynida Xitoy va Albaniya iqtisodiyoti o'zgalar uchun yopilib qolgan edi. Ular tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarni siyosiy maqsad yo'lida uzib qo'yishgan. Yopiq iqtisodiyot xozirgi sivilizatsiyadan ajralib o'rmon chakalakzorlarda qolib ketgan qabilalarda uchraydi. Bunga misol qilib Braziliyaning Amazonka o'rmonlarida qolib ketgan va 2004 yili ma'lum bo'lib qolgan indeyslar qabilasini olish mumkin. Yopiq iqtisodiyot xozirgi davrga xos bo'lmasada nazariy tahlilda u model sifatida qo'llaniladi, ya'ni tahlilda milliy iqtisodiyotga xos bo'lgan xodisalar tashqi ta'sirni hisobga olmagan holda qaraladi.

Iqtisodiyot o'rganilganda investitsiya, bozor xajmi, talab-taklif, inflyatsiya, ishsizlik kabi xodisalar mamlakatning ichki doirasida qaralib, bular tashqi omillar ta'siridan holi etib qaraladi. Iqtisodiyotni yopiq deb qarash nazariyada bo'ladi. Amaliyotda xech bir yopiq iqtisodiyot yo'q.

4.3 Xalqaro savdo-sotiqning ustuvor jihatlar.

Mehnat taqsimoti chuqurlashgan sari ishlab chiqarishning ixtisoslashuv doirasi kengayib boradi. Agar ilgari ixtisoslashuv cheklangan tovar va xizmatlarning afzalligini ta'minlasa, so'ngra bu bir gurux tovarlar yuzasidan va nihoyat butlovchi qismlarni tayyorlashdagi afzallikni beradi. Mehnat taqsimoti tor doirada yuz berganda afzallik cheklanadi, shunga ko'ra mamlakatlararo tovar ayirboshlash ham ma'lum tovarlar bilan cheklanadi. Mehnat taqsimoti chuqurlashgach afzallik tobora ko'proq tovarlarga xos bo'lib ular ayirboshlanadi, xalqaro savdo kengayadi. Xozirgi davrda mehnat taqsimoti doirasi g'oyat keng bo'lib, u faqat tovarlarni ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi bilan cheklanmaydi, balki mayda-chuyda butlovchi qismlarni ishlab chiqarishga ham oid bo'ladi. Xozir texnikaviy murakkab mahsulotlar ko'plab chiqariladiki, ularni yaratish uchun zarur butlovchi qismlarni bir necha mamlakatlarda joylashgan yuzlab, hatto minglab korxonalar yetkazib beradi. Masalan, xozir zamonaviy samolyot-layner bitta korxonada yig'ilib tayyor mahsulotga aylansada, buning uchun zarur butlovchi qismlarni 1200 ga yaqin korxonalar yetkazib beradi. Demak tayyor mahsulotni yaratishda minglab korxonalar ishtirok etadiki, ulardan xar biri mehnat taqsimotida ishtirok etib,

ih-tisoslashgan ishlarni bajaradi.

Mehnat taqsimotining chuqurlashuviga qarab tayyor mahsulotdan tashqari butlovchi qismlar va turli xizmatlarni xalqaro savdo-sotig'i yuz beradi.

Xalqaro savdo-sotiq turli mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashdirki, bu taqqosiy afzallik qoidasiga asoslanadi.

Xalqaro savdo-sotiqning miqyosi unda ishtirok etuvchi mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqlik darajasiga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi, ya'ni bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik mamlakatlararo tovar ayirboshlash keng bo'ladi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdo-sotiq xalqaro ishlab chiqarishga nisbatan ildamroq o'sib boradi. Aytaylik dunyoda mahsulot va xizmatlarni yaratish 6% ga o'ssa, xalqaro tovar ayirboshlash 8% ko'payadi, chunki eksportga mo'ljallangan mahsulot va xizmatlar ko'plab yaratiladi.

Xalqaro savdo-sotiq eksport va import shaklida bo'ladi. Eksport – bu tovarlarni mamlakat tashqarisiga chiqarib sotish. Import – bu tovarlarni tashqaridan sotib olib mamlakat ichiga kiritish. Eksport va importning nisbati tashqi savdo balansi hisoblanadi, u aktiv va passiv holda bo'ladi.

Eksport importdan ko'p bo'lganda tashqi savdo balansi aktiv, import eksportdan ko'p bo'lganda u passiv bo'ladi.

Aktiv balans tashqariga tovarlar ko'p sotilishini, passiv balans esa ular tashqaridan ko'proq xarid etilishini anglatadi. Eksport va import o'rtasidagi farq sof eksport bo'ladi.

Savdo
qarab sof eksport

Eksport	–	Import	=	Sof eksport
---------	---	--------	---	-------------

balansining holatiga musbat (+) yoki manfiy (-) bo'ladi. Eksport import bilan barobar bo'lganda sof eksport 0 ga teng bo'ladi, bunday xolda netto-balans hosil bo'ladi.

Iqtisodiyotning eksport salohiyati 2 narsaga bog'liq bo'ladi:

a) Ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi.

b) Ishlab chiqarishni xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va ixtisoslashuv darajasi.

Agar ishlab chiqarish qanchalik kuchli bo'lsa va uning afzallik darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik eksport salohiyati-ya'ni eksportning ishlab chiqarishdagi salmog'i shunchalik yuqori bo'ladi. Rivojlangan ishlab chiqarishda taqqosiy afzalligi yuqori tovarlar va xizmatlar ko'plab yaratiladi, ular eksport qilinadi, ular o'rniga mamlakatda ishlab chiqarilishi afzallik bermaydigan tovarlar import qilinadi. Ammo ixtisoslashuv beradigan afzallik xar hil bo'ladi. Ilg'or mamlakatlarning ixtisoslashuvi tayyor sanoat mahsulotlari va birinchi navbatda texnologiya eksportiga ustunlik bersa, qoloq mamlakatlarda xom-ashyo va energoresurslarni ishlab chiqarish afzallik berganidan ular ko'proq eksport qilinadi. Demak taqqosiy afzallikni xar hil yo'nalishda bo'lishi ilg'or mamlakatlarga xalqaro savdo-sotiqda ustunlik bersa, qoloq mamlakatlarga qaramlik keltiradi. Qoloq mamlakatlarda ular eksportining narxi pasayishiga, importining narxi esa oshishga

moyil bo'ladi. Shu bois ular rivojlangan mamlakatlardan tovarlarni import qilish uchun eksport tovarlarini tobora ko'proq sotishga to'g'ri keladi. Bu esa xalqaro savdoda tengsizlik borligini bildiradi.

Eksport va import narxining nisbatiga bir qator omillar ta'sir etadi:

- 1) Muayyan tovarlarga tashqi bozordagi talab va shu tovarlarni taklif etilishi.
- 2) Tovarlarga mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi narxlarning qandayligi.
- 3) Tovarlarni tashqi bozorlarga yetkazishdagi yo'l kira xarajatlari.
- 4) Milliy valyuta kursidagi o'zgarishlar.
- 5) Davlatning tashqi savdoga oid siyosatining qandayligi.

Aytilgan omillar ta'sirida eksportning xajmi va shunga binoan tashqaridan keladigan valyuta tushumi o'zgarib turadi. Mamlakatlar xalqaro savdo-sotiqda naqadar faol bo'lishini ulardagi eksport kvotasi bildiradiki, bu eksportning YaIM dagi hissasidan iboratdir. Bu ko'rsatgichga eksportning moddiy miqdorigina emas, balki uning narxi ham ta'sir etadi. Masalan, tashqariga neft sotuvchi mamlakatlar eksport kvotasi neftni sotilishi o'zgarmagan va hatto qisqargan taqdirda ham uning narxini ortishi hisobidan ko'tarilib turadi. Shunday xodisa 2020 yili kuzatildi. Shu yilning oktyabr oyida 1 barrel (159 litr) neft narxi jahon bozorida rekord darajasiga chiqib 110 dollarga yaqin bo'ldi. Ochiq iqtisodiyot rivojlanishi bilan xalqaro savdo-sotiqdagi tovarlar tarkibi o'zgarib turadi. Agar XIX asrning 2 yarmidagi xalqaro savdo-sotiqda xom-ashyo, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ayirboshlangan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib bu yerda bulardan tashqari ilmiy-texnikaviy yangiliklar (litsenziya va nou-xaular), texnologik murakkab va serilm mahsulotlar, shuningdek informatsion texnologiyalar va informatsiyaning o'zi sotila boshladi. Xalqaro savdo-sotiq uning hamma ishtirokchilari uchun nafli bo'lganidan uning ahamiyati oshib boradi. Sohibqiron Amir Temur ham mamlakatlararo savdo-sotiqni rivojlantirishga o'z vaqtida katta e'tibor berganlar. U kishi «Jahon tijorat ahli bilan oboddir» deb aytganlar, karvon yo'llarini himoya qilishda faollik ko'rsatganlar, savdogarlarga moliyaviy yordam ko'rsatganlar.

4.4. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni bilan qabul qilingan,)

«O'zbekiston — 2030» strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar o'z ifodasini topgan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali **o'rtadan yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga** qo'shilish;
- xalq ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan **ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish;**
- aholi uchun **qulay ekologik sharoitlar** yaratish;
- xalqqa xizmat qiluvchi **adolatli va zamonaviy davlat** qurish;
- mamlakat **suvereniteti va xavfsizligini kafolatli** ta'minlash.

«O'zbekiston — 2030» strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishlar doirasida amalga oshirilishi belgilandi:

- har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish.

«O'zbekiston — 2030» strategiyasi 100 ta maqsadni qamrab olgan.

II. BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH

45-maqsad. 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish.

Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish.

Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlangan holda, yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik 6-7 foiz darajasida o'sish sur'atini saqlash.

Tovarlar va xizmatlar bozori muvozanatini ta'minlash orqali yillik inflyatsiya darajasini 5-6 foizdan oshmasligini ta'minlash.

Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmon muhitni ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish.

Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o'rta muddatlarga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish.

Iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarning ulushini keskin oshirish, iqtisodiy o'sishning yangi “drayver”larini ishga solish.

Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash.

Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish.

Sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish.

Xom ashyoni chuqur qayta ishlash tarmoqlari hajmini 2,5 barobarga ko'paytirish.

Yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish.

Har bir tumanda 2 tadan yangi yuqori texnologik sanoat zonalarini tashkil etish hisobiga ularda kamida mingta ish o'rinlarini yaratish.

Respublikaning 60 ming kvadrat kilometr maydonida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish.

To'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish.

Farmasevtika sohasida dori vositalariga ehtiyojni 70 foizga ichki ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash.

Charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo'shilgan qiymatni 5 barobarga oshirish.

Mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko'paytirish.

Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish.

Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, kredit foizlarini 10-12 foizgacha tushirish.

Banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish.

Kapital harakatini bosqichma-bosqich yanada erkinlashtirish choralari ko'rish orqali moliya bozoriga o'rta va uzoq muddatli xorijiy kapital oqimini keng jalb qilish.

Banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish.

Banklarning kuzatuv kengashlarida xalqaro tajribaga ega bo'lgan mustaqil a'zolari ulushini kamida 50 foizga yetkazish, kuzatuv kengashlari raislarining mustaqil a'zolar orasidan saylanishini ta'minlash.

Kamida 3 ta tijorat banklarida Islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish.

Sudga kiritilgan da'volar bo'yicha kreditlarga oshirilgan foiz va jarima hisoblashni to'xtatib turish mexanizmlarini joriy qilish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun berilayotgan kreditlar bo'yicha mavsumga moslashtirilgan so'ndirish amaliyotini joriy etish.

Iqtisodiyot va aholini zaruriy energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini 118 milliard kVtga yetkazish.

Tabiiy gaz qazib olish hajmini 62 milliard kub metr ga yetkazish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish.

Energiya resurslar bozorini erkinlashtirish bo'yicha islohotlarni yakuniga yetkazish orqali sohaga xususiylashtirish investorlarni jalb etish.

Elektr energiyasi va tabiiy gazni taqsimlash, generatsiya qilish va iste'molchiga yetkazish infratuzilmasini modernizatsiya qilish.

Neft-gaz qazib chiqarish hajmini oshirish.

Uglevodorodlar xomashyosi zaxiralarini ko'paytirishga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlariga xorijiy investorlarni jalb qilish.

Barcha turdagi energiya resurslarni hisobini yuritishini to'liq raqamlashtirish.

O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashiga erishish.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.

Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish.

Bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish.

Qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish.

Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish.

Hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha – 80-85 sentnerga yetkazish.

Qo'shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashtirish va mazkur yerlarda intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish, yerlarni o'zlashtirgan fermer va dehqonlarga o'n yil muddatga 10 foizli imtiyozli kreditlar ajratish.

Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minotini 50 foizga yetkazish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash.

Respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish.

Yer munosabatlarini isloh qilish doirasida yer maydonlari ijara huquqini garovga qo'yish mexanizmini joriy qilish.

Ko'chatchilik xo'jaliklari reestrini yuritish va ko'chatlarni sertifikatlash tizimini joriy qilish.

Har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashkil qilish.

Dehqon va fermer xo'jaliklari hamda klasterlarga barcha subsidiyalarni yagona "Agrosubsidiya" platformasi orqali "bir qadam" tamoyili asosida taqdim etish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvani sug'urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etish va unga 100 million dollar ajratish, dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotini 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish.

Chorvachilik sohasida ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlardan unumli foydalanishni ta'minlash.

Pillachilik sohasida klaster tizimi asosida 105 ming gektar yangi tutzorlarni barpo qilish va 1 milliondan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratish.

Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish.

Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga hamda xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.

Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va

texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish.

Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingga yetkazish.

Eksportchi korxonalarga aylanma mablag'larni to'ldirish, savdo uylarini ochish, ko'rgazmalarda ishtirok etish kabi maqsadlar uchun 2 milliard dollar yo'naltirish.

Dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus eksport zonalarini tashkil qilish.

"Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish.

Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish.

O'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish.

Shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo'lgan ko'chalarning 233 mingga bo'sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish.

O'rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko'chalarni tashkil etish orqali 36 mingga savdo va servis ob'ektlarini tashkil etish.

"Yangi O'zbekiston" massivlarida va xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida 6 mingga savdo va servis ob'ektlarini qurish.

Yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish.

Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish.

Iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingga korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish.

Respublikada 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish, ushbu sohalarga xususiy sektorni keng jalb qilish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog'liq sohalarni saqlab qolish.

Temiryo'lda tashish, avtomobil yo'llarini qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xizmatlarini xususiy sektorga olib berish.

Irrigatsiya, chiqindilarni qayta ishlash, ijtimoiy ob'ektlarda energetika va issiqlik ta'minoti tizimini boshqarish kabi davlat monopol sohaslarida xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish.

Mahalliy tadbirkorlik sub'ektlariga strategik foydali qazilma konlarini berish amaliyotini kengaytirish, oltin, kumush, rangli metallar, volfram,

ko‘mir hamda noruda konlarga berilgan ruxsatnomalar sonini 4 barobar oshirish.

Soliq tizimining barqarorligini ta‘minlash maqsadida biznes uchun qo‘shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash.

Soliq tizimini to‘liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor — nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo‘lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta‘minlash.

Kichik va o‘rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish.

Oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta‘minlashda oddiy «qo‘l mehnati»dan — sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish, uskuna sotib olish uchun imtiyozli kredit miqdorini 100 million so‘mgacha oshirish.

Tadbirkorlik sub’ektlariga barcha xizmatlarni «yagona darcha» tamoyili asosida onlayn portal orqali ko‘rsatish va xizmat ko‘rsatish vaqtini o‘rtacha 3 barobarga qisqartirish.

O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish.

Xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish.

Xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o‘rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog‘li hududlarda 25 ta dor yo‘llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish.

Turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta‘lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish.

Xorijiy turistlar uchun barcha xalqaro aeroportlarda respublikadan sotib olingan va rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun «Tax free» tizimini joriy etish.

«Ko‘hna tarix durdonalari» milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros ob’ektini restavratsiya qilish, yodgorliklarda «ochiq osmon muzey»larini tashkil etish.

Mamlakatimiz miqyosida shaharlararo avtobus qatnovini ta‘minlaydigan kompaniyalarni tashkil etishni yanada rag‘batlantirish.

Jami 1 000 dan ziyod elektr quvvatlash stansiyalari, ovqatlanish va hordiq chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini tashkil qilish.

Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan «Yashil makon» umummilliy loyihasini kengaytirish.

Har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sug‘orish tizimini yaratish.

1 984 ta yashil bog‘lar barpo etish, shu jumladan 112 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan o‘z va tutash hududlarida uch yil davomida 30 million tup ko‘chatdan iborat «yashil belbog‘»lar barpo etish.

Barcha davlat idoralari, korxonalar, ta‘lim muassasalari hududlarida «yashil

bog'lari»ni tashkil etish.

Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko'paytirib, 5 ming gektarga yetkazish.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Shahar va tuman markazlarida har 50 — 100 ming aholi uchun «jamoat parklari»ni tashkil etish.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MODUL BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MA'LUMOTLAR

Иқтисодиётнинг учта асосий муаммоси

Танлаш муаммоси

Танлаш жараёнида жамият ҳам, шахс
ҳам учта асосий иқтисодий саволга
жавоб топиш зарурлигига дуч келади.
Нима ишлаб чиқариш керак?

Қандай ишлаб чиқариш?

Ким учун ишлаб чиқариш керак?

Нима ишлаб чиқариш керак?

- Фаолиятнинг мақсадини аниқлаш ва
иложи бўлса, қандай имтиёзлар ва
қанча миқдорда олишни хоҳлаётганини
аниқлашга интилиш керак.



Ким учун ишлаб чиқариш керак?

- Ишлаб чиқарилган товарлар ва
хизматларни жамиятаъзолари ўртасида
талабга қараб тақсимлаш масаласи ҳал
қилиниши керак.



Иқтисодий тизимлар

1. Эволюцион (Анъанавий) иқтисодий тизим.
2. Мажбурий-тазйиқли (Маъмурий-бўйруқбозлик) иқтисодий тизим.
3. Бозор (манфаатлар тўқнашуви) иқтисодий тизими.
4. Аралаш (глобал) иқтисодий тизим.

Савол: соф иқтисодий тизим бўлиши мумкинми?

1. Эволюцион (Анъанавий) иқтисодий тизим.

- Эволюцион (Анъанавий) иқтисодий тизим — товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш ва тақсимлаш узоқ йиллик анъаналарга мувофиқ амалга ошириладиган иқтисодиёт тури.



Мажбурий-таъйиқли (Маъмурий-бўйруқбозлик) иқтисодий тизим.

- Мажбурий-таъйиқли (Маъмурий-бўйруқбозлик) иқтисодий тизим – барча иқтисодий фаолият ҳукумат томонидан тартибга солинадиган иқтисодиёт тури.



1. Бозор (манфаатлар тўқнашуви) иқтисодий тизими.

- Бозор - бу бир субъект бошқасига маҳсулот ёки хизматни иккаласи учун мақбул нархда таклиф қиладиган манфаатдорлик тизими. Манфаатлар тўнаш келмаса, иқтисодий муносабат амалга ошмайди.

Рыночная экономическая система

- Бозор тизимида – деярли барча иқтисодий фаолият бозорларда давлат аралашувисиз ёки қисман тартибланган ҳолда амалга ошириладиган иқтисодиёт.



1. Аралаш (глобал) иқтисодий тизим.

- Аралаш (глобал) иқтисодий тизим — мулкый хилма-хиллик, иқтисодий мустақиллик, манфаатлар интерналлашган, халқаро меҳнат ва ресурслар тақсимоти амал қиладиган, глобал таъсир кучли бўлган иқтисодий тизим.

Аралаш (глобал) иқтисодий тизим.

Бундай тизим хусусий, давлат ва байналминал мулк элементларини бирлаштиради. Аралаш иқтисодиётида глобаллик таъсири кучли бўлиб, у ишлаб чиқарилган товар ва хизматларнинг бир қисмини бойлардан камбағалларга қайта тақсимлайди ва бугунги кунда ресурсларнинг қайси қисмини истеъмол қилишни ва қайси бирини тежашни бир мамлакат ва глобал манфаатлар даражасида ҳал қилади.



Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг асосий муаммолари ва ечимини кўтаётган йўналишлар.

Биринчиси - институционал муаммо. Бизнинг иқтисодий бошқарувимизда ҳанузгача муайян вазирлик ва идораларнинг тармоқ жавобгарлигига асосланганлиги устунлик қилмоқда.

Иқтисодиёт ва Молия вазирлиги ва Марказий банкнинг кўп йўналишли сиёсати натижасида бизда давлат марказлаштирилган инвестицияларининг ҳақиқий бенефициарлари фақат мустаҳкам саноат ва техник базага эга бўлган қурилиш компаниялари ёки қарорларни қабул қилиш жараёнига таъсир кўрсатадиган корхоналар устунликка эга. Кичик ва Ўрта бизнес, хусусий сектор бундай ҳолларда, қоида тариқасида, шартномаларсиз қолиб кетиши мумкин.

Мавжуд институционал муаммолар:

- Иқтисодий ривожланишда янги ғояларнинг йўқлиги, иқтисодий бошқарувга турли хил тушунчалар ва ёндашувларнинг кураши. Кўпинча бизнинг амалдорларимиз мамлакат манфаатлари тоифалари бўйича эмас, балки халқаро молия институтлари томонидан ўрнатилган "иқтисодий сиёсат самарадорлиги" мезонлари бўйича ўйлашади;

- Бизнеснинг ҳақиқий муаммоларини етарли даражада тушунмаслик ва кўплаб амалдорларнинг "мухтор" фикрлаши, ўрта менежерларнинг амалий билимлари етишмаслиги муаммоси. Давлат тузилмаларининг кўплаб ходимлари чет эл муассасаларини битириб, чет тилларини билишларига қарамай, Ўзбекистондаги тадбиркорликнинг реал шароитларида амалий тажрибага эга эмаслар;

- Иқтисодиётни "қўлда бошқариш" нинг устунлиги, ишлаб чиқариш ва истеъмолнинг тармоқ баланслари бўйича жиддий иш ўрнига, турли хил қарорларнинг иқтисодиёт ва ҳаётнинг барча соҳаларига таъсирини моделлаштириш воситаларининг етишмаслиги. Жуда қисқа вақт ичида турли хил иқтисодий ва ижтимоий муаммолар пайдо бўлганда, уларни зудлик билан ҳал қилиш, муҳим ресурсларни сафарбар қилиш, мавжуд, ўрнатилган иш механизмларини бузишилишига олиб келмоқда.

Иқтисодиётимизнинг иккинчи жиддий муаммоси - тадбиркорлик субъектларининг камида 25 фоизи кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришни амалга ошириш учун етарли миқдордаги капитал тўпланмаган. Мавжуд йирик капитал ҳукуматга қарашли тузилмалар билан боғлиқ бўлиб, хусусий капитал асосан жуда нозик (тарқоқ) тақсимланган ва етарли даражада концентрацияланмаган. Сиз бизнес моделини тубдан янгилаш ёки техник қайта жиҳозлаш учун камида 100 минг доллар капитални сафарбар қила оладиган маҳаллий инвесторни камдан-кам учратасиз.

Кредит ресурсларидан арзон нархларда фойдаланиш имконияти йўқлиги ва фаолиятнинг рентабеллиги етарли эмаслиги сабабли кўплаб хусусий корхоналар ускуналар ва технологияларни сотиб олиш, рақамли технологиялар ютуқларини қўллаш ва ҳоказолар имкониятидан маҳрум.

Хусусийлаштириш ёки кўп миллионли давлат мулкани оператив бошқариш бўйича турли тендерларда ғолиб бўлган "инвесторлар" "хорижий инвесторлар" вакили бўлган компанияларнинг якуний бенефициари эканлигини ишонч билан тахмин қилишимиз мумкин.

Иқтисодиётимизнинг учинчи муҳим

муаммоси - қишлоқ хўжалиги ва саноат ривожланишидаги номутаносибликнинг кучайиши. Ҳукумат томонидан қишлоқ хўжалиги фаолиятида пахта ва ғалла монополиясини бартараф этиш бўйича қатъий чоралар кўрилмоқда. Сўнгги йилларда сабзавот, мева ва турли хил техник экинларни етиштириш учун минглаб гектар ерлар айлантирилди. Аммо Ўзбекистон саноати Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлашга ва қайта ишланган маҳсулотларни экспорт қилишга қай даражада эътибор қаратмоқда?

Ҳар йили қишлоқ хўжалигининг энг асосий маҳсулотлари: гўшт, картошка, пиёз, сабзи ва бошқалар йўқлиги сабабли вақтинчалик ажитажни кўзатамиз. Кўпгина фермер хўжаликлари қисқа муддатли беқарор экспортга йўналтирилган бўлиб, улар турли хил харидорларга бир хил ҳосилни ваъда қилиб, ўз даромадларини суғурталашга мажбур. Ушбу беқарорлик туфайли фермерларнинг даромадлари йилдан-йилга пасайиб бормоқда ва уларнинг аксарияти ўз ишларидан воз кечишга мажбур бўлиб, ёшларни ўзлари ҳам хуш кўрмайдиган шаҳарларга жўнатишмоқда.

**Иқтисодиётимизнинг
тўртинчи муҳим муаммоси -**
камбағаллик кўлами кенглиги.

Ҳозирда 5-6 млн киши
камбағалликларни ташкил этади.
Камбағалликнинг чуқурлашуви
давлат бюджети маблағларини
тобора кўпроқ сарфланишига
мажбур қилади.

**Бешинчи муаммо - улкан давлат
секторининг мавжудлиги.**

Замонавий
корпоратив бошқарув тамойиллари ва
шаффофлиги сингдирилмаган ва давлат
активларини очиқ ўғирлаш мавжуд бўлган
иқтисодиёт. Шу билан бирга, хусусий
тузилмалар ўзлари учун фаолиятнинг
айрим турларини монополлаштирди,
ҳокимиятга ўз таъсиридан фойдаланди.

Бундай вазиятдан фойда олувчилар
ўзгаришлардан манфаатдор эмас, аксинча,
улар бундай вазиятни сақлаб қолишни
хоҳлашади.

Ечимлари:

1. Иқтисодиётни тиклаш учун иқтисодий ўсишни миқдорий рағбатлантириш, бозорга катта давлат капиталини киритиш мақсадида мамлакатдаги иқтисодий сиёсатнинг барча тармоқлари сиёсатини қайта йўналтиришга эришиш. "инфляцияни жиловлаш", фоиз ставкаларига амистия жорий этиш, "пул таклифини тартибга солиш".
2. Компаниянинг ўз маблағлари ёки таъсисчилари ҳисобидан инвестиция киритишда солиқ имтиёзлари бериш, кредит ставкаларини, шу жумладан лизинг кредит ставкаларини пасайтириш, кредитлар учун гаровни соддалаштириш орқали кичик ва ўрта бизнеснинг инвестицион фаоллигини рағбатлантиришнинг мақсадли сиёсатини ишлаб чиқиш.

3. Янги иш ўринларини яратадиган (шу жумладан уйда) ёки янги ишчиларни жалб қиладиган корхоналар учун, минтақалар бўйича мамлакат учун кенг қамровли иш билан таъминлаш дастурини ишлаб чиқиш. Иш ҳақини минимуми миқдорини ошириш, яъни МДҲ мамлакатлари ичида рақобат қила оладиган миқдорга етказиш.
4. Ҳақиқий хорижий институционал инвесторлар бўлмаган тақдирда давлат мулкни хусусийлаштиришни, активларни номи "хорижий" бўлган инвесторлар бошқарувига ўтказишни тийиб туриш.

5. Шаҳарларнинг ўсишини, яқин атрофдаги аҳоли пунктларини ўзлаштиришни, шунингдек шаҳар ва қишлоқларнинг ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш қувватларини синхронлаштиришни, урбанизация жараёнлари туфайли ишчи кучларининг меҳнат оқимларини таъминлашни ҳисобга олган ҳолда шаҳар ривожланишининг бош режаларини кўриб чиқиш. Қишлоқ аҳоли пунктларини сув таъминоти, газ таъминоти, электр энергияси, шунингдек алоқа ва алоқа тизимларини (Internet) ривожлантиришни ҳисобга олган ҳолда инфратузилмани таъминлаш стандартларига мувофиқ ривожлантириш зарур.

6. Мамлакатимиз Президенти таъкидлаганидек, мамлакатимиздаги алоҳида тузилмалар учун монопол позицияни таъминлайдиган иқтисодий шароитларни йўқ қилиш ва монополизмнинг барча кўринишларига қарши курашиш зарур.

7. Коррупция қарши курашни умуммиллий масалага айлантириш, даромадлар декларация қилинишини зудлик билан жорий этиш, мулкӣ амнистияни қўллаш.

2-MODUL BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MA’LUMOTLAR

Бозор иқтисодиётининг муҳим ва умумий белгилари қуйидагилардан иборат:

- турли шакллардаги мулкчиликнинг мавжуд бўлиши ва унда хусусий мулкчиликнинг устун туриши;
- тадбиркорлик ва танлов эркинлиги;
- рақобат курашнинг мавжудлиги;
- давлатнинг иқтисодиётга чекланган ҳолда аралашуви;
- корхона ва фирмаларнинг ички ва ташқи шарт-шароитлар ўзгаришларига мослашувчанлиги.

Бозор иқтисодиётининг тарихан таркиб топган икки турини ажратиш зарур. Биринчиси **классик ёки соф бозор иқтисодиёти** деб аталиб, узоқ вақт давомида шаклланиб, ғарбдаги ривожланган мамлакатларда XIX асрнинг охириларигача давом этиб келди. Унинг асосий белгилари: а) хусусий мулкчиликка асосланган ҳолда иқтисодий фаолият юритиш; б) капитал ва ишлаб чиқаришнинг корхона миқёсида умумлашганлиги; в) тадбиркорлар, ишчилар, ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчиларнинг шахсий эркинлиги; г) тадбиркорларнинг юқори фойда олиш учун курашлари; д) иқтисодиётнинг талаб ва таклиф, эркин бозор нархи ва рақобат курашлари асосида тартибланиши; е) аҳолининг ижтимоий ҳимоя қилинмаслиги, ишсизликнинг ва аҳоли ижтимоий табақалашувининг кучайиши.

Бозор иқтисодиётининг иккинчи кўриниши **ҳозирги замон ривожланган бозор иқтисодиёти** деб аталиб, XIX асрнинг охири ва XX аср бошларидан буён амал қилади. Унинг асосий белгилари:

- а) мулкчиликнинг турли шакллариغا яъни, хусусий, давлат, жамоа, аралаш ва бошқа мулк шакллариغا асосланиб иқтисодий ва тадбиркорлик фаолияти юритилиши;
- б) капитал ва ишлаб чиқаришнинг юқори даражада умумлашганлиги, мулкнинг бир қисми йирик монополиялар ва давлат қўлида тўпланиб, миллий ва халқаро миқёсда умумлашганлиги;
- в) иқтисодиётни тартибга солишда давлатнинг фаол иштироки. Бунда давлат фан-техника тараққиёти ва бошқа омилларни ҳисобга олиб, турли иқтисодий тадбирларни, ривожланиш истиқболлини аниқлаш, турли соҳалар ва тармоқлар ўртасидаги нисбатларни тартибга солиш чора-тадбирларини белгилаш вазифаларини бажаради;
- г) хўжаликларни юритишда режа усулидан фойдаланишнинг кучайиши (бизнес режаси, маркетинг тизими орқали бошқариш);
- д) ижтимоий ҳимоянинг кучайиши. Бунда давлатга, жамоалар ва хусусий кишиларга тегишли турли хил ижтимоий таъминот ва ижтимоий суғурта фондларининг вужудга келиши.

Бозор иқтисодиётининг асосий зиддияти — **рақобатнинг кучсизланишига йўл қўйиш ва уни рағбатлантириш**. Рақобат кучсизланишининг иккита асосий манбаи мавжуд:

1) бозор иқтисодиётидаги эркин муҳитда тадбиркорлар фойда кетидан қувиб ва ўз иқтисодий мавқеини яхшилашга интилиб, рақобатнинг чекланган йўлидан озод бўлишга ҳаракат қиладилар. Фирмаларнинг қўшилиб кетиши, компанияларнинг хуфёна келишуви, шафқатсиз рақобат — буларнинг ҳаммаси рақобатнинг кучсизланиши ва унинг тартибга солувчилик таъсирининг пасайиб боришига олиб келади;

2) бозор тизими рағбатлантирадиган техника тараққиёти ҳам рақобатнинг заифлашишига олиб келади. Энг янги технология, одатда: а) жуда катта миқдордаги реал капиталдан фойдаланишни; б) йирик бозорлар бўлишини; в) комплексли, марказлашган ва қатъиян бир бутун бўлиб бирлашган бозорнинг таркиб топиши; г) бой ва ишончли хом-ашё манбаларини талаб қилади. Бундай технология бозорнинг ҳажмига нисбатан кенг миқёсдаги ҳисобланувчи ишлаб чиқарувчилар мавжуд бўлиши зарурлигини билдиради.

Бозор иқтисодиётнинг навбатдаги зиддияти — **жамият аъзолари даромадларидаги тенгсизликнинг кучайиб бориши ва аҳолининг табақаланишидир**. Бундай иқтисодиёт ҳар қандай юксак даражада ривожланмасин даромадлар тенгсизлигини бартараф қила олмайди, фақат уни маълум даражада юмшатиш мумкин.


Бозор механизми - бу бозор тизимига хос бўлган, бир-бирини тақозо этувчи ва биргаликда амал қилувчи иқтисодий воситалардир.

Булар жумласига **талаб, таклиф**, товарлар **нархлари, бозор конъюнктураси, пул, фойда, зарар, фоиз**, иқтисодий **мажбурият, рақобат** кабилар киради.

Хар бир иқтисодий тизимнинг ўзига хос иқтисодий механизми бўлади. Бозор иқтисодиёти бозор механизмига таянади.

Бозор тизимида манфаатлар ўзаро узвий боғланади.

Бунинг инглиз иқтисодчиси **Адам Смит** куйидагича баён этади: «Хеч бир индивид-ижтимоий манфаатни кўзламайди, у ўзи ижтимоий манфаатни кўзламайди, у ўзи ижтимоий манфаатларга нақадар риоя этишини билмайди, у ўзининг манфаатларини кўзлайди. Шу ва бошқа бошқа ҳолларда кўринмас қўл уни ҳаракатга келтиради, бу қўл охир-оқибатда унинг сайи-ҳаракати кўзланмаган натижага олиб келади». А. Смит айтган кўринмас қўл бу бозор механизмидирки, у ҳамма нарсани жой жойига қўяди, бир киши манфаатини бошқалар манфаати билан боғлайди. (А. Смит «Исследование о природе и причинах богатства народов». М. 1962 стр. 331.)



Бозор механизми қуйидагилар асосида амал қилади:

1. **Талаб ва таклиф** қонуни.
2. **Рақобат** ва рақобат қонуни.
3. Бизнес ва тадбиркорлик **риски**.
4. Рентабеллик ва **фойда**, унинг ўсиш омиллари.
5. Бозор **нархининг** шаклланиш механизми.
6. **Пул муомиласи** қонуни ва амал қилиш механизми.
7. **Молия бозори** ва унинг амал қилиш механизми.
8. **Ташқи** иқтисодий алоқалар, **таққосий афзаллик** қонуни.

Бозордаги мувозанат ҳолатида харидорлар керакли товарни бозордан топа биладилар ва келишилган нархда оладилар. **Сотувчилар**, яъни ишлаб чиқарувчилар ўз товарларини вақтида сотиб, харажатларини қоплаб, **фойда** ҳам кўрадилар. Агар харидорлар товарларни ўз вақтида **харид** этиб эҳтиёжларини қондирсалар, ишлаб чиқарувчилар бу билан фойда топишдек манфаатларини юзага чиқарадилар.

Хар иккала томон манфаатларини юзага чиқара олганда бозор **лаёқатли** ҳисобланади. **Лаёқатли бозор** эҳтиёжни қондиришга қодир бўлади.

Лаёқатсиз бозор – бу механизми яхши иш бермай қолган бозор бўлади. Бу бозор **дефицитли** бозорни ёки **товар ортиқча** бўлган бозорни билдиради.

Бозор механизми **нимани, қанча ва қандай усулда** ишлаб чиқариш зарур деган муаммони ҳал қилишнинг энг самарали йўлларини белгилаб беради. Иқтисодиётнинг ҳар қандай иштирокчиси у ким бўлишидан қатий назар бозорга мослашиши талаб қилинади. Мослашув бу бозор сигналини қабул қилиш ва унга жавобан ҳаракат қилиш зарурлигини англатади.

Бозордан келадиган иқтисодий **сигнал** вазифасини **нарх** наво ўтайди.

Нарх сигнали бозордаги талаб-таклиф ҳақидаги информация бўлиб, корхоналар ва хонадонлардан уларга мослашиб бориш зарурлигини билдиради. Бу эркин бозорда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Бу ердаги **нарх талаб-таклиф нисбатига** қараб шаклланади.

Фирманинг **фойдаси** унинг товарлари нархига тўғри мутаносибликда, харажатларга тескари мутаносибликда бўлади. Ресурслар қимматлашса, харажат кўпаяди, шунга мос холда фойда қисқаради.

Нефт нархини ошиши муносабати билан бензинни қимматлашуви, бензинни тежовчи автодвигателларни яратилишига олиб келди. Хар 100 км хисобидан 10-12 литр ёнилғи сарфловчи двигателлар ўрнига 6-8 литр, хатто 3-4 литр бензин ёқувчи двигателларни яратилди. Ҳозирги даврда автомобиллар учун **электродвигателлар** кенг тарқалмоқда.

Иш кучи ресурс сифатида қимматлашса, уни арзони билан алмаштирилади. Масалан, мигрантлар (гастробайдерлар)нинг арзон иш кучи ишлаб чиқаришга жалб этилади.

Бозор механизми тақозо қилувчи, чорловчи, ундовчи самарани бажаради. Масалан, уй-жой қурилишига бўлган талаб бошқа турдош саҳаларни: **қурилиш материаллари** ишлаб чиқариш, **газ, сув, электр, йул** ва бошқа тармоқларнинг кенгайишига ва ривожига **туртки** беради. Миллионлаб **иш ўринлари** вужудга келади.

Бозор механизми бу фақат рағбатлантириш механизми эмас, балки ресурсларни оқилона тақсимлаш механизми ҳам бўлади. Бозор иқтисодиёти ҳам чекланган ресурсларга дуч келади, шу сабабли уларни муқобил ишлатиш керак. Қайси йўналишда ресурсларни ишлатиш **талаб-эҳтиёжни** тўлароқ қондирса, шу **йўналиш** танлаб олинади.

Бозор механизми бозорбоп товарларни ишлаб чиқарилишини таъминлайди. Қаерда бозор механизми яхши ишласа, шу ерда меҳнат унумдорлиги юқори бўлади.

Бозор механизми меҳнат унумдорлигини оширувчи омилларга куч бериб, уларнинг иқтисодиётдаги ролини оширади.

Бозорга мослаша билиш тадбиркорлик қобилиятига боғлиқ бўлади. Бунинг уддасидан чиққан фирмалар ривожланиб кетса, бу иш қўлидан келмаган фирмалар ёпилиб кетади, улар ўрнига янгилари келади.

Бозор механизми уддабуронларни танланишига ва иқтисодиётни улар қўлига ўтишини билдиради.

Пул бозор механизмида қўлланиладиган ўта муҳим иқтисодий восита ҳисобланади. Пул энг ликвидли, яъни чекланмаган тарзда ва хоҳлаган пайтда хоҳлаган товарга айрибошланиши мумкин бўлган иқтисодий восита бўлади.

Бозор муносабати, пул муносабати, барча иқтисодий алоқалар унинг ёрдамида ўрнатилади. Пули қўп киши иқтисодий ҳокимият соҳибига айланади.

Пул ҳамма нарсани ҳал қилмайди, лекин пулга қўп нарсани сотиб олиш мумкин. Иқтисодда **“Пул фетишизми”** деган тушунча бор. Бу пулни илоҳийлаштириш, пулга сиғиниш, унга муккасидан кетиш, ҳар бир нарсани пул билан ўлчаш, ҳатто пул ҳамма муаммони ҳал қилади деган қарашлар бор.

Пул бойлик тимсоли ва иқтисодий ҳокимият воситаси бўлганидан кишилар тану-жони билан пул топишга, уни қўпайтиришга интилади. Бу интилиш эса иқтисодиётни ҳаракатга келтиради.

Бозор механизми иқтисодиётга маъмурий йўл билан аралашиб, унинг устидан назорат ўрнатиш билан сиғиша олмайди. Шу сабабли **давлат** бозор механизмини ишлаб туришига тўсқинлик қилмай, унга йўл очиб бериши талаб қилинади. Бозор механизми худди соат механизми каби ўзи ишлаб туриши керак.

Бозор механизми объектив иқтисодий қонунларнинг ҳосиласи. Бироқ кишилар бу механизмдан оқилона фойдаланишга қодир бўладилар, ўз хатти-ҳаракатларини шу механизм талабига мос ҳолда уюштирадилар. Қаерда кишилар бозор механизмдан моҳирона фойдалана олсалар, шу ерда иқтисодий тараққиёт тезлашади, халқ фаровон яшайди.

3-MODUL BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MA’LUMOTLAR

Иқтисодий трансформация жараёнларининг ўзига хос белгиси бўлиб унинг беқарорлиги ҳисобланади. Бу иқтисодиётда эски ва янги ҳолатларнинг унсурлари аралаш ҳолда амал қилади. Иқтисодий тизимлар трансформацияси мавжуд тизимдаги беқарорликни янада кучайтиришга қаратилган бўлиб, пировардида мазкур тизим ўзининг ўрнини янги иқтисодий тизимга секин-аста бўшатиб беради.

Иқтисодий трансформация – бу иқтисодий муносабатлар ва замонавий қарашлар таъсирида янгича тизимга ўтишни англатади.

Иқтисодий трансформация:

Биринчидан, бу илгари ҳукмрон бўлган тизимлар шарт-шароитига хос бўлмаган, ўз мазмунига кўра янги шаклларнинг пайдо бўлишидир.

Иккинчидан, янги муносабатларнинг пайдо бўлиши эски шакллар мазмунининг ўзгариши йўли орқали амалга ошиши мумкин.

Учинчидан, пировардида янги шакллар ўзининг ҳукмронлигини ўрнатиб, ўз умрини ўтаб бўлган эски шаклларни сиқиб чиқариши лозим.

Ўзбекистон Республикасининг ҳозирги трансформациялашув даври иқтисодиёти қуйидагилар билан тавсифланади:

- биринчидан, у ислохотларга асосланган-эволюцион турдаги янги иқтисодиёти бўлиб, унинг амал қилишида илмий жиҳатдан асосланган ва мақсадга йўналтирилган дастурлар муҳим роль ўйнайди;

- иккинчидан, мазкур мақсадга йўналтирилганлик мунтазам равишда ривожланиб ҳамда ҳаётга татбиқ этилиб боради.

Иқтисодий тизимлар трансформациялашуви жараёнлари муайян таркибий тузилмага эга бўлишини тақозо этади.

Биринчидан, ҳар қандай иқтисодий тизимлар трансформациялашуви жараёнларининг умумий белгилари.

Иккинчидан, белгиларнинг тизим кўринишидаги ифодаси, у орқали белгилар, шу жумладан трансформация шакллари ички ўзаро мувофиқлигининг очиқ берилиши.

Учинчидан, трансформациялашувдаври иқтисодиётининг амал қилиш қонуниятлари, яъни янги ва эскининг ўзаро алоқаси тавсифи, бир тизимдан бошқа бирига янгининг яқунланиш механизми.

Тўртинчидан, хусусийлик, умумийлик ва алоҳидалик шаклларининг тавсифи.

Трансформация жараёнларининг тавсифига кўра турлари:

- Ислохотларга асосланган - эволюцион иқтисодий тизимларнинг амал қилиши ва ривожланишини белгилаб берувчи омиллар таъсири остида рўй берувчи жараёнлар

- Табiiй-иқлимий омиллар

- Ижтимоий маданий омиллар.

- Ишлаб чиқариш-иқтисодий омиллар

- Табiiй-эволюцион: жамиятни ислоҳ қилиш дастурлари асосида иқтисодий жараёнларни тартибга солиш

Миллий инновацион тизим – бу жамият томонидан истеъмол қилинадиган янги технологиялар, маҳсулотлар ва хизматларнинг яратилишидаги янги билимларни ишлаб чиқишда, сақлашда, тарқатишда ва янги технологияларга айланишида қатнашадиган иқтисодий субъектлар ва ижтимоий институтларнинг (кадриятлар, меъёрлар, ҳуқуқларнинг) мураккаб тизими ҳисобланади .

Миллий инновацион тизимлар (МИТ) давлат, хусусий ва ижтимоий-иқтисодий тузилмалар ҳамда механизмлар йиғиндиси акс топадиган ва уларнинг янги билимларни ва технологияларни яратиш, ўзлаштириш, кенг ёйишга қаратилган фаолиятлари амалга ошириладиган доирадаги ўзаро алоқаларидир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2017 йил 29 ноябрда «Ўзбекистон
Республикаси Инновацион ривожланиш
вазирлигини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ
3416-сон қарори қабул қилингандан сўнг
мамлакатимизда инновацион фаолиятга
эътибор янада кучайди. Бу билан Ўзбекистонда
миллий инновацион тизимнинг янгича
таркибини шакллантирига асос солинди.
Эндиликда фан ва инновациялар бўйича барча
жараёнлар ушбу вазирлик томонидан амалга
оширилмоқда ва мувофиқлаштирилмоқда.

Инновацион тизимнинг ривожланиши
– товарлар (хизматлар) ишлаб чиқаришда
янги илғор технологияларга урғу бериш,
юқори технологиялар асосида
маҳсулотлар ишлаб чиқариш, микро ва
макроиқтисодий жараёнларда илғор
ташкилий ва бошқарув фаолиятини
интеллектуалаштириш, иқтисодиётни
софлаштириш ва сервислаштириш билан
боғлиқ жараёнларда иштирок этувчи
субъектларнинг ўзаро алоқада бўлиши
билан тавсифланади.

Инновацион ривожланиш
концепцияси Иқтисодий
ҳамкорлик ва ривожланиш
ташкилоти (ОЭСР), Жаҳон банки
ва бошқа қатор халқаро
ташкilotларнинг ташаббусига
кўра кенг ривожланмоқда.

Инновацион ривожланишнинг
методологик базасининг
мажбурий элементи сифатида
илмталаб ишлаб чиқаришнинг
ривожланиши даражаси ва
иқтисодиётга интеллектуал
ресурсларни жалб этиш
даражасини қайд этиш мумкин.


Креативлик (ижодкорлик) тушунчаси

- ✓ Креативлик – бу нарсаларнинг аввал маълум бўлмаган тартибига янгилик кирита олиш қобилияти.
- ✓ Креативлик умуман янги тизимларни ишлаб чиқишда, маълум ахборотнинг янги комбинациясида, мутлақо янги вазиятларда илгари маълум бўлган ёндашувларнинг қўлланилишида кўринади.
- ✓ Креатив ҳаракат аввалдан ўйланган ва мақсадга эга бўлиши керак.


Ижодкор инсон портрети

Ижодкор инсонлар уларни ўраб турган атроф-мухитни ўрганадилар, бир хил нарса ҳодисаларни турлича кўрадилар, танқидий фикрлайдилар, таваккал қилишдан, омадсизликка учрашларидан кўркмайдилар, муаммонинг бир неча ечимларини топишга ҳаракат қиладилар. Улар ижод билан машғул бўлиб, инноваторликка имконият излайдилар.


Dr. Larry G. Richards
Everyday Creativity: Principles for Innovative Design.



Муаммонинг инновацион ечими боскичлари



Креатив жараённинг тўрт босқичи



Креатив ва мантикий фикрлаш

Креатив		Мантикий
Саволларни излаш	↔	Жавобларни излаш
Турфа хиллик	↔	Бир хиллик
Турли қарашларни ўрганади	↔	Тўғри позицияда туради
Реструктуризацияга қаратилган	↔	Қўриниб турган структурани қўллайди
Гоя ёрдам бера оладиган йўллари излайди	↔	Гоя амалга ошмаганда сўзлайди
Дискрет «сакраш»ларни ёқлайди	↔	Мантикий қадамларни қўллайди
Кутилмаган ҳодисаларга тайёр	↔	Барқарорликка эътибор қилиш
Очиқлик	↔	Ёпиқлик

Креативликнинг алоҳида белгилари

Концептуал тайёрлик – кўп гояларни ўйлаб топа олиш қобилияти

Психик эгилувчанлик - ностандарт фикрлай олиш лаёқати

Оригиналик - муаммоларнинг кутилмаган ечимини топа олиш қобилияти

Ечимларнинг асослилиги – ҳолатий таҳлилига тайёрлик

Ихтиёрийлик – гояни пайсалга солмай амалга ошириш истаги

Ассертивлик – авторитетларга қарши чиқишга тайёрлик

Толерантлик – бошқа инсонларнинг гояларига нисбатан чидамлилик, тоқатлилик

Креативликнинг характеристикаси

- *Абстракциялаш* – мавҳум ғояларнинг моҳиятини англаш.
- *Мувофиқлаштириш* – ўзаро алоқадор бўлмаган нарсаларнинг алоқадорлигини кўра олиш қобилияти.
- *Истиқболлилик* – ҳодисаларнинг истиқболини баҳолай олиш қобилияти.
- *Қизиқувчанлик* – мураккаб жараёнларни ўзгартириш истаги.
- *Журъатлилик* – ўз креатив ечимларини ўзгалар томонидан танқид қилинишидан қўрқмаслик.
- *Парадоксаллик* – ўзаро қарама қарши ҳолатлар билан ишлаш.
- *Комплекслик* – комплекс ёндаша олиш қобилияти.
- *Қатъиятлилик* – мунтазам ўз-ўзини ривожлантириш қобилияти

Креатив бўлиш учун...

1. Очiq, позитив, янгиликни ижобий қабул қилувчи, болаларча қизиқувчан бўлиш керак.
2. Креативликни рағбатлантирувчи методларини қўллаш лозим: ақлий ҳужум, ишбоп ўйин ва бошқалар.
3. Буюк одамлар креативлиги ривожининг намуналари ва усулларини ўрганиш лозим.
4. Ўз-ўзини фаол бўлишига эришиш зарур.
5. Амалиёт, амалиёт, амалиёт, ҳаттоки бу сизни ўлдирса ҳам.

Иновацияларни ҳаракатлантириш йўллари



Миллий иқтисодиётни инновацион ривожлантириш йўлига ўтказишда қуйидаги **муаммолар** мавжуд:

- инновацион иқтисодиётга ўтишда зарур бўлган маблағларнинг мамлакат ҳудудида нотекис тақсимланганлиги ва инфратузилманинг тегишли даражада яратилмаганлиги;
- маҳаллий бюджет маблағларидан инновацион ишланмаларга деярли ажратилмаслиги;
 - инновацион тизимнинг ўта марказлашлаштирилганлиги;
- инновацион лойиҳаларни экспертизадан ўтказадиган тажрибали мутахассисларнинг етишмаслиги;
- инновацион лойиҳаларни тақдим этишда айрим коррупцион ҳолатларнинг учраши;

Миллий иктисодиётни инновацион ривожлантириш йўлига ўтказишда куйидаги **муаммолар** мавжуд:

- мамлакатда фан-техника тараққиёти билан ишлаб чиқариш алоқадорлигининг заифлиги, яратилган ихтиролар, янгиликлар, кашфиётларнинг ишлаб чиқариш амалиётига татбиқ этишнинг мукамал механизмнинг йўқлиги;
- республикада инновацион ривожлантиришни таъминлашнинг стратегик режаси, дастурининг тўлиқ яратилмаганлиги ва бу жараёнда истиқболли режалаштириш, прогнозлаш дастакларидан самарали фойдаланилмаётганлиги;
- иктисодиётга жалб этилаётган инвестициялардан фойдаланиш самарадорлиги мезонларининг ишлаб чиқилмаганлиги ва инвестицияларнинг моддий ишлаб чиқариш соҳасига нисбатан камроқ киритилмаётганлиги.

Миллий инновацион тизимнинг субъектлари

1. Давлат.
2. Инновацион ривожланиш вазирлиги.
3. Олий таълим муассасалари.
4. Илмий тадқиқот институтлари ва марказлари.
5. Илм-фан билан алоқада бўлган тармоқ ва соҳа ташкилотлари.
6. Хусусий сектор.
7. Халқаро донор ташкилотлар.

Бу тизим кичик тизимлардан ташкил топган.


Хусусан, илмий тадқиқотларни амалга оширувчи ташкилий тузилмалар жумласига куйидагиларни киритиш мумкин:

- илмий-тадқиқот билан шуғулланувчи ташкилий бўлинмалар;
- илмий-тадқиқот билан шуғулланувчи секторлар;
 - тармоқлар миқёсида ёки марказлаштирилган тарзда алоҳида муаммолар устида иш олиб борадиган илмий-тадқиқот лабораториялари;
 - илмий-технологик парклар;
 - илмий ва илмий-услубий марказлар;
- илмий изланишларни амалга оширувчи бошқа хилдаги ташкилий бўлинмалар.

Қуйидагилар алоҳида кичик тизим бўлган инновацион инфратузилманинг асосий элементларини ташкил этади:

бизнес-инновацион комплекслар;
телекоммуникация комплекслари;
бизнес-инкубаторлар;
инновацион-технологик марказлар;
консалтинг фирмалари;
алоҳида молиявий ва ҳоказо
тузилмалар.





Инновациялар қуйидаги турларга ажралади:

1. Технологик.
2. Ижтимоий.
3. Маҳсулот ва маҳсулдорлик.
4. Ташкилий.
5. Маркетингли

Технологик – мавжуд маҳсулотнинг янги ёки самарали ишлаб чиқаришининг такомиллашган технологик жараёнини яратиш

Ижтимоий – инсоннинг яшаш тарзини янгича қарашлар диорасида ўзгартириш (таълим олиш, бошқарув тизими, маърифатпарварлик, хизмат кўсатиш жараёнларни ташкил этиш ва х.к.)

Маҳсулот ва маҳсулдорлик – маҳсулотларни янги ва фойдалилик (нафлилик) хоссаларини яратиш

Ташкилий – бошқарув тизимини такомиллаштириш

Маркетингли – янги ёки
яхшиланган маркетинг
усулларини жорий этиш (дизайн
ва қадоқлашдаги жиддий
ўзгаришлар, сотишнинг
замонавий шаклларини тадбиқ
этиш, янгича нарх стратегиясини
қўллаш ва х.к.).

Бугунги шароитда инновацион,
айнан билимларга асосланган,
малакали ишчи кучини ўзида
мужассам этган юқори фан
сиғимига эга бўлган
технологик иқтисодиёт
рақобатбардош бўлади.

Инновацион тараққиётда
инновацияларнинг чизикли модели
бу ишлаб чиқилган фундаментал
илмий ғоялар амалий тадқиқотлар
билан боғлиқда бўлишини англатади.
Айни пайтда инновацияларнинг кўп
сонли манбалари моделида
инновациялар инновацион тизимнинг
исталган қисмида юзага келиши
мумкин.

4-MODUL BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MA'LUMOTLAR

Турли мамлакатлар миллий иқтисодиётини
ўзаро қўшилиб ягона мамлакатлараро
хўжалик тизимини ҳосил этиши иқтисодий
интеграция деб юритилади.
Интеграция иқтисодий яқинлашувдан
бошланиб иқтисодий бирлашув билан
яқунланади. Бунинг натижасида турли
иқтисодий иттифоклар пайдо бўлади.
Интеграция турли мамлакатлар иқтисодий
чегараларини бир-бири учун очилиб ягона
иқтисодий макон ҳосил бўлишини билдиради.

Интеграция бир катор белгиларга эга:

1. Ягона умумий бозорни мавжудлиги. Бир мамлакат миллий бозори бошқа мамлакат товар ва хизматлари учун очик бўлади, божхона поштиналари бекор қилинади ёки минимал даражага келтирилади, экспорт ва импорт чекланишлари олиб ташланади. Интеграцион иттифоққа кирмаган учинчи мамлакатлар товарлари импортига нисбатан ягона келишилган божхона поштиналари қўйилади.
2. Ягона иқтисодий макон доирасида иқтисодий ресурсларни ҳеч бир чекловларсиз эркин ҳаракатини юз бериши. Бунда ягона миграция қондалари киритилиб меҳнат ресурсларини эркин қўчиб юриши ва мамлакатлараро тақсимланиши таъминланади. Меҳнат миграцияси учун чегаралар очик бўлади, умуман кишиларни бир мамлакатдан бошқасига бориш қондалари ғоят соддаштирилади. Мамлакатлараро капитал чикариш ва капитал киритишдан ҳам енгилликлар берилди, ўзаро капитални тақсимланишига афзалликлар берилди.
3. Турли давлатлар ички ва ташқи иқтисодий сўбасининг мувофиқлашуви. Турли мамлакатларда бир хил солиқлар қўлланилади. Ташқарига чикарилган товарларга 2 марта (мамлакат ичида ва ташқарисида) солиқ қўйишга йўл берилмайди. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари нархларини тартибланда бир хил қонда қўлланилади, бошқалар товарлари киртилганда ягона божхона поштиналари олиниди.
4. Турли миллий пуллар ўринга ягона пулни киритилиши, бу пул интеграцияланган мамлакатлар учун умумий тўлов воситаси ҳисобланади, ҳамма мамлакатларда барча тўловларга қабул қилинади. Ягона пул бўлганидан турли мамлакатлар ўртасида валюта алмаштиришга эҳтиёж қолмайди.

Глобализация хар бир мамлакат миллий иқтисодиётини жаҳон иқтисодиётининг бир қисмига айланиб, ундаги ўзгаришларнинг бевосита таъсирига берилишидир.

Глобализация моҳиятан иқтисодиётни умумбашарий тус олишини, миллий иқтисодиётлар ривожланишининг ташқи иқтисодий алоқаларга боғлиқ бўлиб қолиши демакдир.

Глобализация оқибатлари зиддий ҳисобланади. Унинг ижобийлиги таракқиётни тезлатиши бўлса, салбийлиги бунга ғоят нотекис боришидир. Дунё микёсидаги турмуш даражаси ўсган ҳолда қолоқ мамлакатларда аҳолининг катта қисми камбағалликда яшайди. Иқтисоди заиф мамлакатларда ишсизлик кучли бўлиб, кишилар иш ахтариб ўз юртини ва оиласини ташлаб кетишга мажбур бўлади. Келгинди ишчилар қўпаяди, улар амалда ҳуқуқсиз бўлиб, яширин ҳаёт кечирази. Бироқ глобализация муқаррар бўлганидан унинг талаблари билан ҳисоблашиб, уларга мослашиб яшаш талаб қилинади.

Очиқ иқтисодиёт – бу ташқи иқтисодий алоқаларга киришган, уларнинг афзаллигига таяниб ривожланиб борувчи иқтисодиётдир.

Ёпиқ иқтисодиёт шундай иқтисодиётки у ўз қобиғига ўралган бўлиб, ўзидан ташқи дунё билан алоқага киришмайди, ўзини ўзи таъминлаш қондасига асосланади, ўз кучига ўзи таянади.

Халқаро савдо-сотик турли мамлакатлар ўртасидаги товар айирбош**таққосий афзаллик қондасига** лашдирки, бу асосланади.

Экспорт ва импорт нархининг нисбатига бир катор омиллар таъсир этади:

- Муайян товарларга ташқи бозордаги талаб ва шу товларни таклиф этилиши.
- Товарларга мамлакат ичкарасидаги ва ташқарисидаги нархларнинг қандайлиги.
- Товарларни ташқи бозорларга етказишдаги йўл кира харажатлари.
 - Миллий валюта курсидаги ўзгаришлар.
 - Давлатнинг ташқи савдога оид сиёсатининг қандайлиги.



Мулоҳаза учун!

УЧ ТОИФА ИНСОНЛАР БОР:

-**БИРИНЧИ** ТОИФАДАГИЛАР ИНСОНЛАР
ҲАҚИДА ГАПИРАДИЛАР;

- ИККИНЧИ	ТОИФА	ИНСОНЛАР
ВОКЕАЛАР	ҲАҚИДА	БАҲС
ЮРИТАДИЛАР;		

-**УЧИНЧИ ТОИФА** ИНСОНЛАР БОРКИ,
УЛАР КЕЛАЖАК ВА ЖА-РАЁНЛАР
ҲАҚИДА КАЙҒУРАДИЛАР. БУНДАЙ
ИНСОНЛАР БУЮК ИНСОНЛАРДИР.

«Ўзбекистон — 2030» стратегиясида қуйидаги асосий ғоялар ўз ифодасини топган:

- барқарор иқтисодий ўсиш орқали **ўртадан юқори даромадли мамлакатлар қаторига қўшилиш;**
- халқ эҳтиёжлари ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган **таълим, тиббиёт ва ижтимоий ҳимоя тизимини яратиш;**
- аҳоли учун **қулай экологик шароитлар** яратиш;
халққа хизмат қилувчи **адолатли ва замонавий давлат қуриш;**
- мамлакат **суверенитети ва хавфсизлигини кафолатли таъминлаш.**

«Ўзбекистон — 2030» стратегияси қуйидаги 5 та устувор йўналишлар доирасида амалга оширилиши белгиланди:

- ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариш учун муносиб шароитлар яратиш;
- барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш;
- сув ресурсларини тежаш ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш;
- қонун устуворлигини таъминлаш, халқ хизматидаги давлат бошқарувини ташкил этиш;
- мамлакатни хавфсиз ва тинчликсевар давлатга айлантириш ишларини давом эттириш.

«Ўзбекистон — 2030» стратегияси 100 та мақсадни қамраб олган.

45. 2030 йилга қадар иқтисодий ҳажмини 2 баробар ошириш ва “даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар” каторига кириш.	II. БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ҲАМДА ИҚТИСОДИЙ ҲАМДА ИҚТИСОДИЙ			
	ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ			
	Ялпи ички маҳсулот ҳажмини 160 миллиард долларга ва аҳоли жон бошига даромадларини 4 минг долларга етказиш.			
	Макроиқтисодий	барқарорлик	ҳамда	иқтисодий
	ривожланишни энергетика, сув ва инфратузилма ресурслари билан ўзаро боғлиқлигини таъминланган ҳолда, ялпи ички маҳсулотнинг ўртача йиллик 6-7 фоиз даражасида ўсиш суръатини сақлаш.			
	Товарлар ва хизматлар бозори мувозанатини таъминлаш орқали йиллик инфляция даражасини 5-6 фоиздан ошмаслигини таъминлаш.			
	Иқтисодиётда трансформация ва институционал ислохотларни изчил давом эттириш, мамлакатда қулай инвестицион ва ишбилармон муҳитни таъминлаш ҳамда мувозанатлашган пул-кредит сиёсатини амалга ошириш.			
Давлат қарзининг ялпи ички маҳсулотга нисбатини 50 фоиздан ошмаслиги учун ўрта муддатларга мўлжалланган давлат қарзини бошқариш стратегиясини амалга ошириш.				
Иқтисодиёт тармоқларида юқори технологияларга асосланган корхоналарнинг улушини кескин ошириш, иқтисодий ўсишнинг янги “драйвер”ларини ишга солиш.				
Асосий капиталга киритиладиган инвестициялар ҳажмининг йиллик ўртача 7 фоиз атрофида ўсишини таъминлаш.				



Саноатнинг “драйвер” соҳаларини ривожлантириш ва ҳудудларнинг саноат салоҳиятини тўлиқ ишга солиш.	Саноатда қўшилган қиймат ҳажмини 45 миллиард долларга етказиш ва 2,5 миллионга юқори даромадли иш ўринларини яратиш.
	Хом ашёни чуқур қайта ишлаш тармоқлари ҳажмини 2,5 бараварга қўпайтириш.
	Йирик корхоналар томонидан импорт ўринини босувчи маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва ҳудудий корхоналар билан кооперация алоқаларини кенгайтириш, саноат кооперациясини йўлга қўйган корхоналарни фаол рағбатлантириш тизимини жорий қилиш.
	Ҳар бир туманда 2 тадан янги юқори технологик саноат зоналарини ташкил этиш ҳисобига уларда камида мингта иш ўринларини яратиш.
	Республиканинг 60 минг квадрат километр майдонда геология-кидирув ишларини амалга ошириш.
	Тўқимачиликда ип калавани қайта ишлаш даражасини 100 фоизга етказиш ҳамда юқори сифатли матога талабни қондириш учун 400 минг тонна сунъий ва аралаш тола ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш.
	Қурилиш материалларини ишлаб чиқариш ҳажмини 2 бараварга қўпайтириш ва янги турдаги энергия тежамкор материалларини ишлаб чиқишни кенгайтириш.
	Фармацевтика соҳасида дори воситаларига эҳтиёжин 70 фоизга ички ишлаб чиқарувчилар ҳисобига қоплаш.

Банк тизимида ислохотларни жадаллаштириш, банк хизматлари бозорини ҳажмини ошириш ва соҳада рақобатни ривожлантириш.	Банк ва молия тизимида йиллик кредитлаш ҳажмини 40 миллиард долларга етказиш, банк омонатлари ҳажмини 4 бараварга ошириш, кредит фоизларини 10-12 фоизгача тушириш.
	Банкларни хусусийлаштириш ва давлат ихтиёрида 3-4 та банкни саклаб қолиш, банк бозорига камида 4 та йирик нуфузли чет эл банкларини жалб қилиш.
	Капитал ҳаракатини босқичма-босқич янада эркинлаштириш чораларини кўриш орқали молия бозорига ўрта ва узоқ муддатли хорижий капитал оқимини кенг жалб қилиш.
	Банкларга халқаро тан олинган минимал стандарт ва талабларни жорий қилиш орқали мейёрлар ва назорат базаларини такомиллаштириш.
	Банкларнинг кузатув кенгашларида халқаро тажрибага эга бўлган мустақил аъзоларни улушини камида 50 фоизга етказиш, кузатув кенгашлари раисларининг мустақил аъзолар орасидан сайланишини таъминлаш.
	Камида 3 та тижорат банкларида Ислом молияси мезон ва тартибларини жорий этиш.
	Судга киритилган даъволар бўйича кредитларга оширилган фоиз ва жарима ҳисоблашни тўхтатиб туриш механизмларини жорий қилиш.

“Яшил иктисодиёт”га ўтиш, унинг асоси бўлган қайта тикланувчи энергиядан фойдаланиш кўрсаткичларини кескин ошириш.	Қайта тикланувчи энергия манбаларини 25 минг мега-ваттга ҳамда жами истеъмолдаги улушини 40 фоизга етказиш.
	Саноатда “яшил сертификат”лар бозорини ривожлантириш ва “экологик маркировкалаш” амалиётини жорий қилиш.
	Экологияга зарар етказмайдиган инфратузилмани шакллантириш ва саноат корхоналарида “айланма (циркуляр) иктисодиёт” амалиётини жорий қилиш жараёнларини рағбатлантириш.
	9 гВт қуёш ва 5 гВт шамол электр энергияси станцияларини давлат-хусусий шериклик асосида ҳамда қуввати 1,9 гВт 28 та гидроэлектр станцияларини қуриш.
	3 гВт қувватли 3 та иссиқлик электр станцияларини модернизация қилиш орқали табиий газ сарфини камайтириш.
	Қўп қаватли уй-жойлардаги хонадонларни энергия самарадорлиги (энергоаудит)ни баҳолаш тизимини жорий этиш.
	Жамоат транспортини тўлиқ экологик тоза ёқилгига ўтказиш.
	Иқлим ўзгариши соҳасида барча иссиқхона газларини қамраб олувчи мониторинг тизимини (MRV) яратиш.

	“Яшил ўсиш” шаронтида бозор иктисодиёти нуксонларини бартараф этиш ва “мақбул нархларни шакллантириш” институтларини мустаҳкамлаш.
--	--

	Иссиқхона газларининг ялли ички маҳсулот бирлигига нисбатан 2010 йилдаги даражадан 40 фоизга қисқартириш.
--	---

Иқтисодиёт ва аҳолини зарурий энергия ресурслари билан узлуксиз таъминлаш.	Электр энергиясини ишлаб чиқариш ҳажмини 118 миллиард кВтга етказиш.
	Табиий газ қазиб олиш ҳажмини 62 миллиард куб метрга етказиш.
	Иқтисодиёт тармоқларининг энергия самарадорлигини 2 баробарга ошириш.
	Энергия ресурслар бозорини эркинлаштириш бўйича ислохотларни яқинига етказиш орқали соҳага хусусий инвесторларни жалб этиш.
	Электр энергияси ва табиий газни тақсимлаш, генерация қилиш ва истеъмолчига етказиш инфратузилмасини модернизация қилиш.
	Нефть-газ қазиб чиқариш ҳажмини ошириш.
	Углеводородлар ҳомишбеси захираларини кўпайтиришга қаратилган геология-қидирув ишларига хорижий инвесторларни жалб қилиш.
	Барча турдаги энергия ресурсларини ҳисобини юритишнинг тўлиқ рақамлаштириш.
Ўзбекистон энергетика тизимининг қўшни давлатлар энергетика тизимлари билан барқарор ишлашига эришиш.	
Иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳаларда йўқотишларни камайтириш ва ресурсларни ишлатиш самарадорлигини ошириш.	

Қишлоқ хўжалигида ҳосилдорлик ва рентабеллик даражасини кескин ошириш.	Бир гектардан олинadиган ўртача даромадни 5 минг долларга етказиш.
	Қишлоқ хўжалиги соҳасида экспорт ҳажмини йилга 10 миллиард долларга етказиш.
	Аграр соҳага жами 15 миллиард доллар инвестицияларни жалб қилиш.
	Ҳосилдорлик кўрсаткичларини тахта бўйича ўртача 45-50 центрге, галла бўйича – 80-85 центрге етказиш.
	Қўшимча 300 минг гектар ер майдонини замонавий сув тежайдиган технологияларни қўллаш орқали ўзлаштириш ва маҳсур ерларда интенсив боғ ва узумзорлар ташкил этиш, ерларни ўзлаштирган фермер ва деҳқонларга ўн йил муддатга 10 фоизли имтиёзли кредитлар ажратиш.
	Маҳаллий сабзавот, полиз, картошка уруғлик таъминотини 50 фоизга етказиш.
	Қишлоқ хўжалиги маҳсуотларини қайта ишлаш кўрсаткичининг 25 фоиздан юқори бўлишини таъминлаш.
	Республика ҳудудларида 2,5 миллион тонна қуватга яна бўлган 100 та янги агрологистика марказлари фаолиятини йўлга қўйиш ҳамда уларнинг экспорт салоҳиятини 1 миллиард долларга етказиш.
	Ер муносибатларини ислох қилиш доирасида ер майдонлари ижара ҳуқуқини гаровга қўйиш механизмни жорий қилиш.
	Қўччилик хўжалиқлари реестрини юритиш ва қўчаларни сертифицилаш тизимини жорий қилиш.
	Хар бир туманда аграр соҳадаги илм ва инновациялар, янги ёнқашулар, замонавий агротехник раёбарларни амалга оширишга қўмаклашувчи марказларни ташкил қилиш.
	Деҳқон ва фермер хўжалиқлари ҳамда кластерларга барча субсидияларини ягона “Агросубсидия” платформаси орқали “бир қадам” тавоийли асосида тақдим этиш.
	Қишлоқ хўжалиги маҳсуотларини ва чорвани сугурта қилиш тизимини ислох қилиш, алоҳида сугурта жағмармасини ташкил этиш ва унга 100 миллион доллар ажратиш, деҳқон ва фермерларга сугурта муқофотини 50 фоизини субсидиялаш тизимини жорий қилиш.
	Чорвачилик соҳасида озуқа базасини мустаҳкамлаш, айлов ерлардан унумли фойдаланишини таъминлаш.
	Пиллачилик соҳасида кластер тизими асосида 105 минг гектар янги туғзорларни барпо қилиш ва 1 миллиондан ортиқ янги иш ўринларини яратиш.



Миллий иқтисодиётнинг экспорт салоҳиятини кучайтириш ва унинг таркибида қўшилган қиймати юкори бўлган маҳсулотлар улушини кескин ошириш.	Экспорт ҳажмини 2 баробар ошириш ва 45 миллиард долларга етказиш, экспортчи корхоналар сонини 6,5 мингтадан 15 мингтага ҳамда хусусий секторнинг экспортдаги улушини 60 фоизга етказиш.
	Экспорт таркибида тайёр ва ярим тайёр маҳсулотлар ҳажмини 3,3 баробар қўпайтириш, Европа давлатларига GSP+ ва бошқа тизимлари доирасида тайёр ва технологик маҳсулотлар экспортини кенгайтириш.
	Халқаро стандартлар жорий қилинган корхоналар сонини 10 баробарга ошириш ва улар сонини 5 мингтага етказиш.
	Экспортчи корхоналарга айланма маблағларни тўлдириш, савдо уйлари очиш, кўрғазмаларда иштирок этиш каби мақсадлар учун 2 миллиард доллар йўналтириш.
	Дунёнинг 50 та нуфузли брендлари билан махсус экспорт зоналарини ташкил қилиш.
	"Янги Ўзбекистон – рақобатбардош маҳсулотлар юрти" гояси асосида миллий брендларни хорижий бозорларга олиб чиқадиган экспортчиларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш.

Худудларда хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш.	Худудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш.
	Ўрта ва йирик шаҳарлар ҳамда аҳолиси 300 мингдан кўп бўлган туманларда замонавий бозор хизматлари, ИТ, таълим, тиббиёт, юридик, санъат, туризм, меҳмонхона ва умумий овқатланиш ҳамда транспорт хизматларини ривожлантириш.
	Шаҳарсозлик лойиҳалари асосида зарурий инфратузилмаси мавжуд ва аҳоли гавжум бўлган кўчаларнинг 233 мингта бўш ер майдонларини аукцион савдоларига чиқариш орқали савдо, маиший, сайилгоҳ ва кўнгилочар хизматларини ривожлантириш.
	Ўрта ва йирик шаҳар марказларида хизмат кўрсатишга ихтисослашган марказий кўчаларни ташкил этиш орқали 36 мингта савдо ва сервис объектларини ташкил этиш.
	“Янги Ўзбекистон” массивларида ва халқаро автомобил йўллари бўйида 6 мингта савдо ва сервис объектларини қуриш.
	Етакчи лойиҳа ташкилотларини жалб қилиб, бозорларни замонавий, қулай барча хавфсизлик талабларига жавоб берадиган савдо комплексларига айлантириш.

Худудларни комплекс ривожлантириш, урбанизация стратегиясини амалга ошириш, аҳолини арион уй-жой билан таъминлаш даражасини ошириш.	Урбанизация даражасини 51 фоиздан 60 фоизга етказиш, Самарқанд ва Наманган шаҳарларини “Миллий шаҳарлар”га айлантириш. 300 мингдан кўп бўлган шаҳар ва туманлар сонини 28 тага етказиш, барча аҳоли пунктларини бош режаларини яншлаб чиқариш.
	Қурилиш ҳажмини йилга 25 миллиард долларга етказиш, худудларда қўшмача 1 миллион қондовдони уй-жойлар қуриш, “Янги Ўзбекистон” массивлари сонини 100 тага етказиш, қўшмача 200 мингта оғишга мўлжалланган уйлари барпо этиш, республикада қандайдир 140 минг оғишга мўлжалланган иқтисодий уйлари барпо этиш.
	Худудларни иқтисодий-иқтисодий ривожлантириш дастуруларини яншлаб чиқариш урбанизация стратегияси асосида амалга ошириш.
	Туман (шаҳарларнинг бош ва мастер режаларини 3 та тоғфали (реконструкция, реконструкция ва консервация) зоналарга ажратиш, соҳалаштиришнинг тартибига ҳамда аҳоли ва табиқорлар таъсирларини яншлаб чиқариш ҳамда яншлаб чиқариш амалиётини жорий этиш.
	Тошкент, Андижон, Наманган, Самарқанд, Ферғана ва Хоразмда янги 2 миллион нафар аҳолига мўлжалланган янги шаҳарларни қуриш.
	Хизмат муддатини ўтаб бўлган массивлар ва эскирган уй-жойларни янгиланиш мақсадида кенг жамоатчилик фикри асосида Реконструкция дастуруларини яншлаб чиқариш, аҳоли зич бўлган худудларда “бўйига ўсариш” тамойили асосида кўп қаватли уй-жойлар барпо этиш.
	Жойларга муаммалар-коммуникация ва иқтисодий инфратузилмаларни қуришда худуднинг узоқ муддатли (қандайдир 20 йилгача) иқтисодий-иқтисодий ва демография ривожлантиришнинг яншлаб чиқариш амалга ошириш.
	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларида иқтисодий жамғарган самараларни фойдаланган турларини ривожлантиришда мастер-режа механизмни кенг қўллаш.
	Худудларнинг миллий иқтисодий афтини ошириш мақсадида, ушбу таъминот жўлб қилишга руҳлат бериш.
	Тошкент шаҳарда жорий қилинган бошқаруш компаниялари фойдаланиш қишлоқ ва овулларга ҳам йўлга қўйиш.
	Ривожлантириш давлатларини: билим-инновациялар бўйича қурилиш хавфсизлиги меъдалари асосида янги стандартларни жорий қилиш.
	Қурилишда монтажчиларни баҳолаш, текшириш ва қабул қилиш тизимига хусусий секторни кенг жалб қилиш.
	Қурилишда ўрта бўғим мутахассисларини тайёрлаш тизимини қайта қўриб чиқиб, ҳар бир худудда таълимнинг ташкил этиш ва йилга 20 минг нафар профессионал уста тайёрлаш.
	Уй-жой қуриш учун республика бўйича 2 минг гектар ер участкаларини ажратиш, ушбу ер майдонларига уй-жой барпо этиладиган қурувчиларни 2 йил давомида қурувчиларга етказиш етказиш.
	Жисмоний шахслар томонидан сотиб олинган янги уй-жойлар учун тўлган қўшмача қиймат солиғинини 50 фоизни тўлаб бериш.
	“Менин биринчи уйим” дастури доирасида қуриладиган уйларни қандайдир 50 фоизини ҳужжатсиз ва ёш оилалар учун ажратиш, улар сотиб олинган уй-жой учун ҳисобланган қўшмача қиймат солиғи суммасини қайтариб бериш.
	Қурилиш корхоналари ва истеъмолчилар учун арион ва узоқ муддатли кредитлар тақдим этиш, кредит бўйича фоиз тўловларининг бир қисmini қоплаб бериш тартибини жорий қилиш.
	Кўп квартиралы уйлар ва бошқа қўшмача мулк объектларини улуш қилиш асосида қурилиш тартибига соғувчи қонуний асосларни яншлаб чиқариш.
	Қурилиш бозорига ривожлантириш ва сифатини ошириш, нарсаларни арионлаштириш учун, саломатлиги қурувчиларга махсус техникалар ва айланма маблағ учун 1 миллиард доллар ресурс ажратиш.




Инфратузилма лойиҳаларини барқарор ва узок муддатли молиялаштириш манбалари билан таъминлаш.	Давлат-хусусий шериклик асосида қиймати 40 миллиард долларлик лойиҳаларни амалга ошириш.
	Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларида иштирок этиш учун халқаро инвесторларнинг, жумладан, инфратузилма ва суверен фондлар ҳамда глобал молия ташкилотларининг инфратузилма маблағларини жалб қилиш.
	Халқаро молия институтлари билан Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини ишлаб чиқиш жамғармасини ташкил этиш.
	“Инфратузилма облигациялари”ни чиқариш амалиётини йўлга қўйиш.
	Маҳаллий қурилиш корхоналарига хорижий тендерларда иштирок этиш харажатлари учун имтиёзли ссуда ёки банк кафиллиги бериш амалиётини йўлга қўйиш.
	Барча аҳоли пунктларини тоза ичимлик суви билан таъминлаш.

Монопол соҳаларни бозор тамойилларига изчил ўтказиш, иқтисодиётда хусусий сектор улушини ошириш, тадбиркорларга эркин фаолият юритиши учун энг кулай шароитлар яратиш.	Иқтисодиётда давлат сектор улушини 85 фоизга етказиш, давлат улушини мавжуд 2,3 минг та корхоналар сонини 6 баробарга камайтириш.
	Республикада 17 турдаги давлат монополиясини бекор қилиш, ушбу соҳаларга хусусий секторни кенг жалб қилиш, давлат тасарруфидан фақат магистрал энергия ва транспорт гармоқлари, давлат бошқаруви ва хавфсизлиги билан боғлиқ соҳаларни сақлаб қолиш.
	Темирйўлда ташин, автомобиль йўлларини қуриш ва бошқариш, газ ва электр етказиб бериш хизматларини хусусий секторга олиб бериш.
	Ирригация, чиқиндиларни қайта ишлаш, ижтимоий объектларда энергетика ва иссиқлик таъминоти тизимини бошқариш каби давлат монопол соҳаларида хусусий шериклик механизмларини кенг жорий этиш.
	Маҳаллий тадбиркорлик субъектларига стратегик фойдали қазилма конларини бериш амалиётини кенгайтириш, олтин, қумуш, рангли металллар, вольфрам, қўмир ҳамда норуца конларга берилган рухсатномалар сонини 4 баробар ошириш.
	Солиқ тизимининг барқарорлигини таъминлаш мақсадида бизнес учун қўшилган қиймат ва фойда солиқ ставкалари уч йил давомида оширилмаслигини кафолатлаш.
	Солиқ тизимини тўлиқ рақамлаштириш, соддалаштириш ва барча тадбиркорлар учун тенг имкониятлар яратиш, расмий сектор — нолегал фаолиятдан афзал ва манфаатли бўлиши учун барча зарур шароитларни таъминлаш.

Ўзбекистонда ташқи ва ички туризмни ривожлантириш учун кенг шароитлар яратиш орқали сайёҳлар сонини ошириш.	Хорижий туристлар сонини 15 миллионга, ички сайёҳлар сонини 25 миллионга, зиёрат туризми бўйича келадиган туристлар сонини 3 миллион нафарга ошириш.
	Хусусий инвестицияларни жалб қилиш ҳисобига республикада 30 та йирик туризм кластерларини ташкил этиш, меҳмон ўринлари сонини камида 2 баробарга ошириш, тоғли ҳудудларда 25 та дор йўллари қуриш, туризм маҳаллалари сонини 175 тага етказиш.
	Туризм хизматлари экспортини 5 миллиард долларга етказиш, тиббиёт ва таълим туризми экспортини йилга 1,5 миллиард долларга етказиш.
	Хорижий туристлар учун барча халқаро аэропортларда республикадан сотиб олинган ва расмийлаштирилган маҳсулотлар учун «Tax free» тизимини жорий этиш.
	«Қўхна тарих дурдоналари» миллий дастурини ишлаб чиқиш ҳамда унинг доирасида маданий мерос объектини реставрация қилиш, ёдгорликларда «очиқ осмон музей»ларини ташкил этиш.
	Мамлакатимиз миқёсида шаҳарлараро автобус қатновини таъминлайдиган компанияларни ташкил этишни янада рағбатлантириш.
	Жами 1 000 дан зиёд электр қувватлаш станциялари, овқатланиш ва хордик чиқариш, савдо ва хизмат кўрсатиш нукталарини ташкил қилиш.

Экологик вазиятни барқарорлаштиришга қаратилган «Яшил макон» умуммиллий лойиҳасини кенгайтириш.	Ҳар йили 200 миллион туп дарахт экиб бориш ва республикада яшиллик даражасини 30 фоизга етказиш, экиладиган ҳар бир дарахтни парвариш қилиш ва суғориш тизимини яратиш.
	1 984 та яшил боғлар барпо этиш, шу жумладан 112 та йирик саноат корхонаси томонидан ўз ва туташ ҳудудларида уч йил давомида 30 миллион туп қўчатдан иборат «яшил белбоғ»лар барпо этиш.
	Барча давлат идоралари, корхоналар, таълим муассасалари ҳудудларида «яшил боғлари»ни ташкил этиш.
	Тошкент шаҳрида яшил майдонлар ҳудудини 5 баробар қўпайтириб, 5 минг гектарга етказиш.
	«Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси ташаббусларига мос тарзда республиканинг 10 та ҳудудида аэробиологик мониторинг тизимини йўлга қўйиш.

Шаҳар ва туман марказларида ҳар 50 — 100 минг аҳоли учун «жамоат парклари»ни ташкил этиш.



Оролбўйи минтақасида экологик вазиятни барқарорлаштириш, Орол денгизи қуриши натижасида юзага келган экологик муаммоларнинг салбий таъсирини юмшатиш.	Оролбўйи минтақасидаги ўрмонзорларни 2,3 миллион гектарга етказиш. Орол денгизининг қуриган тубида қўшимча 600 минг гектар яшил майдонларни барпо этиб, уларнинг умумий ҳажмини 2,6 миллион гектарга ёки ҳудуднинг 80 фоизига етказиш. «Яшил иқлим» ва Глобал экологик жамғармаларнинг биохилма-хиллик, иқлим ўзгариши ва тупроқ емирилишининг олдини олишга қаратилган дастурлари асосида 300 миллион доллар қийматидаги лойиҳаларни амалга ошириш. Халқаро ҳамкорлар билан «Орол денгизи ҳавзасининг қуйи оқимидаги деградацияга учраган ерлар ҳолатини яхшилаш» лойиҳасини амалга ошириш.
Иқлим ўзгариши салбий таъсирининг олдини олиш.	Чўлланиш, қургўқчилик, чанг-қум бўронлари ва ҳароратнинг кўтарилишига қарши чора сифатида жами 600 минг гектар майдонда «яшил қопламалар» — химоя ўрмонзорларини барпо этиш. Хавфли гидрометеорологик ҳодисалар тўғрисида барвақт огоҳлантиришлар даражасини 100 фоизга етказиш, тоғ дарёлари оқими прогнозларининг ишончлилиги даражасини 98 фоизга етказиш. Қишлоқ хўжалиги экинларининг ривожланиши ва ҳосилдорлиги ҳақидаги агрометеорологик прогнозларнинг ишончлилиги даражасини 96 фоизга етказиш. Фойдали қазилмаларни қазиб олиш натижасида бузилган 6 075 гектар ер майдонларини рекултивация қилиш. Сувсизлик ва қургўқчиликка чидамли, ҳар бир ҳудуднинг иқлимига мос экинлар, мева ва узумнинг юқори ҳосилдор навларини яратиш ва ҳосилдорликни 30 — 35 фоизга ошириш.

Қаттиқ маиший чиқиндиларни тўплаш ва олиб чиқиш хизматлари сифатини яхшилаш.	Қаттиқ маиший чиқиндиларни тўплаш ва олиб чиқиш хизматлари билан қамраб олиш даражасини 100 фоизга, чиқиндиларни қайта ишлаш даражасини 65 фоизга ошириш.
	Қуйдириладиган чиқиндилар улушини 35 фоизга етказиш, маиший чиқинди полигонларини камида 50 фоизга қисқартириш.
	«Ноль чиқинди» тизими доирасида маиший чиқиндиларни шаҳарлардан олиб чиқиш, қайта ишлаш ва улардан экологик тоза энергия ва бошқа маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини қамраб олган кластерлар жорий этиш.

. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil tayyorgarlik uchun mavzular:

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
7. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
8. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering.
9. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
10. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
11. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
12. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.
13. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
14. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
15. Iqtisodiy hayotning bayналminallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?
16. Globallashuv jarayoni nima va uning qanday yo'nalishlari mavjud? Globallashuv jarayonining ziddiyatli jihatlarini gapirib bering.
17. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o'ynaydi?
18. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.
19. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi? Hozirda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarni bilasiz?
20. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
21. Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rni qanday?
22. Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
23. Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?

24. Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
25. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

VI. GLOSSARIY

Bozor iqtisodiyoti - tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisodiyot. Uzoq tarixga ega bo'lib, sohibkorlarning erkinligi va raqobatni taqozo etadi. Qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni B.i.ga xos ob'ektiv qonunlardir. Bozor esa sotuvchi bilan xaridor o'rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabatidir.

Bozor munosabatlarining shakllanishi - ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to'g'ri keladi (Makkonell K.R., Bryu S.P., «Ekonomiks», M.,1992, 12-bet).

Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining uch asosiy yo'nalishi mavjud: 1.Neoklassik (yangi klassik); 2. Keynschilik; 3. Institutional.

Institutionalizm - lotincha «urf-odat», «muassasa», «ko'rsatma», ya'ni ayrim institutlar (oilalar, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya.XX asrning 20-30-yillarida AQShda keng tarqaldi. T.Veblen (1857-1920), J.R.Kommons (1862-1945), U.K.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940) va boshqalar bu nazariyaning 20-30-yillardagi vakillaridir, keyingilari esa Klark, Berli, G.Minz (50-yillar), Lou, Myurdal, Gelbreyt, Xeylbroner (60-yillar va hozirgi davr) ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini inkor etadilar.

Buyuk depressiya - 1929-1933 yy. va hatto 1940 yilgacha AQSh va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishsizlik 25% oshgan (17 mln.).

Keyns Jon Meynard (1883-1946) - ingliz iqtisodchisi, keynschilikning asoschisi, 1929-1933 yillarda Buyuk inqirozni tahlil etib, jamoat ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida davlatni kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishiga asoslangan nazariyasini yaratdi. Milliy daromad, kapital mablag', ish bilan bandlik, iste'mol, jamg'arish va boshqa iqtisodiy miqdorlarning tahliliga alohida e'tibor berdi. «Boshqariladigan kapitalizm»ning tarafdori bo'ldi, turli yo'nalishlari mavjud. A.Marshallning do'sti, marksizmning ashaddiy dushmani, «aralash iqtisodiyot»ning otasi va «Iqtisodiy jurnal»ning muharriri. Asosiy asari «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936). Multiplikator formulasini taklif etgan, investitsiyalarning o'sishi, bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatgan, masalan, AQSh uchun o'sha davrda bu ko'rsatkich 2.5 bo'lgan, ya'ni investitsiya qilingan 1 dollar 2.5 dollar daromad keltirgan.

Likvidlik - moddiy ne'matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobiliyati; korxonani o'z majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olish qobiliyati balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

Keynschilik - J.M.Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo'nalish, uch oqimi mavjud: 1. O'ng oqim - o'ta reaksiya oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan; 2. Liberal oqim - monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishni inkor etuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson xonim, bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o'rin berilgan. Fransiya «dirijizm» (dirijer so'zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan; 3. Yangi

keynschilik, keyinroq ortodoksal keynschilik - J.M.Keynsning qoidolari to'la qabul qilingan holda A.Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to'ldiriladi. A.Xansen va K.Klark multiplikator prinsipini akselerator prinsipi bilan to'ldirdilar, induqirlangan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Imperativ (zaruriy) va Indikativ (taklif majburiy emas) rejalashtirishlardan foydalanish mumkinligi aytiladi (Fransiya va bir qancha mamlakatlarda keng tarqalgan). Asosiy vakillari fransiyalik G.Ardan, G.Mendes-Frans, F.Perru, S.Xarrislardir. Yangi keynschilik o'rniga postkeynschilik vujudga keldi, uning vakillari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa (Angliya), L.Eyxner, Vayntraub (AQSh); bu oqimda o'sish va taqsimot markaziy deb hisoblanadi. Iqtisodni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish taklif etiladi.

Multiplikator - ko'paytiruvchi; iqtisodiyot ta'limotlarida ma'lum bog'lanishlarni o'rganishda, multiplikatsiya effekti bor joylarda qo'llaniladi. Masalan, Keyns ta'limoti bo'yicha qo'yilgan investitsiya va daromadlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi koeffitsient.

Akselerator - multiplikatorga teskari bo'lgan koeffitsient bo'lib, milliy daromad o'sishining investitsiya o'suviga ta'sirini ko'rsatadi (neokeynschilar qo'llagan).

Yangi klassik (neoklassik) yo'nalish - Farb iqtisodiy adabiyotida «Yangi klassik ekonomiks» deb ataladi va bu yo'nalish asosida marjinalizm g'oyalari yotadi. Buyuk ingliz iqtisodchisi A.Marshall (1842-1894) nomi bilan bog'liq. Shu davrda «Siyosiy iqtisod» o'rniga mafkurasiz «Ekonomiks» matni paydo bo'ldi. Unda sof erkin bozor iqtisodiyoti targ'ib etiladi, davlatning roli imkoni boricha kam bo'lmog'i kerak. Bu yo'nalishda liberalizm va neoliberalizm oqimlari mavjud. Amerika monetarizmi - M.Fridman (1912, AQSh) o'zining «Kapitalizm va erkinlik» (1960) kitobida «erkin ishbilarmonlik»ni himoya qiladi. «Ozodlik yo'lida qurbon berish»ni va «tabiiy ishsizlik»ni qo'llab-quvvatlaydi, davlat tomonidan beriladigan yordamga qarshi chiqadi, iqtisodiyotni to'g'ri pul siyosati bilan (davlat kam aralashadi) tartibga solish tarafdori. Bu oqim g'oyalari Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotida qo'llanilmoqda.

«Marshall xochi» - talab va taklif egri chiziqlarining kesishganligini ko'rsatadi; kesishgan nuqta ularning muvozanatini hamda turg'un bahoni ko'rsatadi.

Fridman Milton (1912, Nyu York) - iste'mol: pulning tarixi va nazariyasi sohalaridagi tadqiqotlari uchun 1976 yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Uning pul to'g'risidagi g'oyalari (monetarizm) AQShda R.Reygan, Buyuk Britaniyada M.Tetcher iqtisodiy siyosatida qo'llanilgan.

Samuelson Pol (1915, AQSh) -ko'p marta qayta nashr etilgan «Ekonomiks» (1948) darsligini yaratdi (rus tiliga ham ag'darilgan), 1970 yilda iqtisodiyot fanlarida ilmiy tahlil darajasini oshirishga qo'shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan.

Iqtisodiyotning barcha sohalariga oid ilmiy ishlari bor. «Aralash iqtisodiyot»ning nazariyotchisi. Neoklassik tahlil bo'yicha, taraqqiyotning «to'rt g'ildiragi» asoschisi.

Neoliberalizm - neoklassikaning bir oqimi, klassik iqtisodiy maktabni va keynschilikni birga qo'llash tarafdori, bunda davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi taklif etiladi. Asosiy vakillari L. fon Mizes (1881-1973), F. fon Xayek (1899-1992) bo'lib, bu oqim Avstriya maktabi deb ham yuritiladi. Soqialistik (imperativ)

rejalashtirishga qat'iy qarshi, chunki bu rejalangan tartibsizlikka olib keladi, mehnat taqsimoti, xususiyl mulk va erkin almashuv iivilizatsiyaning mutlaq asosi deb sanaladi. Xayek 1974 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo'lgan. Neoliberalizm g'oyalari asosida «Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti» yuzaga keladi, uning asoschilari - nemis olimlari V.Rebke (1899-1966), V.Oyken (1891-1950), L.Erxard (1897-1977)lardir. Bu konseptsiya GFR va Shveitsiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g'oyalari mustaqil O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llanilmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: erkin baholarning zarurligi; erkin raqobat; talab va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo'jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo'naltirilgan rivojini ta'minlash. N. nafaqat ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, balki kapitalizmning erkin raqobatlariga asoslangan davridan ham qat'iyan farq qiladi. Mustaqil O'zbekistonda undan ijobiy foydalanilmoqda.

Lukas R.I. - neoliberalizmning tarafdori, «Ratsional kutilmalar» nazariyasi uchun 1995 yilda Nobel mukofoti sovrindori. Ijtimoiy-institutsional yo'nalish evolyutsiyasi industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial (neindustriall) jamiyat sari boradigan konvergenstiya nazariyalarida (Gelbreyt, P.Sorokin - AQSh, Raymon, Aron - Fransiya, Tinbergen - Niderlandiya) kapitalizm va soxtializmning ilg'or tomonlarini olish va amalda qo'llash taklif etiladi.

«Xalq kapitalizmi» nazariyasi - kapitalizm transformatsiyasi (o'zgarishi) bilan bog'liq, go'yoki hozirgi kapitalizm «eski kapitalizm»dan keskin farq qiladi, ilgari gi illatlar yo'qolgan. X.k.ning vakillari: Berli, Nidler, Cheyz, Klark, Gelbreyt... «Kapitalning demokratizatsiyalashuvi» («Mulk diffuziyasi») yo'li bilan aholining barcha qismi mulkka egalik qiladi (aktsionerlik jamiyatlari)

Konvergenstiya nazariyasi - bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go'yo asta-sekin bartaraf etiladi, degan g'oya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt (1908), Ya.Tinbergen (1903).

Ekonometrika kontseptsiyalari - iqtisodiyotda matematika metodlaridan keng foydalanishga asoslangan konseptsiyalar. Asosiy vakillari L.Valras, V.Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U.Mitchell, E.Barone, M.Panteleoni. 1910 yilda polshalik iqtisodchi P.Chompa «Ekonometriya» («Ekonometrika») matnini qo'llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R.Frish kiritgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda keng rivoj topmoqda. Turli iqtisodiy ta'limot yo'nalishlarida qo'llaniladi, ilmiy va amaliy ahamiyatga molik. V.Leontev ham bu konseptsiyalardan (1906) o'zining «chiqim - chiqarish» uslubida foydalangan (U 1973 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo'ldi). 60-70-yillarda bu yo'nalish sobiq SSSR, xususan O'zbekistonda rivoj topdi. Respublikamizning olim va mutaxassislari tomonidan iqtisodiy modellashirish va algoritmlash bo'yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jahon xo'jaligi - qadimdan vujudga kelgan, ammo XVI asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar tufayli rivoj topgan, ayniqsa II Jahon urushidan keyin avj olgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo'jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Xalqaro integratsiyada baynalmilallik xos.

Xalqaro mehnat taqsimoti - butun jahon xo'jaligining tashkil topish va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo'lib uning zarurligini D.Rikardo aytgan. Ayrim ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A.Smit), jahon xo'jaligida ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya'ni ayrim mamlakatlarning ma'lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.

Jahon iqtisodiyoti nazariyalari - jahon bozorida mahsulot, valyuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o'rganuvchi nazariyalar. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasi tipikdir (E.Xeksher, B.Olin, P.Samuelsan); «Mahsulot hayoti rikli» nazariyasi (G.Xufbauer, R.Vernon, M.Pozner); Monopolistik raqobat nazariyasi (E.X.Chemberlin) va boshqalar.

Absolyut (mutlaq) afzallik printsipl - A. Smit tomonidan ilgari surilgan g'oya bo'lib, savdo munosabatlaridagi mutlaq afzallikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

Nisbiy afzallik printsipl - D. Rikardo tomonidan izohlab berilgan printsipl bo'lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, er) xarajatlarining afzalligini ko'rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqalarda keng qo'llaniladi.

Insoniy rivojlanish konsepsiyasi - BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo'lishi ko'zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog'lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o'ringa qo'yiladi (ayrim davlatlar kambag'al bo'lishiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga erishmoqdalar va aksincha) hamda «ijtimoiy rivojlanish indeksi» (IRI) bilan o'lchanadi.

Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish kontsepsiyasi - ilgari qoloq bo'lgan, kapitalizm taraqqiyoti bosqichini to'la bosib o'tmagan mamlakatlar uchun tavsiya etilgan rivojlanish yo'li. Bir qancha mamlakatlar shu yo'ldan borib, soqializm quryapmiz, deb o'ylagan. Hayot buni inkor etdi.

O'tish davri - bu erda ma'muriy-buyruqbozlik (imperativ rejalashtirilgan) iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish davri. O'z davrida soqiolistik deb atalgan mamlakatlarning, xususan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish davri.

Iqtisodiy rivojlanishning «o'zbek modeli» - 1991 yil 1 sentyabrdan mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan Respublikamizning **ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti**.

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrirda), 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida” PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O'zbekiston -2030” Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-6079-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi “2020 - 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 506-son Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 343-sonli Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

17. Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2009.
18. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2014.
19. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009.
20. O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 480 bet.
21. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod, 2021. – 823 bet.
22. Xodiev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017. – 785 b.
23. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019.
24. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2014.
25. Razzoqov A.A., Tashmatov Sh.H., O‘rmonov N.T. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.
26. P.S.Lopux, N.L.Strexa, O.V.Sargicheva, A.G.Shandroxa. Geografiya. Страны и народы. – Minsk : NIO, 2019. – 221 s.
27. Kulikov, L. M. Основы экономической теории : учебник для СПО / 3-ye izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo Yurayt, 2018. — 371 s.
28. Lobacheva, Ye. N. Основы экономической теории : учебник для СПО / 3-ye izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo Yurayt, 2017. — 516 s.
29. Kaznachevskaya G.B. Экономическая теория: Учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2016. - 394 s.
30. Mamaeva L.N. Экономическая теория: учебник. Ростов н/Д: Феникс, 2015. - 365 s.
31. Keynes Dj.M. Общая теория занятости, процента и денег. – M.: Gelios, 2002, s.162.
32. Makkonnel K.R., Bryu S.L. Экономика: принципы, проблемы и политика: Учебник. / 17-izd. - M.: INFRA-M, 2014. – 916 s.
33. Abulkasimov H.P., Hamraev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.-T.: Iqtisod moliya, 2014.

IV. Internet saytlar:

34. <http://yedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
35. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

36. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
37. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
38. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
39. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining sayti.
40. www.openinfo.uz – Moliya vazirligi korporativ axborot yagona portal.
41. <https://www.uzse.uz> – Respublika Fond birjasi.
42. <https://www.fondbozori.uz> – O‘zbekiston Respublikasi fond birjasi sayti.
43. www.openbudget.uz – O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq budget” portali.